

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

1 / 2022



TAHRIR HAY'ATI

TASHKULOV AKBAR DJURABAYEVICH

Bosh muharrir, Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

SALAYEV NODIRBEK SAPARBAYEVICH

Bosh muharrir o'rinbosari, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., professor

SAIDOV AKMAL XOLMATOVICH

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikerining birinchi o'rinbosari, y.f.d., akademik

MUXAMMADIYEV AKTAM ZAYNIDDINOVICH

O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri o'rinbosari

RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH

Toshkent davlat yuridik universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor, y.f.d., professor

AVTIONOVA NATALYA VLADIMIROVNA

Rossiya Federatsiyasi A.S. Griboyedov nomidagi Xalqaro huquq va iqtisodiyot instituti birinchi prorektor, pedagogika fanlari nomzodi

BORZU SABAH

Amerika Qo'shma Shtatlarining Xalqaro huquq instituti direktori, professor, huquq doktori

SKIBA ANDREY PETROVICH

Rossiya Federatsiyasi Federal jazoni ijro etish xizmati Akademiyasining Jinoyat-ijroiya huquqi kafedrasini mudiri, professor, yuridik fanlar doktori

NADJA ALEXANDER

Singapur menejmenti instituti Huquq maktabi professori, huquq doktori

EDWARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasini professori, huquq doktori

ROLF KNIOPER

Germaniyaning Bremen universiteti Fuqarolik, iqtisodiy va qiyosiy huquqshunoslik fanlari professori, huquq doktori

SUMACHEV ALEKSEY VITALEVICH

Rossiya Federatsiyasi Yugor davlat universiteti Yuridik instituti Jinoyat huquqi va jinoyat protsessi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

KOTA FUKUI

Yaponiyaning Osaka universiteti Oliy huquq va siyosat maktabi professori, huquq doktori

YOKOMIZO DAI

Yaponiyaning Nagoya universiteti Huquq fakulteti professori

JOAN BLUM

Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori

ISMAIL YAZICIOGLU

Turkiyaning Boyazid Yildirim nomidagi Anqara universiteti Huquq fakulteti professori, huquq doktori

CHORIYEV ORIFJON ABDISOBIRO'G'LI

Mas'ul muharrir, Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES

legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan. Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 6 **HOSHIMXONOV AHRORXON MO’MINOVICH**
Xorijiy mamlakatlarda hukumatni
shakllantirishning noparlamentar usuli:
qiyosiy-huquqiy tahlil
- 14 **ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini
raqamlashtirishning huquqiy mexanizmlarini
takomillashtirish masalalari
- 23 **SAIDAZIMOV YUSUF SODIQ O’G’LI**
Ma’muriy akti o’zgartirish va bekor qilishning
o’ziga xos xususiyatlari: taklif va muammolar
- 30 **КУСАИНОВА АЙГУЛЬ КАДЫРЖАНОВНА**
Правовая регламентация административной
ответственности в области налогообложения
в Республике Казахстан и Республике
Узбекистан

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 46 **РУЗИНАЗАРОВ ШУХРАТ НУРАЛИЕВИЧ**
АЧИЛОВА ЛИЛИЯ ИЛХОМОВНА
Некоторые аспекты правовой защиты
человека и направлений развития
авторского права на человеческое тело в
виртуальном пространстве
- 54 **ШИНЕКЕНЕВА ЗАУРЕШ КАЗИЗОВНА**
Сравнительно-правовой анализ
законодательства о социальной защите
прав граждан с ограниченными
возможностями Республики Узбекистан и
Республики Казахстан

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

- 63 **NARZULLAEV OLIM KHOLMAMATOVICH**
Scientific and theoretical analysis of normative
and legal acts on the protection and use of wildlife

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

- 75 **XUDAYKULOV FERUZBEK
XURRAMOVICH**
Jinoyatning obyektiv tomoni belgilari jinoyat
tarkibi to'g'risidagi konsepsiyalarning
shakllanish asosi sifatida: tahlil va taklif
- 86 **BOYDEDAYEV SADIRDIN
ABDUSATTOROVICH**
Korrupsiya shakllari va turlarini tasniflash
muammolari
- 96 **ИСЛОМОВ БУНЁД ОЧИЛОВИЧ**
Обстоятельства, смягчающие наказание и
исключающие преступность деяния по
уголовному законодательству Королевства
Нидерландов (сравнительный анализ)
- 109 **ТЕМИРОВА АЙЗАТ ЖАНАТОВНА**
Уголовная ответственность за неисполнение
обязанностей по уплате средств на
содержание детей в республике казахстан

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA.
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 117 **БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА**
Опыт развитых стран по применению
искусственного интеллекта для
обеспечения защиты прав личности
в уголовном правосудии

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 127 **GETMAN-PAVLOVA IRINA VIKTOROVNA**
YERPILEVA NATALIYA YUREVNA

RUSTAMBEKOV ISLAMBEK
RUSTAMBEKOVICH

O'zbekiston Respublikasida xalqaro xususiy
huquqni isloh qilish

- 144 **VALIJONOV DALER DILSHODOVICH**
Some issues of international legal
cooperation in combat against corruption

- 151 **MIRUKTAMOVA FERUZA**
LUTFULLAYEVNA
Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlov:
milliy qonunchilik va uni takomillashtirishning
huquqiy masalalari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)

- 163 **RASULMUXAMEDOVA DURDONA**
TOLKUNDJANOVNA
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin

- 170 **SALOYEVA HILOLA RAVSHAN QIZI**
“Yurisprudensiya” yo'nalishida tayyorlanayotgan
ilmiy maqolalarning janr-kompozitsion tahlili

UDC: 343.53(045)(575.1)

XORIJIY MAMLAKATLARDA HUKUMATNI SHAKLLANTIRISHNING NOPARLAMENTAR USULI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Hoshimxonov Ahrorxon Mo'minovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent
ORCID: 0000-0002-2705-950X
e-mail: hoshimxonov@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada hukumatni shakllantirishning usullaridan biri bo'lgan neparlamentar usul to'g'risida fikr yuritilib, huquqshunos mutaxassislarning ushbu yo'nalishdagi mulohazalarini keltirish va xorijiy mamlakatlarning ijro etuvchi hokimiyat oliy organini shakllantirishga oid konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini o'rganish asnosida uning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, hukumatni siyosiy javobgarlikka tortishga doir xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy-huquqiy amaliyoti tahlil qilingan. Turli davlatlarda hukumat ijtimoiy hayot sohasiga doir turli vakolatlarni amalga oshirsa-da, barcha rivojlangan demokratik davlatlarda hukumat o'z faoliyatining asosi sifatida fuqarolarning haq-huquqlari, manfaatlari va erkinliklari himoyalanihini ta'minlashni ifoda etadi. Ana shu fuqarolar tomonidan saylangan xalq vakillari qabul qilgan qonunlar ijrosi bevosita hukumatning faoliyati va u qabul qiladigan huquqiy hujjatlar asosida ta'minlanadi. Hukumatning shakllantirish tartibi va ijro etuvchi hokimiyatning tegishliligi, avvalo, muayyan davlatning boshqaruv shakliga bog'liq. Shuningek, qonunchilikni tahlil qilish orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat rahbari sifatidagi huquqiy maqomining muhim jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Bu parlamentar davlatlarda hukumat va uning a'zolari iste'foga chiqishining konstitutsiyaviy tartib va tamoyillarini belgilash hamda amalga oshirish to'g'risidagi xulosalar uchun asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: hukumat, neparlamentar usul, bosh vazir, hukumat javobgarligi, prezident, ishonch.

ВНЕПАРЛАМЕНТСКИЙ СПОСОБ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВИТЕЛЬСТВА В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Хошимхонов Ахрорхон Муминович,
кандидат юридических наук, доцент,
проректор по работе с молодежью
Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В данной статье рассматривается один из способов формирования правительства – внепарламентский способ, и в процессе изучения мнений специалистов-правоведов в данной сфере и изучения конституционно-правовых основ формирования исполнительной власти за рубежом выявлены его специфические черты. Также была проанализирована конституционно-правовая практика зарубежных стран по привлечению правительства к политической ответственности. Хотя в разных странах государство осуществляет различные полномочия в сфере общественной жизни, во всех развитых демократиях государство представляет защиту прав, интересов и свобод граждан как

основу своей деятельности. Исполнение законов, принятых избранными этими гражданами представителями народа, обеспечивается непосредственно на основе деятельности правительства и принятых им правовых актов. Порядок формирования правительства и принадлежность исполнительной власти зависят прежде всего от формы правления того или иного государства. Кроме того, продемонстрированы важные аспекты правового статуса Президента Республики Узбекистан как главы государства благодаря анализу нормативно-правовой базы. На этом основаны выводы об установлении и реализации конституционных процедур и принципов отставки правительства и его членов в парламентских государствах.

Ключевые слова: правительство, непарламентский метод, премьер-министр, подотчетность правительства, президент, доверие.

NON-PARLIAMENTARY WAY OF FORMING GOVERNMENT IN FOREIGN COUNTRIES: COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS

Hoshimkhonov Ahrorhon Muminovich,

Vice-Rector for Youth Affairs of
Tashkent State University of Law,
Candidate of Legal Sciences, Associate Professor

Abstract. This article discusses one of the ways to form a government - an extra-parliamentary method, and in the process of studying the opinions of legal experts in this area and studying the constitutional and legal foundations for the formation of executive power abroad, its specific features are revealed. The constitutional and legal practice of foreign countries was also analyzed to bring the government to political responsibility. Although in different countries the state exercises different powers in the sphere of public life, in all developed democracies the state represents the protection of the rights, interests and freedoms of citizens as the basis of its activities. The execution of laws adopted by the representatives of the people elected by these citizens is ensured directly on the basis of the activities of the government and the legal acts adopted by it. The order of formation of the government and the affiliation of the executive power depends primarily on the form of government of a particular state. In addition, important aspects of the legal status of the President of the Republic of Uzbekistan as the head of state are demonstrated through the analysis of the legal framework. This is the basis for the conclusions about the establishment and implementation of constitutional procedures and principles for the resignation of the government and its members in parliamentary states.

Keywords: government, non-parliamentary method, prime minister, government accountability, president, trust.

Kirish

Mamlakat taraqqiyoti qabul qilingan qonunlarning samarali ijrosiga bog'liq bo'lib, uni amalga oshirish ham davlatning muhim faoliyat yo'nalishlaridan biridir. Bunda ushbu qonunlarning sifatli va mazmunli ijrosi, albatta, ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni hukumat zimmasiga tushadi. Bugungi kunda davlat boshqaruvini samarali tashkil etish yuzasidan bildirilayotgan fikr va mulohazalar ijro etuvchi hokimiyat organlari ishini to'g'ri va mazmunli tashkil etish maqsadini ko'zlaydi.

Xorijiy mamlakatlarning hukumatlari o'z tarkibiga ko'ra, ya'ni undagi mavjud lavozim turlari va hukumat a'zolari mavqeyining xilma-xilligi bilan bir-biridan ajralib tura-di. Rivojlangan davlatlar konstitutsiyalarida hukumatning maqomi, uning davlat ham-da jamiyat hayotidagi o'rniga oid qoidalar muayyan darajada belgilangan. Hukumatni shakllantirish tartibidan oldin asosiy qonun hujjatlarida uning faoliyati nimaga yo'naltiril-ganligi haqida qisqacha to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, Niderlandiya Konstitutsiyasi-ning 45-moddasiga ko'ra, Ministrlar Kengashi hukumatning umumiy siyosat masalalariga oid qarorlarini ko'rib chiqadi va qabul qiladi [1, p. 143]. Portugaliya Konstitutsiyasining 182-moddasiga ko'ra, hukumat – bu mamlakatning umumiy siyosatiga rahbarlik qiladi va davlat ma'muriyatining oliy organidir [1, 141-b.].

Gretsiya Konstitutsiyasining 82-moddasiga asosan, hukumat konstitutsiya va qonunlarda belgilangan qoidalarga asosan, davlatning umumiy siyosatini belgilaydi va yo'naltiradi [1, 153-b.].

Ispaniya Konstitutsiyasining 97-moddasiga binoan, hukumat ichki va tashqi siyosatga rahbarlik qiladi, davlat muhofazasi, qurolli kuchlar va fuqarolik ishlarini boshqaradi. U o'zining ijro etish va tartibga solish funksiyasini konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshiradi [2, 392-b.].

Shvetsiya Konstitutsiyasining I bobi 6-bandiga muvofiq, "davlatni hukumat boshqaradi" [2, 701-b.].

Ushbu davlatlar konstitutsiyalaridagi qoidalar aksariyat holatlarda hukumatning davlat hayotida umumiy siyosatni belgilashi va amalga oshirishini mustahkamlashi bilan bir qatorda hukumatning oliy boshqaruv organi ekanligini ham ta'kidlaydi.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida uchta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi – xorijiy mamlakatlarda hukumatni shakllantirishning qanday shakl va usullari mavjud; ikkinchi – hukumatni shakllantirishning noparlamentar usulining o'ziga xosliklari nimalardan iborat; uchinchi – hukumatni iste'foga chiqarish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, hukumatni shakllantirishning noparlamentar usulining bir qator muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi. Demak, ushbu maqola xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan hukumatni shakllantirishning noparlamentar usulini konseps-

tual, nazariy, konstitutsiyaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy va formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Hukumat kollegial organ sifatida tashkil etilar ekan, uni shakllantirish jarayoni ham o'ta muhim bosqich hisoblanadi. Bunda hukumatni shakllantirish muayyan davlatning boshqaruv shakliga bevosita bog'liqdir.

Konstitutsiyaviy-huquqiy nazariyaga ko'ra, hukumatni shakllantirishning, asosan, ikki: parlamentar va noparlamentar usullari amal qiladi.

Hukumatni parlamentar usulda shakllantirish jarayonida asosiy rolni saylangan oliy vakillik organi o'ynasa, noparlamentar usulda bu boshqacha tarzda amalga oshiriladi.

Hukumatni shakllantirishdagi noparlamentar usul prezidentlik respublikalarida, hozirda juda kam saqlanib qolgan ayrim monarxiya, shu jumladan, konstitutsiyaviy yoki parlament niqobi ostidagi monarxiyalarda (aslida, bu yerda konstitutsiya yoki parlamentning roli past) amal qiladi.

Monarx davlat va hukumat boshlig'i sifatida faoliyat yuritir ekan, aslida, uning olib borayotgan faoliyatiga hech bir mansabdor shaxs yoki organ biron-bir tarzda ta'sir o'tkazmaydi.

Bunday boshqaruv shakli to'g'risida fikr bildirar ekan, V. Chirkin mutlaq monarxiya boshqaruvi shaklidagi davlatlarda parlament yoki boshqacha shakldagi maslahat organi-ning yo'qligi sabab hukumat monarx tomonidan tashkil etiladi. Monarx juda kam holatlarda Bosh vazir va asosiy vazirlar vakolatlarini o'z zimmasiga oladi. Ko'p holatlarda Bosh vazir hukmronlik qiluvchi sulolaning katta o'g'li, akasi, jiyanlari orasidan tayinlanadi [3], deb hisoblaydi.

Jumladan, Bruney sultonligida hukumatning shakllanishi bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu davlatning konstitut-

siyasida oliy ijro etuvchi hokimiyat Sultonga tegishliligi belgilanib, Sultonning o'zi Bosh vazir bo'lib, u o'z fuqarolari orasidan xohlagancha vazir va uning o'rinbosarlarini tayinlashi mumkin va ular o'z faoliyatlari uchun sultonning oldidagina javobgar hisoblanadi hamda ularning vakolat muddati 5 yilni tashkil etadi (Bruney Konstitutsiyasi 3-qism 4-modda) [1, 334-b.].

Saudiya Arabistonining Asosiy Nizomi 56- va 57-moddalariga ko'ra, ijro etuvchi hokimiyat Vazirlar Kengashi deb nomlanib, unga Qirol boshchilik qiladi va Vazirlar Kengashi raisi o'rinbosarlari va vazirlar qirol tomonidan tayinlansa [1, 186-b.], Qatar Konstitutsiyasining 117- va 118-moddalariga ko'ra, vazirlarni Bosh vazirning taqdimiga binoan, Amir o'z buyrug'i bilan tayinlaydi [1, 92-b.]. Arab davlatlarining mutlaq va dualistik boshqaruv shakliga ega bo'lgan monarxiya davlatlarida hukumat davlat boshlig'i huzuridagi maslahat va ijro etuvchi tuzilma sifatidagina faoliyat olib boradi [4].

Bunday boshqaruv shaklidagi davlatlarda alohida va mustaqil ijro etuvchi hokimiyat to'g'risida tasavvur qilish ham qiyin. Chunki davlat hokimiyati to'laligicha qirol yoki sultonga tegishli bo'lib, ijro funksiyalari ham uning vakolatlari bilan aralashgan bo'ladi, bu yo'nalishdagi faoliyatni to'g'ridan to'g'ri o'zi xohlaganicha yoki xohlagan shaxsga berish orqali amalga oshiradi. Qirolning ushbu faoliyatini cheklovchi na biror organ va na biror qonun mavjud. Ushbu holat Fransiya qirolli Lyudovig XIVning o'sha mashhur "Davlat – bu men" [5] degan iborasining yorqin amaliy ifodasidir.

Tadqiqot natijalari va uning tahlili

Hukumatni shakllantirishning noparlamentar usuliga xos bo'lgan prezidentlik respublikalarida ham davlat boshlig'i ijro etuvchi hokimiyatning egasi hisoblanadi. Braziliya Konstitutsiyasining 84-moddasi [1, 563-b.], Kolumbiya Konstitutsiyasining 120-moddasi [1, 48-b.], Meksika Konstitutsiyasining 89-moddalariga ko'ra [1, 51-b.], prezident o'z

xohishiga ko'ra, hukumatni shakllantiradi va uning mansabdorlarini lavozimdan ozod etadi. Umuman olganda, prezident hukumatni shakllantirish jarayonida parlamentga nisbatan ham juda keng vakolatlarga ega. Masalan, Rossiya Federatsiyasida [6] davlat boshlig'i taqdim etgan hukumat rahbari nomzodini parlament uch marta tasdiqlashdan bosh tortsa, u parlamentning quyi palatasini (Davlat Dumasi) tarqatib yuborishi ham mumkin.

Shuningdek, bir qator prezidentlik respublikalarida, jumladan, Qozog'istonda [7] hukumat tarkibiga kiruvchi muayyan tarmoq boshqaruv organlari, xususan, tashqi ishlar, ichki ishlar va mudofaa vazirlari prezident tomonidan mustaqil tarzda tayinlansa, Ukrainada [8] Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazirning Oliy Radaga kiritgan taqdimiga asosan tayinlanishi barobarida, mudofaa vaziri va tashqi ishlar vazirlari aynan prezidentning mamlakat parlamenti Oliy Radaga kiritgan taqdimiga ko'ra tayinlanadi. Yoki [9], Rossiya Federatsiyasining "Hukumat to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni 32-moddasiga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, federal konstitutsiyaviy qonunlar, federal qonunlarga muvofiq, mudofaa, xavfsizlik, ichki ishlar, adliya, tashqi ishlar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va tabiiy ofatlarining oqibatlarini bartaraf etish hamda milliy gvardiya qo'shinlari faoliyati bo'yicha federal ijroiya organlari faoliyatini boshqaradi. Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining taklifiga binoan, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi hamda ushbu organlarning rahbarlari va o'rinbosarlarini tayinlaydi [10].

Mazkur holat hukumat faoliyatidagi shu sohalarining doimo davlat rahbari nazorati ostida va bevosita uning rahbarligida harakatlanishini taqozo etishi bilan izohlanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida esa hukumat a'zolari "Senatning maslahati va roziligi" bilan prezident tomonidan tayinlansa-da, amaliyotda Senatning ushbu jarayondagi qarshi reaksiyasi nihoyatda kam uchraydi [11].

Hukumatni shakllantirishdagi parlamentar va noparlamentar usullarning bir-biridan asosiy farqli jihati, parlamentning yangi shakllanayotgan hukumatga nisbatan qonunchilikda belgilangan tarzda ifoda etiladigan “ishonchi” parlamentar usulda hukumatning legitimli bo'lishi va faoliyatini boshlash uchun asos bo'ladi. Noparlamentar usulda esa hukumat bevosita prezident yoki boshqa nom bilan ataluvchi davlat rahbarining ixtiyoriga asosan shakllangani sababli, garchi ushbu usulda ham hukumat boshlig'i yoki uning a'zolarini tasdiqlash yuzasidan parlament palatalariga ularning roziligi uchun nomzodlar “rasman” taqdim etilsa-da, ham huquqiy, ham amaliy jihatdan hukumat uchun parlamentning ishonchi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas.

G'arbiy Yevropa davlatlarida hukumat parlamentdagi partiyalar mutanosibligi nuqtayi nazaridan tashkil qilingan bo'lsa ham, uning a'zolari o'z partiyalari ko'rsatmalariga muayyan darajada bo'ysungani holda, ular siyosiy partiya manfaatlariga emas, balki umumdavlat manfaatlariga xizmat qilishi lozim. Amaliyotda hukumat faoliyatiga parlament fraksiyalarining sezilarli ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Bunda hukumatga partiyaning markaziy organi emas, aynan uning parlamentdagi fraksiyasi o'z ta'sirini o'tkazadi. Totalitar sotsialistik mamlakatlarda esa hukumat hokimiyat tepasida turgan partiya markaziy qo'mitasi-ning ko'rsatmalariga muvofiq faoliyat yuritadi [12].

Turli davlatlarda hukumat ijtimoiy hayot sohasiga doir turli vakolatlarni amalga oshirsa-da, barcha rivojlangan demokratik davlatlarda hukumat o'z faoliyatining asosi sifatida fuqarolarning haq-huquqlari, manfaatlar va erkinliklari himoyalaniishini ta'minlashni ifoda etadi. Ana shu fuqarolar tomonidan saylangan xalq vakillari qabul qilgan qonunlar ijrosi bevosita hukumatning faoliyati va u qabul qiladigan huquqiy hujjatlar asosida ta'minlanadi.

Xorijiy mamlakatlarda aksariyat hollarda hukumatni qaysi organ shakllantirgan bo'lsa, uni siyosiy javobgarlikka tortish vakolati ham aynan unda bo'ladi. Hukumatning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi, ya'ni uning iste'fosi borasida fikr yuritadigan bo'lsak, xalq manfaatlarini ifodalaydigan hukumat biror-bir tarzda ushbu xalqning haq-huquqlariga zid keladigan faoliyatni amalga oshirsa, uning vakillari ushbu hukumatga ishonchsizlik bildirib, uning faoliyati to'xtatilishini talab qilishi mumkin. Misol uchun, Fransiya Konstitutsiyasining 50-moddasiga binoan, agar Milliy Yig'ilish hukumatning dasturi yoki Umumsiyosiy xususiyatdagi bayonotini tasdiqlamasa va hukumatga “tanbeh rezolyutsiyasi”ni bildirsa, Bosh vazir Respublika Prezidentiga hukumatni iste'foga chiqarishni so'rab, ariza bilan murojaat qilishi shart [13].

Ispaniya Konstitutsiyasining 114-moddasiga binoan, agar Kongress ishonchsizlik to'g'risida qaror qabul qilsa, hukumat Qirolga iste'fo to'g'risidagi bayonotni kiritadi [14]. Portugaliya Konstitutsiyasining 195-moddasiga ko'ra, hukumat, ya'ni yangi legislaturaning boshlanishi; prezidentning Bosh vazir tomonidan bildirilgan iste'fosining qabul qilinishi; Bosh vazirning vafot etishi yoki uzoq muddatli o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan jismoniy qobiliyatsizlik, hukumat dasturining rad etilishi; ishonchsizlik votumi bildirilishi; vakolatli deputatlar ko'pchilik qismi tomonidan “tanbeh qarori”ning tasdiqlanishi kabi holatlarda iste'foga chiqadi [1, 141-b.].

Hukumatni parlament usuli orqali shakllantiradigan davlatlar uchun xos bo'lgan xususiyat sifatida hukumat a'zolarini iste'foga chiqarish mutlaqo vakillik organining vakolatida ekanligi bilan izohlanadi. Demak, parlament ayni paytda qonunchilik hokimiyatini ifoda etishi bilan bir paytning o'zida ijro etuvchi hokimiyat ishini ham to'liq nazorat qila oladi va xohlagan vaqtda uni tarqatib yuborish uchun o'zida yetarlicha qonuniy vositalarni saqlab qolgan. Shu sababli ham ba'zi

mutaxassislar ijro etuvchi hokimiyat bu parlamentning davomi ekanligi to'g'risida fikr bildiradilar. Ya'ni vakillik organi faqat o'zi bilan cheklanib qolmay, hukumatni shakllantirish va uni iste'foga chiqarish to'liq uning nazoratida ekanini ta'kidlaydilar.

Noparlamentar usuldagi va davlat rahbari tomonidan to'g'ridan to'g'ri shakllantiriladigan hukumatlarda hukumat hamda uning alohida a'zolari bevosita ushbu shaxsning xohish-irodasiga binoan iste'foga chiqariladi. Bundan ijro etuvchi hokimiyat to'liq ushbu davlat rahbarining vakolati va nazorati ostida ekanligini xulosa qilish mumkin. Davlatning boshqaruv shakli qanday ekanligi to'g'risida bilmoqchi bo'lsak, albatta, unda ijro etuvchi hokimiyat organi kim tomonidan shakllantirilishi va uni kim javobgarlikka tortish orqali iste'foga chiqarishiga oid me'yorlarni tahlil qilib, xulosa chiqarishimiz mumkin.

Ijro etuvchi hokimiyat va hukumat to'g'risida gapirganda, ushbu ikki tushuncha bir-biridan farq qilishi to'g'risida fikr yuritgan edik. "Ijro hokimiyati" "hukumat"ga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, dunyo konstitutsiyalarida ijro hokimiyatining kim yoki qaysi organga tegishliligi ba'zan konstitutsiyalarda mustahkamlanadi. Xususan, "Ukraina, Belarusda va ularning konstitutsiyalarida belgilanganidek, ijro hokimiyatini hukumat amalga oshirsa, Amerika Qo'shma Shtatlari, Braziliya, Meksika konstitutsiyalariga muvofiq, hukumat kollegial organ sifatida mavjud bo'lmaydi. Ijro hokimiyati bevosita prezident ixtiyoridadir" [15]. Ularda vazirlarni birlashtiruvchi kabinet qarorlar qabul qilmaydi, balki qarorlarni muhokama qiladi. Faqatgina prezident umumiy vakolatlari doirasida markaziy ijro hokimiyati nomidan qarorlar qabul qiladi. Shu sababli ushbu sharoitda prezident to'g'risida gap ketganda, uni hukumat boshlig'i emas, balki davlat va ijro hokimiyatining boshlig'i ekanligini ta'kidlash joiz [16]. Ana shularga ko'ra, bu davlatlarda ijro hokimiyati rahbari sifatida bevosita prezident ijro etilishi lozim bo'lgan huquqiy

aktlar qabul qiladi hamda ijro hokimiyatini bevosita o'zi ifoda etadi.

Xulosalar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 89-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini ta'minlaydi. Shuningdek, Konstitutsiyaning prezident vakolatlari sanab o'tilgan 93-moddasi 1-qismi 8-bandida respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi, degan qoidaning mavjudligi ham davlat rahbarining asosiy faoliyatidan biri sifatida barcha hokimiyat tarmoqlarining o'zaro kelishuv (qonun doirasida) asosida normal harakatlantirishlarini ta'minlashdan iboratligini anglatadi. Bu yerda prezidentning aynan davlat boshlig'i sifatida e'tirof etilishi va huquqiy jihatdan belgilanishi uning davlat hokimiyati organlari tizimida eng yuqori va oliy maqomga ega ekanini ifoda etadi.

Rus tadqiqotchisi A. Shipanov "Prezident vakolatlari davlat hokimiyatining boshqa organlariga nisbatan o'zining istisno xususiyati (ustunlik)ga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Prezident ularning ustidan yuqorilab boradi va davlat rahbariga aylanadi" [17], deb hisoblaydi. Prezident vakolatni umumxalq saylovlari natijasiga ko'ra bevosita xalqdan olganligi sababli ham uning oliy maqomda bo'lishi tabiiy holdir.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda hukumat siyosiy organ sifatida namoyon bo'lsa-da, uning asosiy faoliyati davlatda ijtimoiy hayot sohalarining barcha tarmoqlarini tegishli tartibda boshqarish, quyi turuvchi tuzilmalar faoliyatini tezkorlik bilan tartibga solish hamda konstitutsiya va qonunlarda belgilangan vazifalarni ijro etish xususiyatiga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Zero, Afanaseva qayd etganidek, hukumat – universal vakolatlarga ega bo'lgan davlatda ijro etuvchi va tartibga soluvchi hokimiyatni amalga oshiradigan kollegial organdir [18].

Xorijiy mamlakatlarda hukumat faoliyatiga oid konstitutsiyaviy-huquqiy normalar va amaliyotning tahlili xorijiy mamlakatlarda qonunlar va davlat siyosatini ijro etish vazifasining hukumatga tegishli ekanligi va uning faoliyati universalligi; xorijiy mamlakatlarda hukumatni shakllantirishning ikki, ya'ni parlamentar va noparlamentar usullari amal qilishi; hukumatning shakllantirilish tartibi va ijro etuvchi hokimiyatning tegishliligi, avvalo, muayyan davlatning boshqaruv shakliga bog'liq bo'lishi; hukumat faoliyatiga oid muhim qoidalarining bevosita konstitutsiyada belgilanishi; monarxiya va prezident-

lik boshqaruvi shaklidagi davlatlarda ijro hokimiyatining bevosita qirol yoki prezident tomonidan amalga oshirilishi; turli mamlakatlarda hukumat rahbari turlicha nomlansa-da, uning asosiy vazifasi hukumat a'zolariga rahbarlik qilish va ijro funksiyalarini bajarishda bosh mas'ul ekanligi; hukumatning parlament va davlat rahbari oldidagi hisobdorligi; parlamentar davlatlarda hukumat va uning a'zolari iste'fosi yuzasidan konstitutsiyaviy tartib va tamoyillarning **belgilanishi hamda amal qilishi yuzasidan xulosalarga kelishimizga asos bo'ladi.**

REFERENCES

1. Konstitutsii gosudarstv (stran) mira [Constitutions of states (countries) of the world]. Available at: <https://worldconstitutions.ru/>.
2. Konstitutsii gosudarstv Evropeiskogo Soiuza [Constitutions of the states of the European Union]. Under the general editorship and with an introductory article by L.A. Okunkova. Moscow, Norma-Infra, 1999, p. 392.
3. Chirkin V.E. Gosudarstvovedenie [State studies]. Moscow, Iurist Publ., 1999, 329 p.
4. Sapronova M.A. Politicheskii protsess v arabskikh stranakh [The political process in the Arab countries]. Moscow, MGIMO University, 2017, 312 p. Available at: http://www.lib.csu.ru/ER/ER_SPSAS/fulltexts/SapronovaMA_37-66.pdf/.
5. L'état c'est moi [I am the state]. From Wikipedia, the free encyclopedia. Available at: https://ru.wikipedia.org/wiki/L%E2%80%99est_c%27est_moi/.
6. Konstitutsiia Rossiiskoi Federatsii [Constitution of the Russian Federation]. Available at: <http://www.constitution.ru/10003000/10003000-8.htm/>.
7. Konstitutsiia Respubliki Kazakhstan. Ofitsial'nyi sait Prezidenta Respubliki Kazakhstan [Constitution of the Republic of Kazakhstan. Official website of the President of the Republic of Kazakhstan]. Available at: https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution/.
8. Konstitutsii Ukrainy [Constitution of Ukraine]. Available at: <https://meget.kiev.ua/zakon/konstitutsiia-ukraini/razdel-6/>.
9. Konstitutsiia Respubliki Kazakhstan (priniata na respublikanskom referendume 30 avgusta 1995 goda) (s izmeneniyami i dopolneniyami po sostoianiiu na 23.03.2019 g.) [Constitution of the Republic of Kazakhstan (adopted at the republican referendum on August 30, 1995) (as amended and supplemented as of March 23, 2019)]. Available at: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=1005029#pos=404;-39/.
10. O Pravitel'stve Rossijskoj Federacii. Federal'nyj Konstitucionnyj Zakon Rossijskoj Federacii (s izmeneniyami na 28 dekabrja 2016 goda) [On the Government of the Russian Federation. Federal Constitutional Law of Russian Federation (as amended on December 28, 2016)]. Available at: <http://docs.cntd.ru/document/9054748/>.
11. Konstitutsionnoe pravo zarubezhnykh stran [Constitutional law of foreign countries]. Ed. M.V. Baglaia, Iu.I. Leibo, L.M. Entin. 3rd ed., revised. Moscow, Norma, Infra-M, 2010, p. 334.

12. Konstitucija Kitajskoj Narodnoj Respubliki [Constitution of the People's Republic of China]. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/china.pdf/>.

13. Konstitutsii mira: Sbornik konstitutsii gosudarstv mira [Constitutions of the world: Collection of constitutions of the states of the world]. Comp. and the authors of the introductory article U. Tajikhanov, A.Kh. Saidov. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 1998, vol. 5, p. 287.

14. Ispanskaja Konstitucija. Odobrena General'nymi kortesami na plenarnyh zasedaniyah Kongressa deputatov i Senata 31 oktjabrja 1978 goda, utverzhdena ispanskim narodom na referendum 6 dekabrja 1978 goda, podpisana e.v. Korolem pered General'nymi kortesami 27 dekabrja 1978 goda [Spanish Constitution. Approved by the Cortes Generales at the plenary sessions of the Congress of Deputies and the Senate on October 31, 1978, approved by the Spanish people in a referendum on December 6, 1978, signed by E.V. by the King before the Cortes Generales on December 27, 1978]. *Boletin Oficial del Estado*, 1978, December 29, no. 311. Available at: <http://vivovoco.astronet.ru/vv/law/spain.htm/>.

15. Engibarjan R.V., Tadevosian E.V. Konstitutsionnoe pravo [Constitutional law]. Moscow, Iurist Publ., 2000, p. 435.

16. Siz'ko I.A., Chepurnova N.M. Konstitutsionnoe pravo zarubezhnykh stran [Constitutional law of foreign countries]. Moscow, MESI, 2007, p. 127, 184 p.

17. Shchipanov A.V. Polnomochiia Prezidenta Rossiiskoi Federatsii: varianty klassifikatsii [Powers of the President of the Russian Federation: classification options]. *Actual problems of the humanities and natural sciences*, 2009, no. 10, p. 285.

18. Afanas'eva O.V., Kolesnikov E.V., Komkova G.N., Mal'ko A.V. Konstitutsionnoe pravo zarubezhnykh stran [Constitutional law of foreign countries]. Ed. A.V. Malko. Moscow, Norma, 2004, p. 187.

UDC: 336.22(045)(575.1)

DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ergashev Ikrom Abdurasulovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,
dotsent, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-3924-5182

e-mail: ikromabdurasulovich@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilash hamda mazkur munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalalari tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganligi yoritilgan. Shuningek, soliq ma'muriyatchiligi rivojiga mutanosib tarzda soliq qonunchiligi normalari va soliq amaliyotini takomillashtirish zarurligi hamda tadbirkorlik subyektlariga tushayotgan soliq yukini keskin kamaytirish orqali investitsiyaviy muhitni rivojlantirish, barcha soliq to'lovchilar uchun birdek adolatli, shaffof soliq tizimini yaratish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish, soliq solish sohasida qonun hujjatlaridagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish hamda insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng qo'lamli tizimli ishlar tahlil qilingan. Soliq huquqi subyektlari huquqlarini ta'minlash, ushbu sohaga "aqlli tartibga solish" modellarini joriy qilish va undagi axborot texnologiyalari ulushini oshirish, yangi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish bilan bog'liq masalalarni huquqiy tartibga solish muhim ahamiyatga ega ekanligining nazariy-amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, qog'ozsiz hujjat almashinuvini joriy etish va davlat soliq xizmati organlari ishi samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish borasidagi vazifalarni hal qilish muhim ekanligi tahlil etilgan. O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan holda, uning qonunchilik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq ma'muriyatchiligi, soliq tizimi, soliq preferensiyasi, soliq imtiyozlari, soliq yuki, soliq turlari, soliq konsepsiyasi, majburiy to'lovlar, majburiyat, soliq majburiyati, soliq to'lovchi, soliqqa tortish.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ ЦИФРОВИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НАЛОГОВОЙ СЛУЖБЫ

Эргашев Икром Абдурасулович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

доцент, самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В настоящей статье обосновано, что вопросы последовательного снижения налоговой нагрузки, упрощение системы налогообложения и улучшение налогового

администрирования в целях стремительного развития экономики страны и повышения инвестиционной привлекательности, а также вопрос правового регулирования данных отношений приобретают все более глобальный и актуальный характер. Проанализированы проводимые масштабные системные работы, такие как: необходимость совершенствования норм налогового законодательства и налоговой практики по мере развития налогового администрирования; развитие инвестиционного климата за счет резкого снижения налоговой нагрузки на субъекты предпринимательства; создание справедливой, прозрачной налоговой системы для всех налогоплательщиков и приведение ее в соответствие с международными стандартами; упрощение налогового администрирования, устранение противоречий и несоответствий в законодательстве в области налогообложения, а также усиление защиты прав и законных интересов честных налогоплательщиков. Исследованы теоретические и практические аспекты важности правового регулирования вопросов, связанных с разработкой новых эффективных механизмов защиты прав субъектов налогового права, внедрением моделей «умного регулирования» и увеличения доли информационных технологий в этой сфере. Была обоснована важность совершенствования налогового администрирования, внедрения безбумажного документооборота, решения задач по разработке и внедрения в практику программных продуктов, направленных на повышение эффективности государственной налоговой службы. На основе анализа основных направлений развития налогового администрирования в Узбекистане были разработаны предложения по совершенствованию его законодательной базы.

Ключевые слова: налоговый контроль, налоговое администрирование, налоговая система, налоговая преференция, налоговые льготы, налоговое бремя, виды налогов, налоговая концепция, обязательные платежи, обязательство, налоговое обязательство, налогоплательщик, налогообложение.

ISSUES OF IMPROVEMENT OF LEGAL MECHANISMS FOR DIGITALIZATION OF ACTIVITIES OF THE STATE TAX SERVICE

Ergashev Ikrom Abdurasulovich,

Independent Researcher of

Tashkent State University of Law

Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences, Associate Professor

Abstract. This article is based on the fact that the issues of gradual reduction of the tax burden, simplification of the tax system and improvement of tax administration, rapid development of the country's economy, improving investment attractiveness and legal regulation of these relations are becoming increasingly global and actual. The facts are analyzed that the need to improve tax legislation and tax practices in line with the development of tax administration and the development of the investment climate by sharply reducing the tax burden on businesses, creating a fair and transparent tax system for all taxpayers and bringing it into line with international standards and simplifying tax administration, extensive systematic work is carried out to eliminate inconsistencies and contradictions in the legislation and to strengthen the protection of the rights and legitimate interests of honest taxpayers. Theoretical and practical aspects of the importance of legal regulation of issues related to ensuring the rights of subjects of tax law, the introduction of "smart regulation" models in this area and increasing the share of information technology in this sphere, the development of new effective mechanisms are researched. It is analyzed that it is important to improve the tax administration, introduce paperless document exchange and address the challenges of developing and implementing software aimed at increasing the efficiency of state tax service. Analyzing the main directions of improvement of tax administration in Uzbekistan, proposals were developed to improve its legal basis.

Keywords: tax administration, tax system, tax preferences, tax benefits, tax burden, types of taxes, tax concept, mandatory payments, liability, tax liability, taxpayer, taxation.

Kirish

Hozirgi kunda barcha sohalarda sun'iy intellekt tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Rivojlangan davlatlar allaqachon barcha tizimlar qatori soliq tizimida ham sun'iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishga o'tgan.

Zamonaviy sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm va dasturiy tizimlardan iborat bo'lib, inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma'lumotlar asosida amalga oshiradi. Shuningdek, sun'iy intellekt murakkab tahlillar va katta ma'lumotlar bilan ishlovchi dasturlarni o'z ichiga olib, mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega "aqlli" texnologiya hisoblanadi. Mutaxassislar tomonidan sun'iy intellektga to'rtinchi sanoat inqilobining asosi sifatida qaralmoqda [1].

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, davlat soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish, ular tomonidan tadbirkorlik subyektlari va aholiga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash hamda axborot texnologiyalari sohasini yanada rivojlantirishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish masalasi muhim o'rin tutadi.

Davlat soliq organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmatining asosiy maqsadi axborot texnologiyalari asosida interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatish samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish vaqti va jarayonlari, shu jumladan iqtisodiy sarf-xarajatlarni qisqartirish, soliq organlari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashga qaratilishi zarurligi, soliq ma'murchiligini takomillashtirish, qog'ozsiz hujjat almashinuvi joriy etish va davlat soliq xizmati organlari ishining samaradorligini oshirishga qaratil-

gan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish borasidagi vazifalarni hal qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda soliq ma'murchiligini takomillashtirish, qog'ozsiz hujjat almashinuvi joriy etish va davlat soliq xizmati organlari ishi samaradorligini oshirishga qaratilgan ellikka yaqin dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Jumladan, Davlat soliq qo'mitasining "Elektron davlat xizmatlari – my.soliq.uz" portali orqali 35 ta elektron davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda. Shundan, 15 tasi – axborot davlat xizmatlari, 20 tasi – interaktiv davlat xizmatlari tarkibiga kiradi. Soliq to'lovchilarning toifasi va joylashgan joyidan qat'i nazar, barcha xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud [2].

Soliq sohasiga "aqlli tartibga solish" modellari joriy qilish va undagi axborot texnologiyalari ulushini oshirish, soliq sohasidagi murojaatlarni ko'rib chiqishni belgilovchi yangi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish bilan bog'liq masalalarni huquqiy tartibga solish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunga misol sifatida 2020-yilning I yarim yilligida soliq to'lovchilar tomonidan shaxsiy kabinetlar orqali 14,2 mln marotaba, 2021-yilning I yarim yil-ligida esa 20,5 mln marotaba murojaat qilinganini keltirishimiz mumkin [3].

Shu bilan birga, qayd etish lozimki, Soliq kodeksi normalari asosida Davlat soliq qo'mitasi tomonidan hisobotlar shakllarini sod-dalashtirish, soliq nazorati mexanizmlarini avtomatlashtirishni nazarda tutuvchi 32 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqildi [4].

Xususan, 2021-yil 5-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Soliq ma'muriyatchiligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 359-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan Davlat soliq qo'mitasi-niing Axborot-kommunikatsiya texnologiyala-rini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi.

Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi – soliq ma'muriyatchiligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etgan holda, soliq to'lovchilarga majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishga sharoit yaratish hisobiga soliq yig'imlarini oshirish, shuningdek inson aralashuvini cheklash, qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish va yagona standartlarni joriy etish hisoblana-di.

Shu bilan birga, mazkur strategiyada davlat soliq xizmati organlarining ma'lumotlarini qayta ishlash markazi va telekommunikatsiya qurilmalarini modernizatsiya qilish, server va dasturiy ta'minotlar xarid qilish, axborot tizimlari majmuyini yagona platformaga o'tkazish, elektron davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini oshirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish tizimlarini yo'lga qo'yish kabi vazifalar nazarda tutilgan. Buning natijasida davlat byudjetiga qo'shimcha tushumlar hajmi 20 trln so'mgacha ortishi kutilmoqda [5].

Strategiyaning asosiy vazifalaridan biri bu – katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashning samarali usullari va ilgor biznes-tahlil (Business Intellegence, Big Data) texnologiyalarini joriy etish hisoblanadi. Bu orqali Sington Volf ta'kidlab o'tganidek, soliq ma'muriyatchiligi faoliyatida axborot texnologiyalari qo'llanishi boshlangandan so'ng oxirgi o'n yil ichida katta o'zgarishlar bo'ldi. Soliq xizmati organlari tomonidan soliqlarni yig'ish jarayonlaridagi ko'pgina xatolarning oldi olina boshladi va ko'pgina hujjatlarni yuritish soddalashtirdi [6].

Shuningdek, mamlakatimizda aholi hamda tadbirkorlik subyektlari vakillarini soliqlarni o'z vaqtida to'lash muddatlaridan, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlardan xabardor qilish, ularning soliqqa oid huquqiy bilimlarini yanada oshirish, soliq to'lovlarini elektron tarzda, ortiqcha sarf-xarajatsiz to'lashiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli ham soliq organlari tizimida ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarin-

ing joriy etilishi soliq qonunchiligi buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha axborot-tahliliy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021-yilning 9 oyi davomida soliq idoralari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning jami 26 000 ta murojaatlari ko'rib chiqilgan bo'lib, shundan og'zaki murojaatlar (shaxsiy qabul, sayyor qabul, mas'ul xodimlar qabuli va ishonch telefoni) 2867 ta, yozma murojaatlar 1755 ta, elektron murojaatlar 21378 tani tashkil qilmoqda. Shundan kelib chiqib aytish mumkin, ki, mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish hamda mazkur tizimni yanada takomillashtirish lozim.

Shu o'rinda o'tkazilgan so'rovnoma natijasida respondentlarning soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga axborot texnologiyalarining tatbiq qilinishi ushbu sohani soddalashtirishga xizmat qiladimi, degan savolga 96 % ha, 4 % yo'q deb javob berganini ham qayd etish zarur.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida huquqiy fanlarda ilmiy metodlar bo'lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik (sistemalilik), determinizm tamoyillari, xronologik uslub, huquqiy taqqoslash uslubi, induksiya-deduksiya va boshqa ilmiy metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

Hozirgi zamonaviy soliq ma'murchiligi nafaqat soliq qarzdorligini majburiy undirish mexanizmlarini takomillashtirishi zarur, balki mazkur soliq qarzdorligini zamonaviy axborot telekommunikatsiya texnologiyalari orqali yuzaga kelishining oldini olish, soliq to'lovchilar tomonidan ixtiyoriy to'lash bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan targ'ibot va tushuntirish ishlariga e'tiborni kuchaytirish samaraliroq hisoblanadi [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi "Davlat soliq xizmati

organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tekshiruvdan oldingi tahlil va masofaviy nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan zamonaviy, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish choralari yanada kuchaytirish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3168-son qarori ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-avgustdagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 677-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida"gi nizomning 8-bandida soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarining o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularni soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etgan holda, to'liq qamrab olish mexanizmlarini takomillashtirish Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rsatib o'tildi.

Mazkur qarorga muvofiq, soliq to'lovchining shaxsiy kabineti O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan, soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlari amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan o'zaro munosabatlarni elektron tarzda amalga oshirishni ta'minlaydigan axborot resursi hisoblanishi belgilandi.

Ushbu norma soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va

majburiyatlari bajarilishi bilan bog'liq o'zaro munosabatlarni elektron tarzda amalga oshirishga o'tishda huquqiy asos hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-sonli "Soliq ma'muriyatchiligi tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2017-yil 15-avgustdagi 2017-41-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq to'lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2926, 2017-yil 5-sentabr) qabul qilindi.

Mazkur nizom asosida soliq to'lovchining shaxsiy kabinetini shakllantirish va undan foydalanish hamda soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshirish tartibi belgilandi.

Soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash soliq organlari tomonidan kamroq vaqt va mablag'lar sarf qilgan holda, soliqlarni yig'ib olish samaradorligi oshishi, shuningdek soliq to'lovchilarga o'z soliq majburiyatlarini bajarishlarini yengillashtirish va soliq ma'muriyatchiligi shaffof amalga oshirishga olib keladi.

Richard Burd shu masala yuzasidan o'z fikrini ilgari suradi: "Soliq ma'muriyatchiligi ni yaxshilash rivojlanayotgan davlatlar uchun asosiy masalalardan biri bo'lib kelgan. Ushbu davlatlar uchun daromad manbalari kerak ekan, o'z-o'zidan daromadlar bo'yicha ma'muriyatchilik mavjud. Daromadlarning o'zi yetarli emas, balki davlat uchun daromadlarni yig'ib olishning eng maqbul usullari, ya'ni samarali soliq ma'muriyatchiligi joriy etish muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonlar davlatning iqtisodiy o'sishi va resurslar taqsimotiga ta'sir qiladi" [8].

Bejiz O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonun-

chiligida ham davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarning biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida ham soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash zarurligi e'tirof etilmoqda, davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlari, elektron soliq ma'muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublari takomillashmaganligi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolardan biri sifatida ta'kidlab o'tilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-sonli Farmonida ham soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish holati soliq ma'muriyatchiligining shaffofligi, soliq solish masalalarida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish hamda nazorat samaradorligi, shuningdek davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati ta'minlanmayotganligi ko'rsatib o'tilgan va mazkur Farmonning 1-bandida soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublari keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to'g'ridan to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Rivojlangan davlat soliq ma'muriyatchiligi tizimini modernizatsiya qilishda eng aso-

siy e'tibor mazkur jarayonni avtomatlashtirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash orqali soliq ma'muriyatchiligi jarayonining shaffofligi hamda soddalashtirishni ta'minlashga qaratilgan.

Masalan, Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning muhim rolini e'tirof etgan holda, "Soliqlarni yig'ishning ma'muriyatchiligi to'g'risida" Xitoy Xalq Respublikasi Qonunida davlat tomonidan turli darajadagi soliq organlarini rejali ravishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlashi hamda soliq organlari va boshqa davlat organlari o'rtasida o'zaro ma'lumot ayirboshlashni takomillashtirish majburiyati belgilab qo'yilgan [9].

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi-ning 133-moddasida soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar, muassasalar va tashkilotlarning soliq organlariga ma'lumotlar taqdim etish majburiyatlari ko'rsatilgan. Biroq soliq organlariga ushbu moddada nazarda tutilgan, qog'ozda yoki elektron shaklda taqdim etiladigan ma'lumotlarning shakllari, shuningdek shakllarni to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan bo'lsa-da, mazkur organlar, muassasalar va tashkilotlardan faqatgina bitta Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan o'zi va investitsiya vositachilari tomonidan ro'yxatga olingan aksiyalarga doir bitimlar to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etish tartibi tasdiqlangan.

Bizning fikrimizcha, soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan barcha organlar, muassasalar va tashkilotlar axborotni soliq organlariga taqdim etish tartibi belgilanishi lozim.

Soliq organlari va soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar, muassasalar va tashkilotlar o'rtasida elektron hujjat almashinuvini yanada takomillashtirish va soliq sohasida nizolar kelib chiqqan hollarda ushbu hujjatlardan dalil sifatida foydalanish mumkinligi to'g'risidagi normalarni qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, qonunchilikka soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlikni kiritish lozim.

Xulosalar

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirishga qaratilgan loyihalar va chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, davlat soliq organlarining o'z funksiyalarini bajarishda tezkorlik va sifatni oshirishga imkon beruvchi faoliyatini avtomatlashtirish, davlat soliq organlarining korporativ va lokal tarmoqlarini takomillashtirish va modernizatsiyalash, davlat soliq organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlari va aholiga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari ro'yxatini kengaytirish va sifatini yaxshilash, davlat soliq xizmatchilari, tadbirkorlik subyektlari va aholining axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirishga qaratilgan ishlar ko'lamini yanada kengaytirish davr talabidir.

Soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni beqiyos. Shu sababli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari soliq to'lovchilarning soliq xizmati organlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash va takomillashtirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, soliq organlarining bundan keyingi faoliyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib

bo'lmaydi. Bugungi kun talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, Davlat soliq xizmatida ishlayotgan xodimlarning 75 % foizidan ortig'i axborot-kommunikatsiya texnologiyalar sohasi bilan band xodimlar bo'lishi lozim.

Demak, sohada ilg'or texnologiyalarga asoslangan interfaol xizmatlarning joriy qilinishi tadbirkorlik subyektlari yoki soliq to'lovchilarga yanada keng imkoniyat va qulayliklar yaratadi.

Shunga muvofiq, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish vazifalaridan kelib chiqqan holda, soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengaytirishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini ilmiy tadqiq etish hamda amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish uchun quyidagi taklif hamda tavsiyalar beriladi.

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan barcha organlar, muassasalar va tashkilotlar axborotni soliq organlariga taqdim etish tartibi belgilanishi lozim.

Fikrimizcha, qonunchilikka soliq organlari va soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar o'rtasida elektron hujjat almashinuvini yanada takomillashtirish va soliq sohasida nizolar kelib chiqqan hollarda ushbu hujjatlardan dalil sifatida foydalanish mumkinligi to'g'risidagi normalarni kiritish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etish tartibini buzganlik uchun moliyaviy javobgarlik belgilanishi zarur.

Bundan tashqari, mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan sud-huquq, soliq islohotlari, soha qonunchiligi mazmun-mohiyati yuzasidan keng aholi qatlami, ayniqsa, endigina o'z faoliyatini boshlagan yosh tadbirkorlar orasida huquqiy targ'ibot va tashviqot, tushuntirish ishlari olib borishni kengayti-

rish, davlat soliq xizmati organlari tomonidan tashkil qilinadigan seminarlar, davra suhbatlarida ishtirok etishga jalb qilish orqali ularning olib borilayotgan islohotlar, yangiliklarga nisbatan ongli munosabatini oshirish, soliq maslahatchilari va auditorlik tashkilotlari xizmatlaridan kengroq foydalanishiga ko'maklashish, soliq sohasiga oid muammo yoki tushunmovchiliklar vujudga kelganda, davlat soliq xizmati organlariga murojaat qilish tartibi bilan tanishtirib borish tavsiya etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirishga qaratilgan loyihalar

va chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, davlat soliq organlarining o'z funksiyalarini bajarishda tezkorlik va sifatni oshirishga imkon beruvchi faoliyatini avtomatlashtirish, davlat soliq organlarining korporativ va lokal tarmoqlarini takomillashtirish va modernizatsiyalash, davlat soliq organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlari va aholiga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari ro'yxatini kengaytirish va yaxshilash, davlat soliq xizmatchilari, tadbirkorlik subyektlari va aholining axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirishga qaratilgan ishlar ko'lamini yanada kengaytirish davr talabi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Hakimov F. Sun'iy intellekt – to'rtinchi sanoat inqilobining asosi [Artificial intelligence is the basis of the Fourth Industrial Revolution]. Available at: <https://strategy.uz/index.php?news=1198/>.
2. Soliq majburiyatlarini bajarishning ishonchli va qulay usuli. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portal [A reliable and convenient way to fulfill your tax obligations. Portal of electronic state services of tax authorities]. Available at: <https://my.soliq.uz/main/about-portal/>.
3. Soliq ma'muriyatchiligining yangi sifat ko'rsatkichlari. I yarim yillik yakunlari: 2021-yil [New quality indicators of tax administration. Results of the first half of the year: 2021]. Available at: <https://soliq.uz/press-services/advertisement/show/i-yarim-yillik-yakunlari--yil/>.
4. Raqamli iqtisodiyot rivojini soliq tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi Sh. Kudbiyevning "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari bosh muharririga intervyusi [The development of the digital economy is unimaginable without a tax system]. Interview of the Chairman of the State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan Sh. Kudbiev to the Editor-in-Chief of "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka" newspapers. Available at: <https://yuz.uz/news/raqamli-iqtisodiyot-rivojini-soliq-tizimisiz-tasavvur-etib-bolmaydi/>.
5. Soliq tizimi raqamli kelajagining Strategiyasi qabul qilindi [The Strategy for the Digital Future of the Tax System has been adopted]. Available at: <https://www.soliq.uz/press-services/news/show/soliq-tizimining-raqamli-kelazhagining-strategiyasi-qabul-qilindi/>.
6. Wolfe S.B. The use of computers in Tax Administration. *Jurmetrics dJournal*, Washington, USA, 1977, vol. 17, p. 215. Available at: https://www.jstor.org/stable/29761583?seq=1#metadata_info_tab_contents/.
7. G'iyosov A. Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarning kelib chiqishi tahlili [Analysis of the origin of debts on taxes and mandatory payments]. *Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar, ilmiy elektron jurnali – Economy and Innovative Technologies, Scientific electronic journal*, 2019, no. 2, March-April, pp. 23–24.
8. Bird R.M. Improving Tax Administration in Developing Countries. *Journal of Tax Administration*, University of Toronto, Canada, vol. 1, no. 1, p. 23. Available at: <https://pdfs.semanticscholar.org/bf0e/ef94aec5bd3dfa22543c2dc76aa2b40a7ea7.pdf/>.

9. Law of the People's Republic of China on the Administration of Tax Collection. Order of the President No.49, 2001, April 28, article 6.

10. Tax Issues related to the Digitalization of the Economy. Committee of Experts on International Cooperation in Tax Matters Eighteenth session, New York, 2019, April 23–26, Item 3 (j) of the provisional agenda.

11. Guseva T.A., Smetanina E.E., Izotov A.V. Features of the Development of Tax Legal Relations in the Context of Digitalization. Conference: 2nd International Scientific and Practical Conference on Digital Economy. ISCDE 2020. DOI: 10.2991/aebmr.k.201205.095/.

12. Abdurasulovich E.I. Matters of improving theological-legal basics of tax obligations. Journal of Critical Reviews, 2019, vol. 7, iss. 2, pp. 238-241. Available at: https://www.researchgate.net/profile/Ikrom-Ergashev-2/publication/348295007_matters_of_improving_theological-legal_basics_of_tax_obligations/links/5ff685ec92851c13fef337c2/matters-of-improving-theological-legal-basics-of-tax-obligations.pdf/. DOI: <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.02.42/>.

13. Ergashev I. Legal nature of tax liabilities as a result of tax administration. Review of law sciences, 2020, vol. 4, iss. 1, Article 16. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol4/iss1/16https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol4/iss1/16/. DOI: 10.24412/2181-1148-2020-1-140-145/.

14. Ergashev I.A. The prospects of improvement of the legal basis of tax administration in the Republic of Uzbekistan. *Review of law sciences*, 2020, no. 4, pp. 30-37. DOI: 10.24412/2181-1148-2020-4-30-37/.

15. Ergashev I.A. The perspective of improvement of legal mechanisms of extending informationcommunication technology in tax administration. *Review of law sciences*, 2018, vol. 3, iss. 1, Article 18. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol3/iss1/18/.

UDC: 342.9(045)(575.1)

MA'MURIY AKTNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: TAKLIF VA MUAMMOLAR

Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0000-0001-7134-0094

e-mail: yusuf_saidazimov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'muriy akt tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, nazariy va amaliy izlanishlar natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni uchun bir qancha taklif va tafsiyalar keltirilgan. Ma'muriy tartib-taomillarning davlat boshqaruv sohasidagi o'rni va ahamiyati, ma'muriy organlar tomonidan chiqariladigan ma'muriy aktlarning belgilari, o'ziga xosligi va ahamiyati borasida ilmiy asoslangan tahlillar keltirilgan. Shu bilan birga, ma'muriy aktning qo'llanilishi, ma'muriy aktning ma'muriy huquqdagi o'rni va ahamiyati batafsil yoritib berilgan. Bundan tashqari, ma'muriy aktni o'zgartirish va bekor qilishning o'ziga xos xususiyatlari, tartib-taomillari va ahamiyati borasida xorijiy va milliy olimlarning ilmiy izlanishlari va xulosalari tahlil qilingan va o'rganib chiqilgan. Shuningdek, ma'muriy aktni manfaatdor shaxsning shikoyati va arizasiga ko'ra o'zgartirish va bekor qilish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlar tomonidan o'zgartirilishi va bekor qilinishining o'ziga xos xususiyatlari va qonunchilikda aks etishi borasida ilmiy asoslangan fikrlar berilgan. Shu bilan birga, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan xulosalar asosida qonunchiligimizga takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ma'muriy huquq, ma'muriy tartib-taomil, ma'muriy munosabat, ma'muriy akt, ommaviy vakolat, o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topish, litsenziya, ruxsat beruvchi hujjat, bekor qilish, siyosiy partiyalar, faoliyatni tugatish, tadbirkorlik subyektlari, manfaat.

ОСОБЕННОСТИ ИЗМЕНЕНИЯ И ОТМЕНЫ АДМИНИСТРАТИВНОГО АКТА: ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ

Саидазимов Юсуф Содик угли,

преподаватель кафедры

«Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье научно проанализировано понятие должностного акта и его специфические особенности, в результате теоретических и практических исследований был внесен ряд предложений, в том числе по поправкам в Закон Республики Узбекистан «Об административных процедурах». Представлен научно обоснованный анализ места и значения административных процедур в сфере государственного управления, признаков, специфики и значения административных актов, издаваемых административными органами. При этом подробно раскрывается применение административного акта, роль и значение административного акта в административном праве. Кроме того, на основе научных

исследований и выводов зарубежных и отечественных ученых были проанализированы и изучены особенности, процедуры и значение изменения и отмены административного акта. Предложения и поправки в законодательство разработаны на основе научно обоснованного мнения и выводов, анализа опыта развитых зарубежных стран по изменению и отмене административного акта по жалобе и заявлению заинтересованного лица, особенностям их изменения и отмены другими органами в случаях, предусмотренных законодательством, а также их отражению в законодательстве.

Ключевые слова: административное право, административная процедура, административное отношение, административный акт, орган государственной власти, изменение, отмена и признание недействительным, лицензия, разрешение, отзыв, политические партии, прекращение деятельности, субъекты хозяйствования, интересы.

THE PECULIARITIES OF THE AMENDMENT AND ABOLITION OF THE ADMINISTRATIVE ACT: PROPOSALS AND CIRCULATIONS

Saidazimov Yusuf Sodiq ugli,
Lecturer of the Department of
Administrative and Financial law,
Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the concept of the Civil Service Act is analyzed scientifically and as a result of theoretical and practical research, several proposals and interpretations are presented of the law on administrative procedures of the Republic of Uzbekistan. The role and importance of administrative procedures in the field of Public Administration, scientifically based analysis of the definition, self-productivity and importance of administrative acts issued by administrative bodies are presented. At the same time, the application of the administrative act, the role and importance of the administrative act in the administrative law are explained in detail. It has also been analyzed and examined on the basis of scientific research and conclusions of foreign and National Scholars on the specific features, procedures and significance of the amendment and abolition of the administrative act. There are also scientifically based opinions on the amendments and repeals of administrative acts on the basis of complaints and applications of the interested person, the specifics of changes and repeals by other bodies in cases provided by law, and their reflection in the legislation. At the same time, based on the experience of developed foreign countries, proposals and recommendations for our legislation have been developed.

Keywords: administrative law, administrative procedure, administrative attitude, administrative act, public authority, change, cancellation and finding invalid, license, permit, revocation, media, political parties, termination of activity, business entities, interest.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'RQ-457-son Qonunining qabul qilinishi ma'muriy huquq sohasida yangi davrni boshlab berdi. Bugungi kunda ushbu qonun asosida juda ko'plab savollarga javob topilgan bo'lsa-da, qonun amaliyotni to'liq qamrab olishi uchun, ma'muriy munosabatlarni to'liq tartibga solish uchun o'zgarishlarga muhtoj. Shu o'rinda ma'muriy huquqning eng muhim insti-

tutlaridan biri bu ma'muriy aktlar ekanligini ta'kidlagan holda ushbu maqolada ma'muriy aktni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishda amaliyotda uchrayotgan muammolar va bu muammolarni to'g'ri va qonuniy asoslash uchun yetarli asoslar va takliflar keltirib o'tiladi.

Bevosita ma'muriy aktga keladigan bo'lsak, ma'muriy aktlar turli davlatlarda turlicha nomlanishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, MDH davlatlarida hozirga qadar

ma'muriy akt "Davlat ma'muriyatining aktlari" [1], "Boshqaruvning huquqiy aktlari" [2], "Ma'muriy hujjat" deb nomlanishini ko'rishimiz mumkin.

Ma'muriy akt – bu davlatning ma'muriy vakolatlari doirasida o'z xohish-irodasini mamlakatda yashovchi boshqa xususiy yoki davlat subyektlarining erkinliklari, manfaatlari yoki huquqlariga tatbiq etish uchun har qanday ixtiyoriy deklaratsiyadan yoki davlatning ommaviy vakolatlarini namoyish etishdan iborat hujjat, harakat va belgi hisoblanadi. Ya'ni, bu ma'muriy hokimiyatning bir tomonlama va majburiy ravishda tatbiq etilishi mumkin bo'lgan formulasidir. Bu yerda davlat instituti aniq bir masalada qaror qabul qilish uchun o'z irodasini aniq va tashqi ko'rinishda bayon qiladi.

Bu borada I.M. Lazarev, S.S. Alaksev, I.M. TSay, I.I. Makaseva, M.K. Astanov, E. Hojiyev, I.A. Hamedov, X.T. Odilqoriyev, Z.M. Islov, J.N. Ne'matov, M.U. Eshimbetov, S.B. Yusupov, Sh.Y. Jurayev, G'. Hakimov, D.R. Artikovlar ilmiy izlanishlari natijasida o'z qarashlarini va fikrlarini bildirib o'tishgan.

Ma'muriy akt bugungi kunga qadar ma'muriy huquq sohasida juda ko'plab olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda hamda ko'plab olimlar fikrlarini va o'z nazarlarini bildirishgan. Jumladan, S.Z. Jene-tel ma'muriy tartib-taomillar fuqarolarning (ommaviy) ma'muriyat bilan bo'ladigan huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlar-ni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan munosabatlar ro'yobga chiqarishiga qaratilgan hujjatlar va xatti-harakatlar deya ta'kidlagan. Ushbu fikrga qo'shilgan holda davom ettiradigan bo'lsak, yuridik fanlar doktori J. Ne'matov ma'muriy aktga quyidagicha ta'rif beradi: "Ma'muriy akt – bu ma'muriy huquqning markaziy instituti deya ta'kidlaydi. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, tegishli organlar va mansabdor shaxslarning qarorlari va harakatlari odatda akt shaklda tuziladi va bu aktlar normativ yoki normativ

bo'lmagan xarakterga yega bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot davomida quyidagi to'rtta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi, ma'muriy hujjat qaysi hollarda manfaatdor shaxsning arizasi bilan, qaysi hollarda ma'muriy shikoyatga ko'ra bekor bo'lishi va o'zgartirilishi asoslari; ikkinchi, qaysi hollarda ma'muriy organ ma'muriy akti o'z tashabbusi bilan, qaysi hollarda manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra bekor qilishi asoslari; uchinchi, qanday hollarda ma'muriy akt sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi; to'rtinchi, ma'muriy akti o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslari va bekor qilishdan farqli jihatlari.

Yuqoridagi savollarga javob tariqasida muallifning pozitsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy bilishning tahlil qilish, qiyoslash, taqqoslash, tizimlilik, statistik, umumlashtirish va formal-yuridik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Ma'muriy akt ma'muriy huquq sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirishda eng muhim ahamiyat kasb etadi. Mashhur ma'muriy huquqshunos nemis olimi Otto Mayer ta'kidlaganidek, ma'muriy aktlarsiz davlat boshqaruvini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ma'muriy akt tushunchasi borasida sovet zamonaviy olimlari tomonidan ilmiy adabiyotlarda qonuniy kuchga ega bo'lgan, davlat vakolatli organning irodasini ifodalovchi bir tomonlama individual shaxsga yoki jamoaga qaratilgan, majburiyat yuklaydigan yoki muayyan huquq beradigan ma'muriy huquqiy hujjatlar yoki harakatlar sifatida e'tirof etilgan.

Ma'muriy akti o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslari qonun hujjati bilan tartibga solinsada, bir qator muammo va kamchiliklardan xoli emasligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, amaldagi Qonunning 59-moddasiga binoan, ma'muriy hujjat manfaatdor shaxsning arizasi yoki ma'muriy shikoyatiga ko'ra ma'muriy hujjatni qabul qilgan ma'muriy organ, yuqori turuvchi ma'muriy organ tomonidan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlar tomonidan ham bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkinligi keltirilgan.

Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchiligimizda ma'muriy akti bekor qilish, o'zgartirish va haqiqiy emas deb topish borasida quyidagi bo'shliqlarni ko'rishimiz mumkin:

birinchi masala, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunga binoan, ma'muriy hujjat qaysi hollarda manfaatdor shaxsning arizasi bilan, qaysi hollarda ma'muriy shikoyatga ko'ra bekor bo'lishi va o'zgartirilishi qonunchiligimizda aniq keltirilmagan;

ikkinchi masala, qaysi hollarda ma'muriy organ ma'muriy akti o'z tashabbusi bilan, qaysi hollarda manfaatdor shaxsning arizasi ko'ra bekor qilishi lozimligi huquqiy jihatdan tartibga solinishi;

uchinchi masala, qanday hollarda ma'muriy akt sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin hamda haqiqiy emas deb topishning o'ziga xosligi.

Quyida rivojlangan xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, ekspertlarning fikrlari va ilmiy izlanishlari borasidagi tajribalarini keltirgan holda ushbu muammolarga yechim berishga harakat qilamiz.

Tadqiqot natijalari tahlil

Ozarboyjon Respublikasining "Ma'muriy ish yuritish to'g'risida"gi Qonuni hamda Germaniya Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga binoan, manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra quyidagi hollarda ma'muriy akt uni qabul qilgan ma'muriy organ yoki yuqori turuvchi ma'muriy organ yoxud boshqa vakolatlik organi tomonidan haqiqiy emas deb tan olinishi mumkin:

birinchidan, ma'muriy aktning mazmuni noaniq bo'lsa;

ikkinchidan, ma'muriy aktning mazmuni yoki bir-biriga zid bo'lsa;

uchinchidan, ma'muriy akt tegishli vakolatlarga ega bo'lmagan ma'muriy organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa, manfaatdor shaxsning arizasi bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkinligi keltirilgan. Bu borada ko'plab ekspertlar chet el tajribalaridan kelib chiqqan holda ushbu normani milliy qonunchiligimizga implemetatsiya qilish "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunni qo'llashda va tushunishda samarali yo'llardan biri bo'ladi deyishimiz mumkin.

Shuningdek, vakolat doirasidan chetga chiqqan holda qabul qilingan ma'muriy aktlar ham haqiqiy hisoblanmaydi. Vakolatlilik masalasi murakkabligini inobatga olgan holda bu kabi hujjatlarni faqatgina manfaatdor shaxslarning arizasiga ko'ra haqiqiy emas deb topish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, ma'muriy shikoyat qilish va sudda nizolashish imkoniyati tugagandan keyin ma'muriy akt uni qabul qilgan ma'muriy organ yoki yuqori turuvchi ma'muriy organ tomonidan nazarda tutilgan asoslar bo'yicha va qoidalarga muvofiq bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

I.M. Tsay ma'muriy akti bekor qilish borasida quyidagi fikrlarni bildiradi: "ma'muriy aktning adresat (manfaatdor shaxs) foydasiga yoki zarariga qabul qilishi holatlarini farqlash lozimligini, yuqori turuvchi ma'muriy organ tomonidan ma'muriy akt bekor qilinganida rasmiy tinglash jarayoni o'tkazilishi, ishonchning himoya qilinishiga asos bo'lmaydigan holatlar, qonuniy ma'muriy akt manfaatdor zarariga bekor qilingan holatlar ta'kidlab o'tilgan" [2]. *Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki*, I. Tsay ma'muriy akti bekor qilishning ayrim jihatlarini to'liq yoritib bermagan. I. Tsayning fikrlarini tahlil qilgan holda quyidagilarga birma-bir to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Ma'muriy akti vakolatli organ tomonidan haqiqiy emas deb topish. Ma'muriy akti haqiqiy emas deb topishning bekor qilishdan farqli jihati shundaki, ma'muriy akti haqiqiy emas deb topishda uni yuridik jihatdan mavjud emas deb topish kerak bo'ladi.

Agar ma'muriy akt vakolat doirasidan chetga chiqib qabul qilingan bo'lsa, unda uni bekor qilish mumkin emas, chunki bunday harakatni odatda huquqiy sohada mavjud deb tan olishning o'zi mumkin emas. U yuridik jihatdan mavjud bo'lmagan deb hisoblanadi. Bu esa shu kabi ma'muriy aktlarni huquqni qo'llash amaliyotida yo'q qilishning eng to'g'ri usulidir.

Bugungi kunda chet ellik ekspertlarning takliflariga rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari asosida haqiqiy bo'lmagan (o'z-o'zida haqiqiy bo'lmagan) ma'muriy aktlarga oid moddani kiritish muhim. Sababi aniq ravshan nuqsonlari bo'lgan ma'muriy aktlar huquqiy tizimda mavjud deb tan olinishi mumkin emas. Ularni bekor qilib bo'lmaydi, chunki bu ularning haqiqiylikini tan olish deb tushuniladi. Bunday holatlarda o'z-o'zidan haqiqiy emaslik aniq ko'rinib turgan yaroqsiz qarorlarni hech bir tartib-taomilsiz bekor qilishga imkon beradi.

Shubha tug'ilgan taqdirda manfaatdor shaxs ma'muriy organdan ma'muriy aktning o'z-o'zidan haqiqiy emasligini tasdiqlashni talab qilishga haqli bo'ladi.

Vakolat doirasidan chetga chiqqan holda qabul qilingan ma'muriy aktlar ham haqiqiy hisoblanmaydi. Vakolatlilik masalasi murakkabligini inobatga olgan holda bu kabi hujjatlarni faqatgina manfaatdor shaxslarning arizasiga ko'ra haqiqiy emas deb topish taklif qilindi.

Bu kabi ma'muriy aktlarni amaliyotda ko'rishimiz mumkin. Masalan, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi amaliyotida bu kabi holatlar uchramoqda. Ma'muriy akti bekor qilishdan farqli jihati shundaki, ma'muriy akti haqiqiy emas deb topishda uni yuridik jihatdan mavjud emas deb topish kerak

bo'ladi. Agar ma'muriy akt vakolat doirasidan chetga chiqib qabul qilingan bo'lsa, unda uni bekor qilish mumkin emas, chunki bunday harakatni odatda huquqiy sohada mavjud deb tan olish mumkin emas. U yuridik jihatdan mavjud bo'lmagan deb hisoblanadi.

Bu esa shu kabi ma'muriy aktlarni huquqni qo'llash amaliyotida yo'q qilishning eng to'g'ri yo'li hisoblanadi.

Ma'muriy akti sud tomonidan haqiqiy emas deb topish. Sud tartibida bekor qilish shartlari saqlab qolingan holda aynan qaysi holatlarda ma'muriy akt sud tomonidan bekor bo'lishi yoritilishi lozim. Bu litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlarni bekor qilish, OAV, siyosiy partiyalar faoliyatini tugatish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tugatishga tegishli.

Ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy akti o'z tashabbusi bilan bekor qilishi yoki o'zgartirishi. Ma'muriy akti qabul qilgan organ o'z tashabbusi bilan ma'muriy akti o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin. Ozarboyjon Respublikasi, Germaniya Bundesrespublikasi ma'muriy qonunchiligiga binoan quyidagi holatlarda Ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy akti o'z tashabbusi bilan bekor qilishi yoki o'zgartirishi mumkin:

birinchidan, 2005-yil 1-oktabrdagi Ozarboyjon Respublikasining "Ma'muriy ish yuritish to'g'risida"gi Qonuniga binoan jamoat manfaatlariga oid tahdidni bartaraf etish zarurati bo'lganda;

ikkinchidan, boshqa manfaatdor shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmagan yoki jamoat manfaatlarini xavf-xatarga qo'ymagan holda manfaatdor shaxsning holatini yaxshilash imkoniyati paydo bo'lganda. Bu borada AQSh Kongressi tomonidan qabul qilingan "Ma'muriy-protsessual akt" [4] to'g'risidagi qonunga hamda Germaniya Bundesrespublikasining "Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida"gi Qonuniga nazar tashlaydigan bo'lsak ham, ushbu normalarini ko'rishimiz mumkin.

Ma'muriy aktga ma'muriy organ tomonidan o'zgartirish kiritish. Namuna. Bu bora-da O'zbekiston Respublikasi Surxandaryo viloyati Denov tuman hokimining qarorini, ya'ni tuman hokimining 2014-yil 13-iyuldagi 270-sonli qaroriga tuzatish kiritish to'g'risida:

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 25-moddalariga, O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasiga asosan, fuqaro Qiyametdinov Bozor Sayfudinovichning 2022-yil 10-mart kunidagi yozgan 01-5/Jsh-322-sonli arizasi hamda boshqa taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, qaror qiladi:

1. Fuqaro Qiyametdinov Bozorning 2022-yil 10-mart kunidagi yozgan arizasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining 2014-yil 13-iyuldagi 270-sonli qarorining "2.43 bandidagi marhum Norova Burixol" so'zlari "Norova Buri" so'zlari bilan tuzatish kiritilsin.

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari Sh. Lola-yev zimmasiga yuklatilsin.

Bundan ko'rishimiz mumkinki, ma'muriy aktni o'zgartirishni so'rab arizachi, ya'ni MTT to'g'risidagi qonun asosida manfaatdor shaxs ariza bilan murojaat qilmoqda. Ushbu ariza orqali tegishli ma'muriy akt o'zgartirilmoqda.

Xulosalar

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, ma'muriy aktning noqonuniyligi

manfaatdor shaxsning aybi bilan yuzaga ke-ladigan bo'lsa, Ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy aktni o'z tashabbusi bilan bekor qilishi mumkin. Masalan, talabgor lit-senziyani soxta hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti mavjud bo'lgan taqdirda ma'muriy organ manfaatdor shaxsning ishonchini himoya qilmasdan Ma'muriy or-gan o'zi qabul qilgan ma'muriy aktni o'z tashabbusi bilan bekor qilishi yoki o'zgartirishi mumkin.

Bekor qilish tartib-taomillari, eng av-valo, uning shaxsning manfaatiga mos yoki zidligiga qarab amalga oshirilishi lozim ekanligi haqida xulosaga kelimiz. Albatta, shaxsning manfaatiga mos ravishda bekor qilish ishonchni himoya qilishni talab qil-maydi. Aksincha, shaxsning manfaatiga zid ravishda bekor qilish ishonchning himoya qilinishini kafolatlashni talab qiladi. Bekor qilishning bazaviy tasniflash ahamiyati ham shunda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ma'mu-riy aktni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning o'ziga xos xususiyat-larini inobatga olgan holda ma'muriy akt-ni vakolatli organ tomonidan haqiqiy emas deb topish, ma'muriy aktni sud tomonidan haqiqiy emas deb topish, Ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy aktni o'z tashabbusi bilan bekor qilishi yoki o'zgartirishi kabi ma-salalarni qonunchiligimizda to'g'ridan to'g'ri keltirib o'tish lozim.

REFERENCES

1. Barhar S.M., Hazanov S.D. Formi i metodi deyatelnosti gosudarstvennoy adminstratsii [Forms and methods of activity of the state administration]. Yekaternburg, 1997, p. 7.
2. Xamedov I.A., Xvan L.B., TSay I.M. Ko'rsatilgan asar [Shown work]. pp. 296–300.
3. Saidzimov Y. Ma'muriy organlar tomonidan diskretion vakolatni qo'llashning o'ziga xos xusu-siyatlari. Bakalavriat va magistratura talabalarining ilmiy ishlari [Peculiarities of the use of discretion-ary power by administrative bodies. Scientific works of undergraduate and graduate students]. Col-lection of scientific works on the results of the international distance scientific-practical conference. Tashkent, TSUL, 2020, vol. 562.

4. To improve the administration of justice by prescribing fair administrative procedure. Administrative procedure act. Public law. 404-79th congress. Chapter 324-2d session, p. 7.
5. Zoilboev J. Administrative reforms of education system in Uzbekistan. *Jurnal pravovih issledovaniy – Journal of Legal Studies*, 2021, spec. iss., no. 1.
6. Zoilboev J.A. New procedure for resolving investment disputes in a judicial order. International scientific and current research conferences, 2021, no. 1 (1), pp. 209–213.
7. Zoilboev J., Cyman D. Consumer protection: on the example of Uzbekistan and the European Union. *International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences*, 2022., no. 16 (01), pp. 1–8. ISSN: 2349-7793.
8. Nematov J. Improvement of Administrative Procedures in the Republic of Uzbekistan: Administrative and Legal Framework: Comparative-Legal Analysis. Tashkent, 2015, p. 86.
9. Davydov K.V. The principles of administrative procedures: comparative legal research. *Actual Issues of Public Law*, 2015, no. 4 (34), p. 18.
10. Goziev K. Democratization of state power and governance is an important condition for the principle of separation of powers. International Scientific and Current Research Conferences, 2021, no. 1 (01), pp. 124–132. Available at: <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/166/>.
11. Niyazova N., Ardatova Y., Soyipov H. Obuchenie yazikam kak osnova razvitiya yuridicheskoy nauki i obrazovaniya [Language teaching as a basis for the development of legal science and education]. *Obshchestvo i innovatsii – Society and innovation*, 2021, vol. 2, no. 2 (Apr.), pp. 137–143. DOI: 10.47689/2181-1415-vol2-iss2-pp137-143/.
12. Isaeva F. Legal basis for evaluating and certifying the activities of a civil servant. In International Scientific and Current Research Conferences, 2021, November, pp. 100–106.
13. Artikov D. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlar-ni sudda ko'rishga oid muammolar [Problems in court proceedings on invalidation of departmental regulations]. *Jamiyat va innovatsiyalar – Society and innovation*, 2020, no. 1 (1/s), pp. 304–312. DOI: 10.47689/2181-1415-vol1-iss1/s-pp304-312/.
14. Juraev Sh. Pravo na ekologicheski bezopasnuyu jizn i zarubejnaya praktika [The right to an environmentally safe life and foreign practice]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 4, Spec. iss., pp. 88–91. DOI: 10.24412/2181-919X-2020-88-91/.
15. Shamsieva K. Theoretical and legal issues in protecting the rights of healthcare workers. In International Scientific and Current Research Conferences, 2021, November, pp. 80–87.
16. Juraev A.N. Representative institute for the protection of the rights and legal interests of business entities in ensuring the rule of law. *Jurnal pravovih issledovaniy – Journal of Legal Studies*, 2021, Special no. 1.
17. Goziev K. Principles of tax legislation. International Scientific and Current Research Conferences, 2021, no. 1 (01), pp. 9–12. Available at: <http://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/281/>.
18. Juraeva A.B. Prior rights in trademark in Uzbekistan, China and Germany comparative study. *Yurisprudentsiya – Jurisprudence*, 2020, no. 1 (1).
19. Saidazimov Y. Teoreticheskiy i pravovoy analiz administrativnix dokumentov [Theoretical and legal analysis of administrative documents]. *Review of law sciences*, 2020, no. 3, Spec. iss., pp. 19–24. DOI: 10.24412/2181-919X-2020-3-19-24/.
20. Niyazova, N., Pulatova, U., & Talipova, D. (2020). The Progressive Development of Uzbekistan on Influence of Pedagogical Staff. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(S2), 328–332. <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>

UDC: 342.9.086. (351.03)

ПРАВОВАЯ РЕГЛАМЕНТАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В ОБЛАСТИ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ КАЗАХСТАН И РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Кусаинова Айгуль Кадыржановна,
докторант Академии правоохранительных органов
при Генеральной прокуратуре Республики Казахстан
ORCID:0000-0002-5118-1281
e-mail: aygul.kus@bk.ru

Аннотация. Данная статья посвящена сравнительно-правовому анализу законодательства, регламентирующего административную ответственность за совершение административных правонарушений в области налогообложения в Республике Казахстан и Республике Узбекистан. Статья в совокупности дает целостное представление об административной ответственности за совершение правонарушений в области налогообложения в двух странах и ее актуальных проблемах в теории и правоприменении. В статье отражены мнения ученых, ранее исследовавших проблемы административной ответственности, а также ученых, изучавших отдельные вопросы административной ответственности за совершение правонарушений в области налогообложения. Также в статье отражаются особенности законодательства, регулирующего административную ответственность в области налогообложения двух стран. Как показало изучение законодательства двух стран, субъектами административной ответственности в Узбекистане выступают физические и должностные лица, тогда как в Казахстане к субъектам административной ответственности также относятся и юридические лица. В данной статье раскрываются особенности применения административных взысканий, порядка разрешения дел об административных правонарушениях, пересмотра постановлений по делам об административных правонарушениях в области налогообложения и их исполнения. В статье автором указываются предложения по дальнейшему совершенствованию исследуемого законодательства.

Ключевые слова: правонарушение, ответственность, административная ответственность в области налогообложения, законодательство, административное взыскание, штраф, санкция.

QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SOHASIDAGI MA'MURIY JAVOBGARLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Kusainova Aygul Qadirjanovna,
Qozog'iston Respublikasi Bosh prokuraturasi
Huquqni muhofaza qiluvchi organlar akademiyasi doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasining soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlikni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining qiyosiy-huquqiy tahliliga bag'ishlangan. Maqolada ikki mamlakatning soliqqa tortish sohasida huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik va uning nazariyasi hamda huquq-tartibot sohasidagi hozirgi zamon muammolari haqida yaxlit fikr yuritiladi. Maqolada

ilgari ma'muriy javobgarlik muammolarini o'rgangan olimlar, shuningdek soliqqa tortish sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlikning ayrim masalalarini o'rgangan olimlarning fikrlari aks ettirilgan. Shuningdek, maqolada ikki mamlakat soliq solish sohasidagi ma'muriy javobgarlikni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Ikki mamlakat qonunchiligini o'rganish shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda ma'muriy javobgarlik subyektlari jismoniy va mansabdor shaxslar hisoblanadi, Qozogistonda esa yuridik shaxslar ham ma'muriy javobgarlik subyektlariga kiradi. Ushbu maqolada ma'muriy jazo choralarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni hal qilish tartibi, soliq solish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ularni ijro yetish. Maqolada muallif o'rganilayotgan qonunchilikni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni bildiradi.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, javobgarlik, soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlik, Qonunchilik, ma'muriy jazo, jarima, sanksiya.

LEGAL REGULATION OF ADMINISTRATIVE LIABILITY FOR INFRACTIONS IN THE FIELD OF TAX ASSESSMENT IN THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN AND IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Kusainova Aigul Kadyrzhanovna,

doctoral student of study
of the Academy of Law Enforcement agencies
under the General Prosecutor's Office
of the Republic of Kazakhstan

Abstract. This article is devoted to the comparative legal analysis of the legislation regulating administrative liability in the field of tax assessment in the Republic of Kazakhstan and in the Republic of Uzbekistan. The article gives a holistic view of the administrative liability for the commission of infractions in the field of tax assessment in the two countries and its current problems in theory and law enforcement. The article reflects the opinions of scientists who have previously studied the problems of administrative liability, as well as scientists who have studied certain issues of administrative liability for committing infractions in the field of tax assessment. Also, the article reflects the peculiarities of the legislation regulating administrative liability in the field of tax assessment in the two countries. As the study of the legislation of the two countries has shown, the subjects of administrative liability in Uzbekistan are individuals and officials, whereas in Kazakhstan, legal entities also belong to the subjects of administrative liability. This article reveals the specifics of the application of administrative sanctions, the procedure for resolving cases of administrative infractions, and the revision of resolutions on cases of administrative infractions in the field of tax assessment and their execution. In the article, the author indicates proposals for further improvement of the legislation under study.

Keywords: infractions, liability, administrative liability in the field of tax assessment, legislation, administrative sanctions, fine, sanction.

Введение

В рамках исследования проведен сравнительно-правовой анализ правовой регламентации административной ответственности за совершение правонарушения в области налогообложения Республики Казахстан с законодательством Республики Узбекистан.

На сегодняшний день уплата законно установленных налогов в двух странах является конституционной обязанностью.

Нельзя не отметить мнение ученого Л.Б. Хвана о том, что налоговая система является надежным инструментом государственного управления экономикой [1, с. 3]. При этом административная от-

ветственность, как отмечают многие ученые, в том числе А.В. Гончаров [2, с. 131] и Т.Л. Коробова [3, с. 177], играет важную роль в механизме охраны правопорядка в сфере налогообложения, а также, по мнению Т.Л. Коробовой, является важным правовым средством регулирования экономических отношений [3, с. 3].

Нельзя не согласиться с мнением А.Н. Дерюга о том, что административное наказание является важнейшим юридическим рычагом снижения уровня административной деликтности [4, с. 29].

С учетом сказанного считаем, что административная ответственность за совершение правонарушения в области налогообложения, являясь мерой государственного принуждения, обеспечивает исполнение требований норм налогового законодательства под страхом быть наказанным мерами административного взыскания. По нашему мнению, в случае совершения административного правонарушения в области налогообложения возникает карательная функция административной ответственности, так как законодательство предусматривает применение мер административного взыскания за совершение правонарушения в области налогообложения.

Полагаем, что в налоговой сфере административная ответственность является важным инструментом обеспечения правомерного поведения, так как обеспечивает охрану (защиту от противоправного поведения) правопорядка в области налогообложения.

В силу постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан «О применении судами законодательства об ответственности за уклонение от уплаты налогов и сборов» от 31 мая 2013 года № 8 (далее – Постановление Пленума ВС РУз № 8), уклонение от уплаты налогов и сборов обладает признаком общественной опасности и связано с умышленным

неисполнением налоговых обязательств, что приводит в дальнейшем к недополучению средств государством.

Вместе с тем очевидно, что положительная роль административной ответственности в области налогообложения заключается в профилактике совершения правонарушения в области налогообложения.

Актуальность исследования правовой регламентации административной ответственности за совершение правонарушений в области налогообложения состоит в том, что данное социально-правовое явление анализировалось в современном состоянии ее регламентации и действующего законодательства двух стран. Целью изучения и проведения сравнительно-правового анализа законодательства двух стран является определение положительного опыта и возможность принятия используемых правовых норм при совершенствовании законодательства двух стран. Нельзя не согласиться, что с каждым годом происходит рост административных деликтов в области налогообложения, в связи с развитием предпринимательства, появлением новых форм деятельности и субъектов предпринимательства и другими причинами, то есть проблема борьбы с данным негативным явлением для обеих стран является актуальной. В практике встречаются моменты, когда возникают сложности в применении отдельных норм, регламентирующих административную ответственности в области налогообложения, которые требуют научного исследования не только на уровне национального законодательства, но и обращения к опыту других стран.

Различные аспекты проблем административной ответственности за правонарушения в области налогообложения раскрыты в работах ученых: Ч.У. Джекебаева, Э.Т. Хожиева, А.Ю. Шорохова, В.В. Шекшина, Т.Л. Коробовой, К.Н. Васкевича, Е.В. Мо-

розова, Т.С. Шейхова, И.И. Шереметьева и других ученых.

Материалы и методы

В ходе проведения исследования применены: общенаучные, частнонаучные, юридические методы познания. Методы сравнительного правоведения и моделирования применялись при анализе законодательств, а также при изложении предложений по изменению административного деликтного законодательства. При исследовании использовались логические приемы познания (сравнение, анализ, синтез, аналогия, индукция, дедукция и абстрагирование). Сравнительно-правовой метод позволил сопоставить исследуемые правовые акты.

Нормативной основой исследования послужили действующие нормы Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности, Постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан, нормы уголовного законодательства Республики Узбекистан и нормативные акты Республики Казахстан по исследуемой проблеме.

Результаты исследования

tavsiflovchi belgilar (elementlar) yig’indisi sifatida ta’rif berilgan edi [9, 41-b.].

XX asr o’rtalariga kelib jinoyat huquqi nazariyasi (doktrinasida) jinoyat tarkibi deganda, qilmishni jinoyat sifatida tavsiflaydigan elementlar va belgilar yig’indisi, ya’ni tizimi tushunila boshlandi. O’sha davrlarda jinoyat tarkibini “qonunchilik modeli” yoki “ilmiy abstraksiya” sifatida tushunish ta’limoti mavjud edi. Bunday ta’limot XX asr jinoyat huquqi maktab vakillari tomonidan rad etilgan edi. Jinoyat tarkibi to’g’risidagi ta’limot rivojlanishining daslabki bosqichida ijtimoiy xavfli qilmishning tarkibiy elementlar strukturasini tushunilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Jinoyat huquqi nazariyasi (doktrinasida) XX asrning 50-yillariga kelib jinoyat tarkibi to’g’risidagi ta’limot “ikkita asosiy yo’nalish”ga bo’lindi. Birinchisi, jinoyat tarkibi jinoyatning yadrosi, strukturasini (ichki qurilmasi), real obyektiv haqiqatda mavjud tuzilishi sifatidagi ta’limot (konsepsiya), ikkinchisi esa qonunchilik modeli yoki ilmiy abstraksiya sifatidagi ta’limot (konsepsiya). Mazkur bo’linish javobgarlik asosini tushunishda yuridik (jinoyat tarkibi belgilari mavjudligi) va ijtimoiy (ijtimoiy xavfli qilmishning mavjudligi) asoslar bo’linishiga ham olib keldi. Keyinchalik jinoyat huquqi nazariyasida javobgarlikning yuridik va faktik asoslari mavjudligi to’g’risidagi ta’limot yuzaga chiqdi.

Yuqoridagi bo’linish natijasida jinoyat huquqi nazariyasi (doktrinasida) jinoyat tarkibi to’g’risidagi ta’limot bo’yicha ikkita asosiy konseptual yondashuv jinoyat huquqi maktabi vakillari shakllandi:

Birinchi konsepsiya. Jinoyat tarkibining ilmiy abstraksiya konsepsiyasi

V.V. Sverchkov fikricha, jinoyat tarkibi o’zida “nazariy qurilish (konstruksiya) abstraksiyasi”ni ifodalaydi va to’rtta: ikkita obyektiv (obyekt, obyektiv tomon) va ikkita subyektiv (subyekt, subyektiv tomon) elementlaridan iborat bo’ladi. Jinoyat tarkibi

deganda ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida tavsiflaydigan obyektiv va subyektiv elementlar hamda belgilar yig'indisi tushuniladi. U qilmishni jinoyat sifatida to'g'ri kvalifikatsiya qilish va aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun zarur hisoblanadi [10, 91-b.].

Mazkur konsepsiyaning shakllanishi va rivojlanishida jinoyat tarkibi obyektiv belgilari, xususan, jinoyat obyektiv tomonini ifodalovchi belgilarning nazariy jihatdan kashf etilishi va takomillashishi natijasida subyektiv belgilar nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, jinoyat obyekti va unga yo'naltirilgan jinoiy tajovuz tashqi belgilariga qarab subyektiv belgilar (ruhiy munosabat, qasd yo'nalishi, ayb) shakllanadi.

Ushbu konsepsiyada ilgari surilgan "jinoyat tarkibi – bu ilmiy abstraksiya" deyilgan ilmiy qarashlarni o'rganish asnosida o'z-o'zidan savol tug'iladi. Qanday qilib ilmiy abstraksiya sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish kvalifikatsiyasida o'z o'rniga ega bo'lishi mumkin? Jinoyatni kvalifikatsiya qilish – bu amaliyotda amalga oshiriladigan aniq-amaliy operatsiya hisoblanadi.

Bu konsepsiyadagi ilmiy qarashlar XIX asrlarda, shuningdek XX asr boshlarida mavjud olimlar va kriminalistlarning "umumiy jinoyat tarkibi" degan qarashlarining mantiqiy rivojlanish davomi hisoblanadi. "Umumiy jinoyat tarkibi" abstraksiyasining mazmun-mohiyatini haqiqatda uning real hayotda mavjud bo'lmasligi tashkil qiladi. U jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. U barcha jinoyatlar uchun umumiy bo'lgan elementlarni o'rganishda o'z ahamiyatiga ega bo'ladi. Barcha jinoyatlar uchun umumiy elementlar deganda kim jinoyat subyekti bo'lishi, ayb qanday shakllarda namoyon bo'lishi, jinoyat obyektiv tomoni qanday belgilardan tashkil etishi va boshqalar tushuniladi. Bunday holatlarda jinoyat tarkibi elementlari faqat nazariy jihatdan ko'rib chiqiladi. U jinoiy javobgarlikning yagona

asosi sifatida ifodalanmaydi. Jinoyat tarkibi jinoiy javobgarlikning yagona asosi sifatida ifodalanganda, uning faqat tur bo'yicha tarkibi tushuniladi va jinoyat o'zida muayyan haqiqatda mavjud subyekt, obyekt, subyektiv tomon va obyektiv tomoni kabi elementlarni qamrab oladi. Shuningdek, jinoyat qonuni normalarida aniq jinoyat tarkibi ifodalanadi. Jinoyat tarkibi elementlari nafaqat jinoyat qonuni Maxsus qismida, balki uning Umumiy qismi normalarida (jinoiy javobgarlik yoshi, aqli rasolik, ayb va uning shakllari va boshqalar) ham ifodalanadi. Hozirgi kundagi jinoyat huquqi nazariyasida mavjud jinoyat tarkibini ilmiy abstraksiya deb tushunish "umumiy jinoyat tarkibi" konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.

Ikkinchi konsepsiya. Real jinoyat tarkibi konsepsiyasi

Bu konsepsiya tarafdorlaridan biri N.F. Kuznesova bo'lib, mazkur konsepsiya doirasida jinoyat tarkibi deganda, qilmishni ijtimoiy xavfliligini tavsiflovchi zaruriy elementlardan tashkil topgan, JK Umumiy va Maxsus qism dispozitsiyasida nazarda tutilgan jinoyat-huquqiy normalarda aks etgan belgilarni ifodalovchi jinoyatning quyi tizimli yadrosi (asosi, mohiyati) tushuniladi [11, 11-b.].

Ushbu konsepsiya XX asrning 20-yillardagi jinoyat huquqi maktab an'alariga asoslanadi. Mazkur maktab jinoyat tarkibida qilmishning muhim "tavsiflovchi" belgilari yig'indisidan mavjud bo'lib, ular jinoyatlar guruhiga kirishini asoslashga harakat qilgan [12, 105-b.].

Mazkur konsepsiyaga ko'ra jinoyat tarkibi jinoyatning ajralmas bir bo'lagi sifatida real obyektiv haqiqatda mavjud bo'ladi. Jinoyat va jinoyat tarkibi – butun va uning bir qismi sifatida o'zaro munosabatda bo'ladi.

Har qanday jinoyat real obyektiv borlikda muayyan jinoyat tarkibi belgilariga ega bo'ladi. Mazkur belgilar uning elementlarini tavsiflaydi, elementlar esa butunning bir qismi sifatida muayyan bir jinoyatni tavsiflab

beradi. Ya'ni, har qanday jinoyat o'z tarkibiy tuzilishi va tizimiga ega bo'lib, o'z navbatida, bu uning yadrosini tashkil qiladi. Jinoyat – jinoyat tarkibi va ular belgilari o'zaro munosabatda bo'ladi hamda bir-birini butunning ajralmas qismi sifatida to'ldiradi.

N.F. Kuznesova ta'kidlashicha, jinoyat tarkibi – ijtimoiy xavfli qilmishni tashkil qiladigan va ifodalaydigan zaruriy obyektiv va subyektiv elementlar tizimi, Jinoyat kodeksi Umumiy va Maxsus qism normalari dispozitsiyasida nazarda tutilgan belgilar tizimidir [13, 484-b.].

Olimaning yuqoridagi ta'rifidan ko'rinib turibdiki, jinoyat tarkibi hech qanday ilmiy abstraksiya ham emas, jinoyatni qonunda mavjud jinoyat tushunchasi va uning tavsifi ham emas. Jinoyat tarkibi jinoyatning ichki tuzilishini tavsiflaydigan zaruriy elementlar tizimini ifodalab, u jinoyatning ichida mavjud bo'ladi.

Jinoyat tarkibi qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun zarur va yetarli bo'lgan elementlarni qamrab oladi. N.F. Kuznesova "jinoyat tarkibi jinoyat mohiyatini to'liq qamrab olmaydi. U umuman ijtimoiy xavflilik va jinoiy javobgarlik uchun yetarli bo'lgan asosiy, zaruriy belgilar yig'indisi hisoblandi [13, 487-b.]."

Shuningdek, V.N. Kudryavsev fikricha, qonunchilik jinoyat tarkibini belgilamaydi (unga ta'rif bermaydi), u jinoyat tarkibining belgilari to'liq yoki qisman tavsiflangan jinoiy-huquqiy normani aniqlaydi hamda uni tavsiflaydi. Ushbu belgilar muayyan jinoyatga haqiqatda tegishli bo'lib, ular insonlar anglashidan qat'i nazar obyektiv mavjud bo'ladi. Shuningdek, qonun chiqaruvchining asosiy vazifasi mazkur belgilarni keng va eng aniqlik bilan ko'rib chiqish hamda ifodalash hisoblanadi [14, 46–47-b.].

Mazkur konsepsiya ko'ra jinoyat tarkibi jinoyatning "yadrosi" va "skeleti" bo'lib, to'rtta elementni ifodalaydi. Bu konsepsiya tarafdorlari bu jinoyat tarkibi elementlarini "tizimosti" deb atashadi. Tizimosti degani

jinoyat qonunida ifodalangan jinoiy qilmishni ifodalaydigan belgilar tizimi tushuniladi. Ularga jinoyat obyekti, obyektiv tomoni, jinoyat subyekti, subyektiv tomoni kiradi. Mazkur tizimosti elementlarga fakultativ belgilar ham kiradi. Ular jinoyat sodir etish vaqti, joyi, holati, usuli, quroli va vositasi, maqsad, motiv, jinoyat predmeti, maxsus subyekt belgilari, jinoyat predmeti hisoblanadi. Bu belgilar jinoyat qonunida nazarda tutilsa yoki normada nazarda tutilgan ba'zi jinoyat tarkibini tahlil qilish, talqin qilish orqali zaruriyga aylanishi mumkin.

Ushbu konsepsiya vakillari jinoyat tarkibini qonun chiqaruvchining o'zi jinoyat qonunida jinoyatda ifodalangan hodisa sifatida o'z ilmiy qarashlarini bayon qiladi. Mazkur yondashuvda jinoyat tarkibi jinoyatning ichida mavjud bo'lgan uning kvintessensiyasi (asosi) deb qaraladi. Unda jinoyat tarkibiga birinchi konsepsiyaning asosiy g'oyasi bo'lgan "nazariy va ilmiy abstraksiya" va "qonunchilik modeli" sifatida qaralmaydi. Unda jinoyatni tashkil qiladigan va real hayotda sodir bo'ladigan hodisa sifatida jinoyat obyekti, obyektiv tomoni, subyekt, subyektiv tomon kabi elementlar asosiy o'rinni egallaydi.

Bu konsepsiyada mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish natijasida o'z-o'zidan mantiqiy savol tug'iladi. Xususan, jinoyat obyekti jinoyat qonuni bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabat ko'rinishidagi ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, u real xususiyat kasb etmaydi, balki qonunchilik modeli hisoblandi. Qanday qilib abstraksiya elementlari (nazariyada ishlab chiqilgan) real ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida namoyon bo'lishi mumkin?

Mazkur konsepsiya tarafdorlari tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishda ijtimoiy xususiyat kasb etib, haqiqatda mavjud bo'ladigan jinoyat tarkibi mohiyati uning xususiyatidan kelib chiqib asossiz ravishda talqin qilinadi. Ular jinoyat tarkibini

huquqiy hodisa, shuningdek jinoyatni esa ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etishadi. Aslini olganda esa jinoyat ham, jinoyat tarkibi ham o'z xususiyatlaridan kelib chiqib ijtimoiy-huquqiy hodisalar hisoblanadi. Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish haqiqatda mavjud bo'ladi va qonunchilik uni jinoyat deb topishiga bog'liq bo'lmaydi. U real obyektiv holatda jinoiy hodisa sifatida hayotda mavjud bo'ladi [13, 485–486-b.].

Bu konsepsiya tarafdorlari jinoyat tarkibi tushunchasini ilmiy nazariyada ishlab chiqilgan tushuncha deb qarashlarni noto'g'ri amalga oshirilgan qiyosiy tahlil natijasi sifatida qarashadi. Jinoyat va uning tarkibi tushuncha sifatida emas, balki real voqelikda mavjud bo'ladigan hodisa sifatida qiyosiy tahlil qilinishi lozim. Chunki jinoyat tarkibi har qanday jinoyat yadrosi sifatida markaziy o'rinda turib, uning belgilari jinoyatning belgilarini ifodalaydi. Ushbu konsepsiya tarafdorlarining fikricha, "har qanday tushuncha – jinoyat tarkibi tushunchasi ham, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat tushunchasi ham qonunchilik abstraksiyasi (ishlab chiqilgan) bo'lsa, nazariya (fan)da berilgani esa ilmiy abstraksiya, ya'ni qonunchilik yoki olimlar tomonidan ularning ilmiy faoliyatida ishlab chiqilgan abstraksiyalar hisoblanadi" [13, 486-b.].

Konsepsiyadagi ilmiy qarashlarni tahlil qilish natijasida o'z-o'zidan savol tug'iladi. Jinoyat tarkibi qonunchilik yoki nazariyada ishlab chiqilgan abstraksiya ekan, mazkur abstraksiyalar uchun qanday obyektiv asoslar mavjud bo'lishi mumkin? Mazkur konsepsiyaning taniqli namoyandalaridan biri N.F. Kuznesova quyidagicha javob beradi: jinoyat tarkibi tushunchasini boshqa jinoyat-huquqiy tushunchalar qatori sof aqldan o'zboshimchalik bilan qabul qilmaydi, ya'ni muayyan normada nazarda tutmaydi... Barcha qonunchilik va ilmiy tushunchalar real asosga hamda ijtimoiy obyektiv haqiqatda mavjud bo'lgan hodisalarga asoslanadi [13, 486-b.].

Darhaqiqat, sodir etilgan jinoiy qilmishning ijtimoiy xavfliligini ifodalaydigan belgilar yig'indisi haqiqatda obyektiv mavjud bo'ladi. Qonun chiqaruvchi bu qilmish belgilari yig'indisini jinoyat qonuni muayyan normasida nazarda tutadi va mazkur ijtimoiy xavfli qilmish o'zining qonunga xiloflik belgisi bilan jinoyat qonunida mustahkamlanadi. Jinoyat qonuni muayyan normasida mazkur jinoiy qilmishning eng asosiy belgilari tanlanadi va mustahkamlanadi. Natijada sodir etilgan jinoiy qilmish qonun chiqaruvchi tomonidan tayyorlangan tayyor model, ya'ni Jinoyat kodeksi muayyan normasi bilan to'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga sabab bo'ladi.

Uchinchi konsepsiya. Normativ yoki qonunchilik modeli – jinoyat tarkibi konsepsiyasi

Bu konsepsiya romano-german huquq oilasiga kiruvchi davlatlarda XX asrning 50-yillarida vujudga kelgan bo'lib, u "normativ" yoki "qonunchilik modeli" nomi bilan e'tirof etila boshlagan edi.

Mazkur konsepsiya eng ko'p tarqalgan bo'lib, undagi ilmiy qarashlarga ko'ra jinoyat tarkibi o'zida qonunchilik tuzilishi (konstruksiya), normativ model, jinoyatning qonundagi tavsifini ifodalaydi. Har bir konsepsiyaning farqli jihatlari bo'lganidek, birinchi konsepsiyadan buning asosiy farqli jihati birinchisi jinoyat tarkibini o'ta doktrinal tushuncha sifatida ifodalasa, mazkur konsepsiya esa uni qonunchilik kategoriyasi sifatida ifodalaydi. Ushbu konsepsiyadagi bunday yondashuv jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Jinoyat – real ijtimoiy hodisa bo'lsa, jinoyat tarkibi esa formal va yuridik tushuncha hisoblanadi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, jinoyat tarkibi jinoyat belgilarining qonunchilik tomonidan qonunda ifodalanishini bildiradi.

A.I. Rarog ta'kidlashicha, jinoyat – bu jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat qonuni asosida taqiqlangan muayyan ijtimoiy xavfli qilmishning real hayotda sodir bo'lishidir, jinoyat tarkibi esa jinoyat huquqi fani tomonidan ish-

lab chiqilgan va qonunda mustahkamlangan shunday instrumentki, u ijtimoiy-xavfli qilmishning yuridik tuzilishi (konstruksiya)ni belgilash va qilmishning Jinoyat kodeksining Maxsus qismi u yoki bu normasida jinoyat sifatida ifodalanishi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Jinoyat tarkibi – bu ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida tavsiflaydigan jinoyat qonunida nazarda tutilgan obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisidir [15, 52-b., 80-b.].

A.I. Rarogning ilmiy qarashlariga qo'shilsa bo'ladi, jinoyat – bu haqiqiy real voqelikda sodir etilgan qilmish, jinoyat tarkibi esa qilmishning jinoiyligini belgilaydigan vosita hisoblanadi. Mazkur instrument, vosita jinoyat huquqi nazariyasida ishlab chiqilgan va jinoyat qonunida o'z ifodasini topgan, ya'ni mustahkamlangan. Yuqoridagi qarashlar jinoyat tarkibini jinoyat qonuni dispozitsiyasida nazarda tutilgan normalar bilan o'xshatish (identifikatsiyalash)ga olib kelishi mumkin. Jinoyat tarkibining “normativ modeli” sifatida tushunish Germaniya jinoyat huquqi nazariyasida mavjud bo'lib, unda jinoyat tarkibi tushunchasi o'rniga “qonun tarkibi” tushunchasi ishlatiladi.

A.V. Naumov esa “jinoyat tarkibi – bu ijtimoiy xavfli qilmishni muayyan jinoyat sifatida (masalan, o'g'rilik yoki haqorat va talonchilik yoki bezorilik sifatida) tavsiflaydigan, jinoyat qonunida mustahkamlangan obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisidir” deydi. Olimning fikridan ko'rinib turibdiki, jinoyat taribi – bu jinoyatning yuridik, formal xususiyati hisoblanadi. U tarkib turiga qarab jinoyatga baho beruvchi kategoriya hisoblandi [16, 330-b.].

N.F. Kuznesova jinoyat tarkibining bunday tushunchasiga keskin ravishda qarshi chiqib, u bunday qarash vakillarining ilmiy qarashlarini “jinoyat tarkibini jinoyatning qonun (huquq)ga xiloflik belgisiga kiritishga urinish” yoki “jinoyat tarkibini jinoyat qonuni dispozitsiyasi normasiga o'xshatish”ga qiyoslash deb hisoblagan edi.

Darhaqiqat, odatda jinoyat tarkibi – bu jinoyat qonuniga ko'ra muayyan jinoyat-

ni tavsiflaydigan belgilar yig'indisidir. Har qanday ijtimoiy xavfli qilmish odatda mazkur belgilarga muvofiq kelgandagina jinoyat deb topilishi mokin bo'ladi. Bizga ma'lumki, jinoyat tushunchasiga berilgan ta'rif yoki uning xususiyati hech qachon jinoiy javobgarlikning asosi bo'la olmaydi. Shuningdek, jinoyat qonuni dispozitsiyasi normasi ham bunday asos bo'la olmaydi. Har qanday javobgarlik turining asosi huquqbuzarlik, ma'lum shaxs ijtimoiy xulq-atvori bo'lishi mumkin. Muayyan huquqbuzarlik ta'rif, xususiyati yoki qonun normasi javobgarlikning asosi bo'la olmaydi. Mazkur konsepsiya bo'yicha jinoyat tarkibini “qonunchilik tuzilishi”, “normativ modeli” deb hisoblash, o'z navbatida, jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjudligi jinoiy javobgarlikning yagona asosi ekanligiga qaysidir ma'noda zid xususiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib jinoyat huquqi nazariyasida ba'zi olimlar jinoyat tarkibi jinoiy javobgarlikning yagona asosi ekanligidan umuman voz kechish lozimligini o'z ilmiy ishlarida ta'kidlab o'tishadi [17, 107-b.]. Ushbu konsepsiyaga ko'ra jinoyat tarkibi nazariy va huquqiy (yuridik) abstraksiya sifatida namoyon bo'lib, u jinoyat qonunida qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan jinoyat va uning belgilarini nazarda tutadi.

Mazkur konsepsiya tarafdorlari A.N. Ignatov, I.Y. Gontar [18; 26, 10-b.]. va boshqalar hisoblanadi. Bunda jinoyat tarkibi nominal (nazarda tutilganlik) xususiyatini kasb etadi. Shuningdek, jinoyat tarkibi jinoyat bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'lish va uning tushunchasi ko'rinishida bo'ladi. Natijada bu umumiy qoidalarni anglatuvchi prinsip darajasiga olib chiqiladi. Qonun chiqaruvchi jinoyat qonuni Umumiy qismida jinoyat va uning belgilarini ochib beradi hamda Maxsus qismida esa har bir jinoyat tarkibi obyektiv tomonini namoyon qiluvchi belgilarni nazarda tutib, mazkur jinoyat tarkibi belgilari ro'yxatini har bir jinoyatning o'ziga xos-

ligidan kelib chiqib jinoyat qonunida mustahkamlab qo'yadi.

Yuqorida keltirilgan har bir konsepsiya o'ziga xos ravishda jinoyat tarkibi tushunchalarini shakllantirib beradi. Birinchisiga ko'ra, jinoyat tarkibi jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyatni tashkil qiluvchi belgilar yig'indisi tushunilsa, ikkinchisiga ko'ra jinoyat qonuniga ko'ra ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida tavsiflovchi belgilar yig'indisi anglanadi [19].

Birinci konsepsiyasiga ko'ra jinoyat tarkibi jinoyat qonuniga ko'ra ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida tavsiflovchi belgilar yig'indisidir. Jinoyat tarkibi belgilari nafaqat jinoyat qonunida nazarda tutilgan element (tomon)larni tavsiflaydi, balki jinoyatning umumiy to'rtta zaruriy belgilarini ham, o'z navbatida, xarakterlab tavsiflab beradi. Ikkinchi konsepsiyaga ko'ra esa jinoyat tarkibi jinoyat qonuni Maxsus qismi muayyan norma dispozitsiyasida qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida tavsiflovchi belgilari majmuyidir.

Hozirgi kunda jinoyat tarkibiga ta'rif berishda bir guruh olimlar [20] "normativ" yoki "qonunchilik modeli" deb nom olgan konsepsiyaga asoslanadilar. Shuningdek, bu yondashuvdan kelib chiqib jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb e'tirof etadigan obyektiv va subyektiv belgilar majmuyiga jinoyat tarkibi tushunilishi lozimligini ilgari suradilar.

Qonun chiqaruvchi tomonidan "jinoyat tarkibi"ga ta'rif berilmagan. Jinoyat tarkibi tushunchasiga ta'rif faqat ilmiy tadqiqot ishlari va darsliklarda o'z ifodasini topgan.

Bir guruh olimlar tomonidan jinoyat tarkibi deganda jinoyat qonunida mustahkamlangan, muayyan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida tavsiflaydigan belgilar yig'indisi deb e'tirof etiladi. Ularning fikricha, jinoyat tarkibi qilmishni jinoyat sifatida e'tirof etish uchun yuridik asos hisoblanadi [21; 6, 3-b.].

Boshqa guruh olimlar esa "Jinoyat tarkibi deganda, aniq ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb baholash uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv elementlar yig'indisi tushuniladi. Bu elementlar jinoyat qonunida mustahkamlanganligi bois, u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat deb baholanishi uchun zarur hisoblanadi [22, 13b., 130-b.]."

Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni genezisi uning dastlabki yuzaga kelish asoslari bilan bog'liq bo'lib, u o'z-o'zidan jinoyat tarkibi bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jinoyat-huquqiy doktrinasida jinoyat tarkibiga abstraksiya, kategoriya yoki qonunchilik modeli sifatida qarash tobora kuchayib bormoqda. Shu bilan birga ularda jinoyat va "qonun tarkibi" alohida tushunchalar bo'lib, ularni bir-biridan farqlash lozim.

XX 50–60-yillarida esa u haqidagi turli xil konsepsiyalar (abstraksiya, real jinoyat tarkibi, qonunchilik modeli) jinoyat obyektiv tomoni belgilari asosida yanada rivojlantirildi. Jinoyat tarkibi tushunchasi vujudga kelishi va rivojlanish asosi sifatida tarixiy rivojlanishning barcha bosqichlarida jinoyat obyektiv tomoni belgilari markaziy o'rinni egallab keldi.

Bundan tashqari, fikrimizcha, ilmiy-nazariy doktrinada, shuningdek xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida shakllangan jinoyat tushunchasiga doir qoidalarni jinoyat obyektiv tomoni belgilarini inobatga olgan holda qonun darajasida mustahkamlash zarur. Bunday samarali tajriba, xususan, Moldova [23] JK Umumiy qismi normalarida aks etgan. Shu munosabat bilan amaldagi O'zR Jinoyat kodeksi 16-moddasi 1-qismiga quyidagicha o'zgartirish kiritish taklif qilinadi:

Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoiy javobgarlikka tortishning real asosi hisoblanadi, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari esa jinoiy javobgarlikning huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu kodeksda nazarda

tutilgan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ni tavsiflovchi jinoyat tarkibi obyektiv belgilari va subyektiv belgilarini sodir etish jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilari asosida uning subyektiv belgilari aniqlanadi".

Bizning fikrimizcha, jinoyat qonuniga ushbu o'zgartirishning kiritilishi jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalarini o'zaro munosabatini aniqlashtiradi, uyg'unlashtiradi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi.

REFERENCES

1. Kurs ugolovnogogo prava. Uchenie o prestuplenii [Criminal law course. The doctrine of crime]. Ed. N.F. Kuznetsova, I.M. Tyazhkova. A common part. Moscow, Zertsalo-M, 2002, vol. 1, p. 166.
2. Aktualnie problemi Obshey chasti ugolovnogogo prava [Actual problems of the General part of criminal law]. Ed. I.A. Podroikina, I.A. Fargiev. Moscow, Prospect, 2019, p. 170.
3. Tagansev N.S. Russkoe ugolovnoe pravo. Chast Obshaya [Russian criminal law]. Part General. St. Petersburg, 1902, vol. 1, p. 336.
4. Shimbareva N.G. Razvitie ucheniya o sostave prestupleniya v sovremennoy doktrine ugolovnogogo prava. Aktualnie problemi ugolovnogogo prava (chast obshaya) [Development of the doctrine of the corpus delicti in the modern doctrine of criminal law. Actual problems of criminal law (general part)]. Rostov-on-Don, Book Publ., 2006, p. 143.
5. Tagansev N.S. Russkoe ugolovnoe pravo. Chast obshaya [Russian criminal law]. Moscow, Nauka Publ., 1994, vol. 1, p. 141
6. Kurs ugolovnogogo prava. Obshchaya chast. Uchenie o prestuplenii [Criminal law course. General frequency. The doctrine of crime]. Ed. N.F. Kuznetsova, I.M. Tyazhkova. Moscow, Zertsalo-M, 2002, vol. 1, p. 172.
7. Traynin A.N. Obshchee uchenie o sostave prestupleniya [General doctrine of the composition of the crime]. Moscow, Gosyuzdat, 1957, p. 54.
8. Piontkovskiy A.A. Sovetskoe ugolovnoe pravo. Chast obshaya. [Soviet criminal law. Common]. Moscow, Leningrad, 1928, vol. 1, p. 241.
9. Ugolovnoe pravo. Chast obshaya [Criminal law. Common]. Moscow, 1939, p. 41.
10. Sverchkov V.V. Ugolovnoe pravo. Obshaya i Osobennaya chasti [Criminal law. General and Special parts]. 4th ed., revised. and additional. Moscow, Yurayt Publishing House, 2015, p. 91.
11. Kuznesova N.F. Problemi kvalifikatsii prestupleniy [Problems of qualification of crimes]. Moscow, 2007, p. 11.
12. Belogris-Kotlyarevskiy L.S. Uchebnik russkogo ugolovnogogo prava. Obshchaya i Osobennaya chasti [Textbook of Russian criminal law. General and Special parts]. Kiev, 1903, p. 105.
13. Kuznesova N.F. Izbrannie trudi [Selected works]. St. Petersburg, 2003, p. 484.
14. Kudryavsev V.N. Obyektivnaya storona prestupleniya [The objective side of the crime]. Moscow, 1960, pp. 46–47.
15. Zhuravlev M.P. et al. Ugolovnoe pravo Rossii. Chasti Obshchaya i Osobennaya [Criminal law of Russia. Parts General and Special]. Ed. A.I. Raroga. Moscow, 2008, p. 52.
16. Naumov A.V. Rossiyskoe ugolovnoe pravo. Obshaya chast: kurs leksiy [Russian criminal law. General frequency: a course of lectures]. 6th ed., revised. and additional. Moscow, Prospect, 2017, p. 330.
17. Prestuplenie i sostav prestupleniya kak yavleniya i ponyatiya v ugolovnom prave: Voprosy teorii i pravotvorchestva [Crime and elements of crime as phenomena and concepts in criminal law: Questions of theory and law-making]. Vladivostok, Dalnevostok Publishing House, University, 1997, p. 107.

18. Ignatov A.N., Kostareva T.A. Criminal liability and composition of the crime. Criminal law. General frequency: a course of lectures. Moscow, 1996, p. 26.
19. Blinnikov V.A., Brilliantov A.V., Vagin O.A. et al. Ugolovnoe pravo Rossii. Chasti Obshchaya i Osobennaya [Criminal law of Russia. Parts General and Special]. Ed. A.V.Brilliantova. 2nd ed., revised. and additional. Moscow, Prospekt, 2015.
20. Malinin V.B., Parfenov A.F. Obyektivnaya storona prestupleniya [The objective side of the crime]. St. Petersburg, Publishing House of the Legal Institute, 2004, p. 6.
21. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Jinoyat haqida ta'limot [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. The Doctrine of Crime]. 2nd edition, supplemented and revised. Tashkent, Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, vol. 1, p. 137.
22. Criminal Code of the Republic of Moldova No. 985-XV of April 18, 2002 (as amended and supplemented as of November 11, 2021). Available at: http://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=808;-50/.
23. Ugolovnoe pravo Rossii. Chasti Obshchaya i Osobennaya [Criminal law of Russia. Parts General and Special]. Ed. A.I. Rarog. 10th ed., revised. and additional. Moscow, Prospekt, 2020, p. 80.
24. Gontar I.Ya. Prestuplenie i sostav prestupleniya kak yavlenie i ponyatie v ugolovnom prave [Crime and composition of a crime as a phenomenon and concept in criminal law]. Vladivostok, 1997, p. 10.
25. Kochoi S.M. Ugolovnoe pravo. Obshchaya i Osobennaya chasti: kratkiy kurs [Criminal law. General and Special parts: a short course]. Moscow, Contract, Wolters Kluwer, 2010.
26. Basova T.B., Blagov E.V., Golovnenkov P.V. Ugolovnoe pravo Rossiiskoi Federatsii. Obshchaya i Osobennaya chasti [Criminal law of the Russian Federation. General and Special parts]. Ed. A.I. Chuchaeva. Moscow, Contract, INFRA-M, 2013.
27. Popov A.N., Fedyshina P.V., Zimireva L.A. Obyektivnaya storona sostava prestupleniya [Objective side of the crime: a tutorial]. Under common ed. A.N. Popova. St. Petersburg, St. Petersburg Institute of Law (branch) of the Academy of the Prosecutor General's Office of the Russian Federation, 2015, p. 3.
28. Usmonaliev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi [Criminal law. General section]. Tashkent, Nasaf, 2010, p. 130.

UDC: 343.35

KORRUPSIYA SHAKLLARI VA TURLARINI TASNIFLASH MUAMMOLARI

Boydedayev Sadirdin Abdusattorovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0002-9771-6886

e-mail: salimov.22@inbox.ru

Annotatsiya. Maqolada dunyo mamlakatlari, shu jumladan O'zbekiston uchun eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan korrupsiya tipologiyasi va shakllari, ko'rinishlari haqida so'z boradi. Muallif ta'kidlaganidek, hozirgi kunga kelib, jamiyatda korrupsiyaga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va institutsional omillar yetarlicha o'rganilgan. Shu bilan birga, aholi va alohida shaxslarning korrupsiyaga nisbatan tushunchasi yetarli emasligi, korrupsiyaning shakl va turlari g'oyatda kengligi bilan bog'liq omillar nisbatan kam o'rganilgan. Shu munosabat bilan muallif korrupsiyaga doir tipologiyalar, tasniflar va qarashlarni o'rganib, bu boradagi eng maqbul mezonlar bo'yicha tasniflash lozimligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. Shuningdek, maqolada korrupsiyaning tarqalish sohasi, mansabdorlar lavozimlari iyerarxiyasi hamda korrupsiyaviy harakatlar barqaror (takroriy)ligi bo'yicha turlari farqlangan. Bunda millatlararo korrupsiya, bir organ doirasida sodir etilgan korrupsiya, xususiy sektordagi korrupsiya, oliy darajadagi (elita) korrupsiya, o'rta darajadagi korrupsiya, quyi bo'g'inlardagi korrupsiya, tasodifiy (individual) korrupsiya hamda tizimli korrupsiya kabi korrupsiyaning asosiy turlari yuzasidan xulosalar keltirilgan. Maqolada korrupsiya bilan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlarni tasniflashga oid ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, tipologiya, tasniflash, mansabdor shaxs, mansab, jamiyat, korrupsiyaga munosabat.

ПРОБЛЕМЫ КЛАССИФИКАЦИИ ФОРМ И ВИДОВ КОРРУПЦИИ

Бойдедаев Садирдин Абдусатторович,

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассмотрены проблемы типологии, форм и разновидностей коррупции, являющейся одной из наиболее острых проблем для стран всего мира, в том числе Узбекистана. Как отмечает автор, к настоящему времени довольно хорошо изучены экономические и институциональные факторы, которые могут способствовать коррупции в обществе. Вместе с тем факторы, связанные с недопониманием понятия коррупции населением и отдельными индивидами, наличие множества видов и форм коррупции исследованы мало. В этой связи автором изучены типология, классификация и мнения относительно коррупции и выдвинуты идеи о необходимости классификации по наиболее приемлемым критериям коррупции. Также в статье различаются виды коррупции, иерархия должностей должностных лиц, устойчивость (повторяемость) коррупционных действий. В ней обобщены основные виды коррупции, такие как: межэтническая коррупция, внутриведомственная коррупция, коррупция в частном секторе, коррупция на высоком (элитном) уровне, коррупция на среднем уровне, коррупция на низовом уровне, случайная (индивидуальная) коррупция и системная коррупция. В

stat'ye predstavleny nauchno-teoreticheskiye vzglyady na klassifikatsiyu obshchestvenno opasnykh deyanii, svyazannykh s korruptsiyey.

Ключевые слова: коррупция, типология, классификация, должностное лицо, должность, общество, отношение к коррупции.

PROBLEMS RELATED TO THE CLASSIFICATION OF FORMS AND TYPES OF CORRUPTION

Boydadaev Sadirdin Abdusattorovich,

Independent researcher,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article reveals the problems of typology and forms, varieties of corruption, which is one of the most acute problems for countries around the world, including Uzbekistan. As the author notes, by now the economic and institutional factors that can contribute to corruption in society have been fairly well studied. At the same time, the factors associated with the misunderstanding of the concept of corruption by the population and individuals, the presence of many types and forms of corruption have been little studied. In this regard, the author studied typologies, classifications and opinions regarding corruption, and put forward ideas about the need for classification according to the most acceptable criteria for corruption. The article also distinguishes the types of corruption, the hierarchy of positions of officials, and the sustainability (repetition) of corrupt practices. The article summarizes that the main types of corruption are inter-ethnic corruption, intra-agency corruption, private sector corruption, high-level (elite) corruption, middle-level corruption, lower-level corruption, random (individual) corruption, and systemic corruption. The article presents scientific and theoretical views on the classification of socially dangerous acts related to corruption.

Keywords. Corruption, typology, classification, official, position, society, attitude towards corruption.

Kirish

Bugungi kunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish butun dunyoda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi" [1].

Korrupsiya ijtimoiy hodisa sifatida tizimli tusga ega. Bu uning takror va takror sodir etilishi, ommaviyligi, tarixan o'zgaruvchan bo'lsa-da, asosiy negizi yagonaligi, ijtimoiy ahamiyat kasb etishi kabi xususiyat va belgilari bilan taqozo etiladi. Korrupsiyadan iborat huquqbuzarlik fosh etilguniga qadar uni aniqlash hamda ro'yxatga olishga to'sqinlik qiluvchi turli xil latent ko'rinish va shakllarga ega bo'ladi. Bu qilmishlarni

qayd etish va ularga yuridik jihatdan qonuniy baho berish imkoniyatini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Biroq ko'plab davlatlarda korrupsiya amaliyoti ko'lamida juda keng bo'lib, ular tizimli tusga ega. Sababi korrupsiya nafaqat siyosatchilar va mansabdor shaxslarni qamrab oladi, balki nodavlat sohalar, jumladan, iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy va ijtimoiy munosabatlarga ham kirib boradi.

Korrupsiya so'zi lotincha "corrumpere" so'zidan olingan bo'lib, "yiringlab ketish", "tana zaharlanishi" kabi ma'nolarni anglatadi. Bugungi kunda korrupsiya ushbu ma'nosidan ancha kengroq semantik mazmun kasb etadi. Ma'no jihatidan mansabdor shaxslar tomondan o'ziga berilgan vakolatlardan, qonun va axloqqa zid ravishda shaxsiy manfaatini ko'zlab foydalanishni anglatuvchi termin hisoblanadi. Aksariyat hollarda ushbu termin byuro-

kratik apparat va siyosiy elitaga nisbatan qo'llaniladi [2].

Korrupsiya shaxsiy manfaat yo'lida mansab vakolati yoki hokimiyatni suiiste'mol qilish deb ta'riflanadi [3, 4, 5, 6]. Garchi ayrimlar korrupsiyani "iqtisod g'ildiragini moylash vositasi" [7] sifatida ko'rsalar-da, uning jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi tasavvur umumiy e'tirof qilingan.

Hozirgi vaqtda "korrupsiya" atamasining bir qancha ta'riflari mavjud bo'lib, milliy tadqiqotlarda korrupsiyaning uchta tarkibiy elementiga alohida urg'u beriladi: pora olish, pora berish va pora oldi-berdisida vositachilik [8, 9]. Shunga ko'ra, ushbu masalani yaqindan o'rganish va olimlar, tadqiqotchilar fikrlarini tahlil qilish negizida maqbul ilmiy-nazariy tasnifni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Metod va materiallar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, sintez, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qo'llanilgan. Bundan tashqari, empirik materiallar, xususan, statistika ma'lumotlari, ijtimoiy so'rov natijalari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Zamonaviy ilmiy adabiyotda korrupsiya shakllari va turlarini tasniflash borasida ko'plab turlicha fikr va qarashlar mavjud. Ularning bunday xilma-xilligi tasniflash uchun asoslar (mezonlar) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan belgilanadi. Jumladan, taklif etiladigan tasniflash shakllarining aksariyati korrupsiyaning barcha shakllari va turlarini har tomonlama va to'liq aks ettirmaydi. Ko'pincha o'rganilayotgan hodisani tasniflash uchun asos bo'ladigan bitta yoki ikkita mezon bilan cheklanadi.

Korrupsiya shakl jihatidan turfa xil bo'lib, u nafaqat zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalari: iqtisodiyot, siyosat, huquq, axloq va boshqalarga zarar yetkazadi, balki ijtimoiy amaliyot (odatiy xulq-atvor) tusiga

kirib, hattoki ayrim rivojlanayotgan jamiyatlarda ijtimoiy institutga aylanishga ulgurdi.

Tadqiqotchi Duglas Nortning mashhur ta'rifiga ko'ra, *institutlar* – bu jamiyatdagi "o'yin qoidalari" bo'lib, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil qiladi va barcha sohalarda – siyosatda, ijtimoiy sohada va iqtisodiyotda o'ziga xos "moddalar almashinuvi"ga tizimlilik berib turadi [10, 16-b.].

Hokimiyatning oliy "pog'onasida" iqtisodiy korrupsiya urf bo'lgan. Uning shakllari mansabni suiiste'mol qilish, pora berish yoki olish, tijoratda pora evaziga og'dirish va boshqa shu kabi shakllardan iborat.

O'z navbatida, I. Ahmedov korrupsiyani mansabdor shaxsning foydani taqsimlashdagi ishtiroki darajasiga qarab tasniflaydi. U "progressiv" deb nomlanadigan korrupsiya va tadbirkorlar uchun to'siqlar yaratishga asoslangan korrupsiya shakllarini ajratadi [11]:

1. *Progressiv (ilg'or) korrupsiya* mansabdor shaxslarning tadbirkorlar daromadlarini taqsimlashda bilvosita ishtirok etishini ko'zda tutadi. Bu tadbirkorlarga bitimlardan olinadigan foydani ko'paytirish imkonini beruvchi ma'lum imtiyozlar berish hisobiga yuz beradi.

Korrupsiyaning bu turi G'arb mamlakatlari keng tarqalgan. I. Ahmedovning nazdida, bu shakl negizida qo'shimcha foyda taqsimoti yotganligi tufayli bu progressiv turdagi korrupsiyadir.

2. Korrupsiyaning ikkinchi turi tadbirkorlarga sun'iy to'siqlar yaratishga asoslangan. Bunda ularning maqsadi "ularning bartaraf etilishi uchun to'lov" olishdir. Istalgan amaldor tadbirkor bilan o'ziga (va unga) naf keltiradigan munosabatni o'rnatishi mumkin. Bunda, agar tadbirkor mansabdor shaxs bilan hech qanday o'zaro kelishilgan munosabatlarga kirishishni istamasa, uning faoliyati bankrotlik bosqichiga olib kelinadi. Bu rivojlanmagan mamlakatlarda urf bo'lib ulgurgan eng salbiy korrupsiya turidir.

A.Verbin ham o'ziga xos ravishda "sivilizatsiyalashgan" va "siyosiy" shakldagi kor-

rupsiyani ajratib ko'rsatadi. Shu bilan uning yondashuvi I. Ahmedovnikiga ancha o'xshab ketadi [12]:

1. *Sivilizatsiyalashgan korrupsiya* mazmuni shundaki, ko'pchilik mamlakatlar korrupsiyaga rasman ruxsat berish orqali uni qonuniylashtirgan.

Chet elda biron-bir shartnoma tuzmoqchi bo'lgan har qanday kompaniya pora uchun maxsus pul ajratgan va ularni umumiy chiqimlar turi sifatida qayd etgan. Basharti, biron-bir muammo tufayli pora foyda bermagan bo'lsa (aytaylik, kimdir kattaroq pora bersa), kompaniya hukumatdan yetkazilgan zarar uchun tovon talab qilishi mumkin.

2. *Siyosiy korrupsiya* – bu korrupsiyaning shunday turiki, uning asosiy ishtirokchilari davlat organlari tizimida yuqori lavozimlarni egallagan mashhur siyosatchilardir [13, 23-b.].

Tadqiqotchi T. Safarov davlat boshqaruvi organlaridagi korrupsiyaning alohida shakllarini o'rgangan holda, ularning uchta umumiy tipi mavjudligini ta'kidlaydi:

- ma'muriy korrupsiya – alohida shaxs yoki bir necha shaxslar manfaatida mansabdor shaxs tomonidan haq evaziga (masalan, pora evaziga), ma'lum ma'muriy hujjatni chiqarishda (imtiyoz, kredit berish va h.k.) namoyon bo'ladi;

- byudjet korrupsiyasi – oliy toifadagi yoki mas'ul lavozimdagi amaldorlar tomonidan davlat byudjeti mablag'larini yirik hajmlarda o'zga shaxslar bilan birga o'zlashtirib yuborish yoki maqsadli ravishda ishlatmasdan, shaxsiy manfaati yo'lida sarflab yuborish;

- obro'-e'tibori yoki nufuzidan (ta'sir kuchidan) foydalanish – xususiy sektor vakillari tomonidan nufuzli davlat organi vakilining ta'sir kuchidan foydalanish orqali shaxsiy manfaatga ega bo'lish [14].

Ayrim olimlar va tadqiqotchilar korrupsiyani tasniflash uchun uning huquqqa xiloflik, ijtimoiy xavf darajasi va boshqa bir qator mezonlaridan foydalanadi. Bunda korrupsiya-

ning quyidagi ijtimoiy ahamiyatga ega (xavfli) turlari ajratib ko'rsatiladi [15]:

1. *Poraxo'rlik* – mansabdor shaxs o'z xizmat vazifasini ado etgani uchun yoki egallab turgan lavozimi tufayli boshqa shaxslar yoki tashkilotlardan oldindan bila turib qonunga xilof ravishda moddiy mukofot olishidan iborat jinoyat. Poraxo'rlik davlat va mahalliy organlarning hokimiyat va boshqaruv organlarini obro'sizlantiradi, ularning nufuziga putur yetkazadi, barcha amaldorlarni sotib olish mumkinligi, barcha muammolarni mansabdor shaxsga pora berish orqali hal qilish mumkinligi haqidagi salbiy va zararli g'oya hamda tasavvurlarni keltirib chiqaradi.

2. *Mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish* – mansabdor shaxsning o'z vakolatlaridan faol foydalanishi yoki aksincha, mansabdor shaxs o'z xizmat vazifalarini qasddan bajarmasligi (harakatsizligi) oqibatida sodir etiladi. Bunda mansabdor shaxs aynan o'zganing hisobidan mulkiy foyda olish maqsadida qasddan mansab vakolatlarini suiiste'mol qiladi.

3. *Tadbirkorlik faoliyatida qonunga xilof ravishda ishtirok etish*. Bu ham ancha keng tarqalgan korrupsiyaviy jinoyat hisoblanadi. Amaldagi qonunchilik mansabdor shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni taqiqlaydi: mustaqil ravishda yoki vakil orqali aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarni boshqarishda qatnashish man etilgan. Shunga qaramay, ayrim davlat xizmatchilari ma'lum korxona xo'jalik faoliyatining faol ishtirokchisi bo'lib qolaveradi [16].

Korrupsiyani tasniflashda A.I. Gurovning tasnifi alohida o'rin egallaydi. U mazkur hodisani uyushgan jinoyatchilikning eng asosiy belgilaridan biri deb hisoblaydi va korrupsiyaning quyidagi uchta asosiy shaklini ajratishni taklif qiladi:

1) siyosiy korrupsiya – bunda hokimiyat apparati amaldorining axloq va qonun normalariga zid ravishda pora olishdan iborat faoliyati emas, balki "sizdan ugina, bizdan bugina", "qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi" kabi

tamoyillar hukmron bo'lgan urug'-aymoq, oilaviy rishtalar, qarindosh-urug'chilik munosabatlari nazarda tutiladi. Korrupsiyaning bunday shakllari urug'-qabila munosabatlari ma'lum o'ringa ega va urf-odat ko'rinishidagi normalar faol amal qiladigan hududlarda yaqqol namoyon bo'ladi;

2) poraxo'rlik faoliyati bilan bog'liq korrupsiya – jinoyatchilarga haq evaziga muayyan xizmat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslarni pora berib og'dirish (sotib olish) dan iborat bo'lib, bu yerda har ikki tomon ham tamagirlik maqsadlarini ko'zlab, go'yoki bir-biriga intiladi;

3) kriminal korrupsiya – tegishli toifadagi mansabdor shaxslarni uzoqni ko'zlagan maqsadda jinoiy faoliyatga jalb qilish bilan bog'liq korrupsiyaviy xulq-atvor shakllari bo'lib, bu amaldorlar muayyan masalalarni hal qilish uchun alohida qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida og'diriladi [17]. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq bo'lib, ko'p hollarda poraxo'rlikdan tashqari, mansabdor shaxslarga nisbatan hattoki provokatsiya va qo'rqitish kabi usullar qo'llaniladi [18].

M. Jonston korrupsiyani to'rtta katta tipga (toifaga) ajratishni taklif qiladi:

1) savdo sohasidagi korrupsiya – mas'ul amaldorlarga noqonuniy ishlab chiqarilgan mahsulotlar oldi-sotdisi, tovarlar sifatini oshirib ko'rsatish va boshqa qoidabuzarliklar uchun pora berish;

2) homiylik korrupsiyasi – munosabatlar, shu jumladan urug'doshlik, qarindoshlik, partiyadoshlik tamoyillari asosida "rahbarlar" homiyligi;

3) do'stlik va qarindoshchilik;

4) krizis korrupsiyasi – tadbirkorlar hokimiyat organlari qarorlari o'z biznesi uchun jiddiy o'zgarishlarga olib kelishi ehtimoli mavjud, favqulodda xatarli sharoitda faoliyat yuritishga majbur bo'lib, shunga ko'ra aynan shu qarorlarning savdolashish predmetiga aylanishi [19].

Tadqiqotchi A. Xeydanxaymer tomonidan ilgari surilgan tasnif ham o'ziga xos ahamiyatga ega [20]. Bu tasnif negizida jamoatchilik ongidagi korrupsiyaviy xulq-atvor amaliyot mavjudligiga roziligi yoki noroziligi yotadi. Bu holatda korrupsiya "oq", "kulrang", "qora" turlarga bo'linadi:

1) "oq" korrupsiya – bu jamoatchilik ongida rozilik yuzaga kelgan amaliyotdir: ushbu xatti-harakatlar qoralanmaydi, mohiyatan tegishli hudud yoki xalq madaniyatiga singib ketgan va muammo sifatida qabul qilinmaydi;

2) "kulrang" korrupsiya – bu jamiyatda kelishuv mavjud bo'lmagan amaliyotlardir. Aynan shu sohada jamiyat ichida ko'plab janjallar paydo bo'ladi;

3) "qora" korrupsiya – bu jamiyatning barcha a'zolari tomonidan so'zsiz qoralanadigan korrupsiyaviy xulq-atvor.

Ko'rib chiqilayotgan tasniflarning afzaligi shundaki, ular korrupsiya hodisasini har taraflama, uning ayrim funksional (ijobiy) jihatlarni baholovchi qarashlarni ham o'z ichiga olib, shu orqali, jumladan, "ilg'or", "sivilizatsiyalashgan" korrupsiya turlari ajratib ko'rsatiladi. Biroq ayni damda bunday mulohaza yuritishda korrupsiyani aniqroq tasniflash uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lgan bir qator jihatlarga e'tibor qaratish joiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda korrupsiya turlari va shakllari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarda yakdillik kuzatilmaydi.

I.I. Karpes to'g'ri ta'kidlaganidek, jahondagi qonunlarning birortasida "korrupsiya" tushunchasi jinoyat tarkibi sifatida tilga olinmaydi, zero, u jinoyat tarkibini tashkil etmaydi, balki jinoyatchilik kabi boshqa ko'pgina ijtimoiy hodisalar kabi ijtimoiy hodisadir [21].

Misol uchun, M.X. Rustambayevning nazdida, mansabdor shaxs tomonidan o'z xizmat vakolatini suiiste'mol qilishga lavozimni egallab turgan vaqt davomida vakolatlarni suiiste'mol qilish kiritiladi. Mansabdor shaxs o'ziga kerakli bo'lgan qarorga erishish maqsadida o'z xizmat vakolatlaridan emas, balki

xizmat yoki shaxsiy aloqalari, egallab turgan lavozimning obro'sidan foydalansa, jinoyat tarkibi bo'lmaydi [22].

Shu kabi B. Axrarovning fikricha, korrupsiya faqat mansabdor shaxslarning vakolatlaridan kelib chiqib, bunday mansabdor shaxslarning ham aynan ayrim yuqori toifalaridan kelib chiqishi bilan xarakterlanib, bunda poraxo'rlik suiiste'molchilik vakolat doirasidan chiqish kabi jinoyatlarda ifodalanadi. Korrupsiya mansabdorlik jinoyatlarining mansabga sovuqqonlik bilan qarash, mansabdor shaxs tomonidan sodir etiladigan ekologiyaga qarshi jinoyatlarni o'zi ichiga ololmaydi [23].

Bizningcha, bu borada V.V. Luneyevning fikri to'g'riroq. Unga ko'ra, bozor iqtisodiyoti, erkin savdo va demokratiya sharoitida korrupsiya Jinoyat kodeksida belgilangan oddiy poraxo'rlik va mansab vakolatini suiiste'mol qilishning primitiv turlari bilan cheklanmaydi. U bugungi kunda lobbichilik, "yoqimtoylar"ni ko'tarish, proteksionizm kabi keng urf bo'lgan korrupsiyaviy amaliyotlarni jinoiy deb belgilashga intilib [24], korrupsiyani davlat xizmatchilarining qonunga xilof xatti-harakatlarini baholash mezoni asosida tasniflashni taklif qiladi.

Tadqiqotchi Sh.R. Qobilovning fikricha, davlatning ruxsat berish funksiyalarining haddan tashqari keng doirada saqlanib qolishi ham korrupsiyaning ildizlaridan biri hisoblanadi [25].

A.A. Amanov korrupsiyaviy harakatlarga iqtisodiy subyektlarning moliyaviy va xo'jalik faoliyatiga davlatning, ayniqsa, mahalliy davlat organlarining aralashuvi holatlarini ham kiritadi [26].

Tadqiqotchilar N.I. Xalilova va N.S. Jabborovlar turli huquqiy adabiyotlarda berilgan ta'riflardan kelib chiqib, korrupsiya tarkibiga jamiyat manfaatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv tartibiga qarshi qaratilgan, kishilarning siyosiy tizimlarga nisbatan ishonchini susaytiradigan davlat xizmatchilarining xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish bi-

lan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlarni kiritadi [27].

Amaliyotda korrupsiya tasnifi davlat vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan turli huquqiy normalar (konstitutsiyaviy, ma'muriy, jinoyat) buzilishi bilan bog'lanadi. Bu tamoyilga asoslanib, korrupsiyaviy qilmishlar doirasini sezilarli darajada kengaytirish mumkin. Jumladan, yuridik adabiyotda zamonaviy jamiyatga xos bo'lgan va korrupsiyaga olib keladigan quyidagi urf bo'lgan (tipik) qonun buzilishlar ajratiladi [28]:

- davlat xizmatida va nodavlat notijorat tashkilotlarda lavozimlarning bevosita yoki yashirilgan holda, bir vaqtning o'zida bajarilishi holatlari;

- davlat xizmatchilari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlariga bevosita yoki yashirin haq evaziga bevosita yoki bilvosita xizmatlar ko'rsatish;

- tijorat tashkilotlariga ular bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan muayyan imtiyozlar, foyda va preferensiyalar berish;

- davlat xizmatchilari tomonidan tijorat (notijorat) tashkilotlari maqsadlarida shaxsiy yoki idoraviy ta'siri hamda norasmiy aloqalardan foydalanish;

- davlat xizmatchisi tomonidan hali rasman e'lon qilinmagan, ammo xizmat vazifalariga ko'ra xabardor bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish;

- davlat xizmatidan ketganidan so'ng o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda, nodavlat sohada shaxsiy ishga joylashish;

- mansabdor shaxslar tomonidan kelgusida nodavlat sohada ishga joylashishni ko'zlagan holda yoki bevosita va dalashgan holda qaror qabul qilish;

- sobiq davlat xizmatchilari tomonidan o'zining sobiq idorasi faoliyati to'g'risidagi "ichki" ma'lumotlaridan, ilgari o'rnatilgan norasmiy aloqalardan o'zining yangi ish korxonasi imtiyoz olish uchun foydalanish;

- mansabdor shaxslar ishlayotgan davlat korxonalari mol-mulkidan foydalangan holda, tijorat tuzilmalarini tashkil etish, ushbu

tuzilmalar rahbariyatida ishtirok etish, ular uchun imtiyozli holat yaratib berish, davlat va mahalliy mulkni xususiyashtirish jarayonida o'z xizmat mavqeyidan foydalanib, ushbu obyektlarni sotib (egallab) olish, ular aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilsa, aksiyalar nazorat paketiga egalik qilish;

– davlat (jamiyat) ehtiyojlari uchun mo'ljallangan moliya va kredit mablag'larni qonunga xilof ravishda (tamagirlik niyatida) tijoriy tashkilotlarga o'tkazish.

Bundan tashqari, adabiyotda korrupsiyaning aniq va yashirin (latent) shakldagi ko'rinishlari muammosi alohida muhokamalarga sabab bo'ladi. Xususan, hech bir yuridik, madaniy va axloqiy me'yorlarga ega bo'lmagan lobbizm amaliyoti, tashkilotlar nizomi va boshqa ta'sis hujjatlarini rasmiylashtirish, faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda tarqalgan byurokratiya korrupsiya uchun qulay muhit hisoblanadi.

Darhaqiqat, bu borada qonunchiligimiz ma'lum o'zgarishlarga muhtoj. Xususan, O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-iyuldagi qonun bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) qo'shildi.

11. Rakhimov F.K., Valijonov D.D. Some Issues of Improvement of the International Cooperation of Prosecutors Office of the Republic of Uzbekistan Under Digital Globalization. 2nd International Scientific and Practical Conference “Modern Management Trends and the Digital Economy: from Regional Development to Global Economic Growth” (MTDE 2020). Dordrecht, The Netherlands, Atlantis Press, 2020, pp. 108–111.

12. Pulatov B.Kh., Ravshanbekovna H.D. Germaniia federativ respublikasida prokuratura va sud organlari faoliyati xamda uning oziga khos xususiatlarining qiyosii tahlili [Comparative analysis of the activities of the prosecutor's office and the judiciary in the Federal Republic of Germany and its specific features]. *Zhurnal pravovykh issledovaniy – Journal of Law Research*, 2020, vol. 5, no. 5.

13. Sadikova Sh.M. Korruptsiiga qarshi kurashishning xalqaro standartlari [International standards for combating corruption]. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2022, vol. 2, no. 2, pp. 16–26.

14. Toshev B. Korruptsiiga qarshi kurashishga oid xalqaro normalarni millii qonunchilikka implementatsiia qilish [Implementation of international anti-corruption norms into national legislation]. *Yurist axborotnomasi – Vestnik iurista – Lawyer herald*, 2020, vol. 1, no. 5, pp. 92–98.

15. Yusupov F.N. Huquqni mukhofaza qiluvchi organlarning korruptsiiga qarshi kurashishda hamkorligini takomillashtirishning airim zhihatlari [Efforts to improve cooperation between law enforcement agencies in the fight against corruption]. *Scientific progress*, 2021, vol. 2, no. 6, pp. 1605–1608.

UDC: 341(045)(5751)

VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN ODIL SUDLOV: MILLIY QONUNCHILIK VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI

Miruktamova Feruza Lutfullayevna,Toshkent davlat yuridik universiteti
katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-9793-3717

e-mail: f.miruktamova@tsul.uz

Annotatsiya. Maqola voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovga doir milliy qonunchilik masalalariga bag'ishlangan. Muallif mamlakatimizda yuvenal yustitsiyani joriy etish taklifini ilgari surib, bu borada odil sudlov tizimida bola huquqlarini ta'minlashga qaratilgan milliy normativ hujjatlarni tahlil qilgan, bolalarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga doir BMT xalqaro standartlaridan kelib chiqib, milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar keltirgan. BMT xalqaro standartlarini o'rgangan holda, milliy qonunchilikni ularga muvofiqlashtirish maqsadida mamlakatimizda bola huquqlarini ta'minlashda eng asosiy masalalardan hisoblangan yuvenal yustitsiya tizimini joriy etishning huquqiy masalalari tahlil qilingan. Bunday tizimning joriy etilishi, eng avvalo, bolalar ishlariga ixtisoslashgan alohida tizimning mavjud bo'lishi, qonun bilan nizoga kirishgan bolalarning jamiyatga qayta moslashuvi ijtimoiy soha vakillari bilan hamkorlikda amalga oshirilganda, samarali bo'lishi xulosa qilingan. Muallif yuvenal yustitsiyaning o'ziga xos jihatlari va afzalliklari bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish, bolalarni ozodlikdan mahrum qilishda erishiladigan natijalarning salbiy holatlari to'g'risida, nizolarni hal qilishda muqobil turdagi choralarni joriy etish orqali erishiladigan ijobiy natijalar haqida ommaga tushuntirish ishlarini olib borish, shuningdek voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishda keng jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash uchun sharoitlar yaratish lozim, degan fikrga kelgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, bola, bolalarga nisbatan odil sudlov, huquqbuzarlik sodir qilgan bolalar, yuvenal yustitsiya, voyaga yetmaganlar odil sudlovining xalqaro standartlari, BMTning Bola huquqlari konvensiyasi, xalqaro standartlar.

ПРАВОСУДИЕ В ОТНОШЕНИИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ: НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО И ВОПРОСЫ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Мируктамова Феруза Лутфуллаевна,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

старший преподаватель

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Статья посвящена вопросам национального законодательства касательно правосудия в отношении несовершеннолетних. Проанализированы нормативные документы, направленные на обеспечение прав ребенка в системе правосудия, рекомендации по совершенствованию национального законодательства с учетом международных стандартов ООН по отправлению правосудия в отношении детей. Изучены нормы международных стандартов ООН с целью приведения национального законодательства в соответствие с

ними, правовые вопросы внедрения системы ювенальной юстиции, которая является одной из важнейших сфер обеспечения прав ребенка. Отмечается, что внедрению этой системы будет способствовать наличие специальной системы правосудия по делам детей, взаимодействие с представителями социальной сферы для реинтеграции и реабилитации детей, находящихся в конфликте с законом. Разработаны выводы о необходимости проведения общественной разъяснительной работы по широкому использованию средств массовой информации в формировании общественного мнения об особенностях и преимуществах ювенальной юстиции, негативных случаях при лишении свободы детей, а также положительных результатах, достигнутых введением альтернативных видов мер разрешения споров в делах с участием детей, находящихся в конфликте с законом.

Ключевые слова: несовершеннолетние, дети, правосудие в отношении детей, совершившие правонарушение дети, ювенальная юстиция, международные стандарты правосудия в отношении несовершеннолетних, Конвенция ООН по правам ребенка, международные стандарты.

JUSTICE FOR CHILDREN: NATIONAL LEGISLATION AND LEGAL ISSUES FOR ITS IMPROVEMENT

Miruktamova Feruza Lutfullayevna,

Senior Lecturer of
Tashkent State University of Law, PhD in Law

Abstract. The article is devoted to the issues of national legislation concerning justice for children. The normative documents aimed at ensuring the rights of the child in the justice system, recommendations for improving national legislation taking into account the UN international standards on the administration of justice for children are analyzed. The norms of international UN standards have been studied in order to bring national legislation into line with them, legal issues of the introduction of the juvenile justice system, which is one of the most important areas of ensuring the rights of the child. It is noted that the introduction of this system will be facilitated by the presence of a special justice system for children, interaction with representatives of the social sphere for the reintegration and rehabilitation of children in conflict with the law. Conclusions have been drawn on the need for public explanatory work on the widespread use of mass media in forming public opinion about the features and advantages of juvenile justice, about negative cases of deprivation of liberty of children, as well as about the positive results achieved by the introduction of alternative types of dispute resolution measures in cases involving children in conflict with the law.

Keywords: minors, children, justice for children, juvenile offenders, juvenile justice, international standards of juvenile justice, UN Convention on the Rights of the Child, international standards.

Kirish

Bugungi globalashayotgan davrda butun dunyoda voyaga yetmaganlar odil sudlov tizimida ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda bola huquqlarini ta'minlash bola huquqlari kafolatlarining qonunchilik bazasini shakllantirish va rivojlantirish, bolalarning to'laqonli rivojlanishi uchun zarur institutsional asoslar va ijtimoiy-iqtisodiy

shart-sharoitlar yaratish, iqtidorli bolalar va nogiron bolalarga alohida e'tibor qaratish, ularning huquqlari himoyalanihini ta'minlashga asoslangan.

Bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilish bugungi kunning global muammolari-dan biridir, buni hal etishdan butun dunyo hamjamiyati manfaatdordir. Mazkur masalaning dolzarbligi to'g'risida davlatimiz rahbari o'zining 2020-yil 29-dekabr-dagi Oliy Majlisa

yo'llagan Murojaatnomasida shunday deydi: "Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz".

Mamlakatimizda bolalar aholi umumiy sonining aksariyat qismini tashkil etadi. 2020-yil 1-yanvar holati bo'yicha O'zbekistonda 14 yoshgacha jami bolalar soni 9 million 870 ming 276 nafarni tashkil etishi [1], aholining 18,9 mln nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etishini hisobga olganda [2], mamlakatimizda bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Har qanday jamiyatning yashovchanligi va uning kelajakdagi rivojini prognoz qilishda o'sib kelayotgan avlod hal qiluvchi rol o'ynashini hisobga olganda, deviant xulq-atvorli bolalar huquq va erkinliklarining qonunchilik yo'li bilan tartibga solinishi, shuningdek davlatning ularni amalga oshirishi bo'yicha majburiyatlari masalasi nihoyatda muhim ahamiyatga ega, zero, davlat tomonidan ishonchli kafolatlarni taqozo etadi.

O'zbekiston inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini bajarishi va amalga oshirishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab berilgan [3, 102-b.]. BMTning Bola huquqlari qo'mitasi O'zbekistonga bergan yakuniy xulosalarida mamlakatda bolalar odil sudloviga doir ixtisoslashgan tizimning mavjud bo'lishi kerakligini tavsiya qilgan. Qolaversa, O'zbekiston a'zo bo'lgan BMTning Bola huquqlari konvensiyasi normalarida ham bolalar uchun moslashgan alohida odil sudlov tizimining mavjud bo'lishiga doir ko'rsatmalar mavjud. Mamlakatda bolalar ishlari bo'yicha alohida sudlarning mavjud bo'lishi yuvenal yustitsiya tizimini tashkil

etishning asosiy shartlaridan bo'lib, bunday tizimning tashkil etilishi, avvalo, O'zbekistonning bola huquqlarini ta'minlash sohasidagi xalqaro majburiyatlarini bajarishdan kelib chiqadi. Xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish orqali O'zbekiston Respublikasi bola huquqlarini xalqaro andozalarga muvofiq himoya qilishni ta'minlash bo'yicha xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan [4, 102-b.].

Material va metodlar

Voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoyalash maqsadida so'nggi yillarda bir qator to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi qonunlar qabul qilindi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2010-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni, 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 14-yanvardagi "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va boshqalarni keltirish mumkin.

Xususan, jinoyat qonunchiligining yanada erkinlashtirilishi va jinoyatlar ayrim toifalarining dekriminalizatsiyasi amalga oshirildi, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlari ro'yxati kengaytirildi [5, 168-b.].

"Xabeas korpus" instituti qo'llanilishi sohasini kengaytirish, jinoiy ishlar ko'rib chiqilishining soddalashtirilgan tartibini joriy etish, shuningdek sud-tergov faoliyatida fuqarolar huquq va erkinliklarini yanada kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Huquq-tartibot organlari faoliyatining tashkil etilishi tubdan qayta ko'rib chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF-4850 sonli "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqa-

rolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Sud hokimiyatini tizimli mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Kengashlarining 2018-yil 18-apreldagi qo'shma qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha komissiya tashkil qilindi.

Davlatning jinoiy-huquqiy siyosatiga oid tubdan yangi ustuvorliklarni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida 2018-yil 14-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3723 sonli qarori va uning asosida O'zbekiston Respublikasining jinoiy va jinoiy-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi. Unda ta'kidlanishicha, sud-tergov amaliyotida, shu jumladan jinoiy va jinoiy-protsessual qonunchilikning ayrim me'yorlarining nomukammalligi bilan izohlanadigan, mamlakat jinoiy-huquqiy siyosatining samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishga odil sudlov sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar hamda BMTning inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish sohasidagi konvension hujjatlar me'yorlari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish yordam beradi.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya talablarini har tomonlama hayotga joriy qilish, shuningdek 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-

ning 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son qarori qabul qilindi.

Hujjat bilan Davlat statistika qo'mitasiga o'z saytida (stat.uz) onalik va bolalik bo'yicha statistik ma'lumotlarni joylashtirish va muntazam ravishda ma'lumotlarni yangilash topshirilgan. Hujjatda bolalar odil sudlovi sohasiga tegishli bo'lgan ayrim indikatorlar bo'yicha statistik ma'lumotlar "stat.uz" veb-saytiga joylashtirilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Farmon bilan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi rahbar organlarining ushbu tashkilotlarni tugatish haqidagi qarorlari qabul qilindi.

Hujjatga asosan, vazirlikning og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish tizimini shakllantirish, xotin-qizlar o'rtasida turli salbiy ijtimoiy harakatlar, ayniqsa, o'z joniga qasd qilish, fohishabozlik, voyaga yetmagan qizlarning erta turmushga chiqishi kabi holatlarning sabablarini chuqur o'rganish hamda natijalari bo'yicha fuqarolar yig'inlari kengashlari, mahalliy hokimliklar, huquqni muhofaza qiluvchi organlari va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishini tashkil etish va boshqa funksiyalarni amalga oshirishi nazarda tutilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 30-avgustdagi PQ-3250-son qarori bilan tasdiqlangan 2017–2020-yillarda "Sudlar faoliyatiga

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” dasturining ijrosi natijasida sudlarga masofadan turib murojaat qilish, sud majlislarida videokonferensiya aloqa tizimidan foydalanib ishtirok etish, sudyalarda o’rtasida ishlarni avtomatik tarzda taqsimlash, sud qarorlarini Internet tarmog’ida e’lon qilish, ijro hujjatlarini elektron shaklda majburiy ijroga yuborish tizimlari joriy etilganligi amaliyotda o’zining yaxshi samarasini berib kelmoqda. Hozirda fuqarolik ishlari bo’yicha sudlar faoliyatiga “E-SUD” milliy elektron sudlov axborot tizimi joriy etildi va ayni chog’da undan samarali foydalanib kelinmoqda.

Odil sudlovni amalga oshirishda voyaga yetmaganlarning huquqlariga doir qo’shimcha kafolatlarni yaratish bo’yicha qonunni amalga oshirishga yo’naltirilgan sud hokimiyatining maxsus hujjati sifatida O’zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 21-sonli “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida”gi qarorini keltirish mumkin. Qarorda voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko’rishda, odillik va insonparvarlik tamoyillariga amal qilgan holda, qonunda ushbu toifadagi shaxslar uchun ko’zda tutilgan sud amaliyoti qoidalariga so’zsiz rioya qilish, ish bo’yicha isbotlanishi lozim bo’lgan holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama to’la va xolisona tekshirib chiqib, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va sudlanuvchining shaxsini e’tiborga olgan holda, aniqlangan haqiqiy holatlar va dalillar majmuasiga to’g’ri baho berish kerakligi belgilangan.

Sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida O’zbekistonda ilg’or xalqaro tajribaga muvofiq, jabrlanuvchi va jinoyat guvohi bo’lgan bolalar huquqlarining himoyasini yanada kuchaytirish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Voyaga yetmagan bolalar uchun odil sudlovning xalqaro standartlariga muvofiq, jabrlanuvchi va jinoyat guvohi bo’lgan bolalar

uchun barcha bosqichlarda – sudgacha, sudda va suddan keyingi davrda maxsus himoya choralari ko’rilishi zarur.

2019-yilda O’zbekiston Respublikasi Oliy Sudi va UNICEF ilk bor sudda ishlar ko’rilayotgan vaqtda jabrlanuvchi yoki jinoyat guvohi bo’lgan bolalarga do’stona muhitli xonani tashkil etdi. Mazkur xona joriy yilning fevral oyida Toshkent shahar jinoyat ishlari bo’yicha Shayxontohur tumani sudida foydalanish uchun topshirildi.

UNICEFning O’zbekistondagi vakolatxonasini rahbari Sasha Graumann (2019) fikriga ko’ra [4], sud bosqichida bolalarga do’stona muhitli ushbu xonaning ochilishi BMT Bola huquqlari bo’yicha qo’mitasining qonun bilan aloqada bo’lgan bolalarni himoya qilish choralari ko’rish bo’yicha O’zbekistonga yo’llagan tavsiyalarini amalga oshirishdagi katta qadam hisoblanadi. Jabrlanuvchi yoki jinoyat guvohi bo’lgan bolani ruhiy shikastlanishdan himoya qilish, avvalo, suhbat yoki tergov uchun muhit do’stona bo’lishi kerakligini, ikkinchidan, sud muhokamasida bola sudyadan boshqa sud jarayoni har qanday ishtirokchilari, jumladan, ayblanuvchi bilan muloqotda bo’lmasligi kerakligini taqozo etadi.

Bolalarning yoshi, yetukligi va ruhiy holati e’tiborga olingan holda, ular o’zlarini erkin va xavfsiz sezishlari uchun mazkur xona qulay muhitni ta’minlaydi. Bolalarga ruhiy shikast yetkazish ehtimolini imkon qadar kamaytirish maqsadida xona zamonaviy video va audio tizim bilan jihozlangan. Bunday choralar jabrlanuvchi yoki jinoyat guvohi bo’lgan bola sud muhokamasida ishtirok etayotganida, u faqatgina sudya bilan gaplashib, boshqa sud ishtirokchilari bilan har qanday muloqot qilishini istisno etadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlarining kafolatlari ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-son Farmoni bilan bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning institutsional va

huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish, voyaga yetmaganlar orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish maqsadida Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) idoralararo komissiyalari tegishli-chi Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya, Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyalari etib qayta tashkil qilish belgilandi.

Mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning har qanday shakliga murosasiz munosabat muhitini qaror toptirish, tazyiq hamda zo'ravonlikni boshidan o'tkazgan xotin-qizlarni himoya qilish maqsadida 2019-yilning 2-sentabrida "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlarni turmushda, ish joylarida, ta'lim muassasalarida hamda boshqa joylarda tazyiqlar va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan.

Qonundagi eng muhim jihat – himoya orderini berish bilan bog'liq. Endilikda tazyiqqa duch kelgan xotin-qizlarga himoya orderi beriladi. Qonunda order berish tartibi, uning muddatini uzaytirish, himoya orderida nazarda tutiladigan cheklovlar aks etgan.

2018-yilda O'zbekiston Milliy universitetida ijtimoiy ishlar bo'yicha ixtisoslashgan kafedra tashkil qilindi. Ichki ishlar vazirligi esa jinoyatlarning qurboni va guvohi bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilishni yaxshilashga qaratilgan bolaga do'stona munosabat ko'rsatuvchi respublikadagi birinchi tergov xonasini tashkil qildi. 2019-yilda Ichki ishlar vazirligi BMTning bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tavsiyalarini bajarish maq-

sadida butun mamlakat bo'ylab voyaga yetmaganlarga ijtimoiy va huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida ijtimoiy xodimlar va psixologlar lavozimini ta'sis etdi [6, 75-b.].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 29-maydagi PQ-4342-son qarori ijrosini ta'minlash hamda alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bo'lgan yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 17.10.2019-yilgi 880-son Respublika o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzurida Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi hamda Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasi tashkil etildi. Alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bo'lgan bolalar uchun Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi hamda Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasi-ning maqomi, vazifalari va faoliyatini tashkil etish tartibi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-son Farmoni bilan esa Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimini tugatilib, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (keyingi o'rinlarda – Bolalar ombudsmani) instituti ta'sis etildi.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi- ni amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, "Sen yolg'iz emassan" Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi, "Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lma-

gan xalqaro xayriya fondi, “O‘zbekiston bolalar mahallalari” (“SOS – Detskie derevni Uzbekistana”) uyushmasi, Bolalar va oilalarni qo‘llab-quvvatlash assotsiatsiyalari faoliyatini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Tadqiqot natijalari

Bolalar huquq va erkinliklarini himoyalash tizimini mustahkamlash rivojlanib borayotgan jarayondir. Xorijiy mamlakatlar tajribasi va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ushbu sohada innovatsion yondashuv talab qilinayotganidan dalolat beradi [7, 126-b.].

2020-yilda respublika bo‘ylab jami 62081 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, jinoyat sodir etganlar umumiy sonida voyaga yetmaganlar ulushi 2,6 %ga to‘g‘ri keladi. Shundan 13–15 yoshlilar 0,4 %ni tashkil qilsa, 16–17 yosh oralig‘ida jinoyat sodir etganlar soni 2,2 %ni tashkil qiladi. 2019-yilgi ko‘rsatkichga (1,9 %) qaraganda, 2020-yilda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar soni 7 % ga oshganini ko‘rish mumkin

Jinoyat sodir etganlikda aniqlangan shaxslar soni 2018-yilda 51775 ta, 2019-yilda 42487 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 49246 tani tashkil qilgan. 2018-yilda jinoyat sodir etgan 13–17 yoshlar orasidagi shaxslar soni 1100 dan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar soni 818 tani tashkil etgan. 2020-yilga kelib esa 1276 nafar voyaga yetmagan jinoyatga qo‘l urgan. 2019-yilda umumiy jinoyat sodir etganlar sonida voyaga yetmaganlar ulushi 2 %ga yaqinni tashkil qilgan, 2020-yilda esa bu raqam 2,6 %ga o‘sganini ko‘rish mumkin [8].

2020-yilda voyaga yetmaganlar jami 1134 ta jinoyat sodir etgan, 526 nafar voyaga yetmagan suitsidal harakatlarni amalga oshirgan, xususan, o‘z joniga qasd qilgan yoki qasd qilishga uringan [9].

Voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash masalalari har doim O‘zbekiston hukumati-ning diqqat markazida turishi va bu borada

bir qator qonuniy hujjatlar qabul qilinganligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha sud, huquq-tartibot va institutsional tizimni tubdan takomillashtirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilayotganligiga qaramay, xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba mavjud muammolarga zamonaviy yondashuvlar mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish sohasida milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda jadallik bilan amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari jarayonida tezkorlik bilan hal qilinishi lozim bo‘lgan ayrim muammolar mavjud.

Tadqiqot natijalari tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 1-bobi vazifalari va tamoyillariga muvofiq, jazo adolatlik va insonparvarlik tamoyillarini ko‘zlagan holda, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun qo‘llanilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi JPK 2-moddasi 1-qismida belgilanishicha, Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari jinoyatlarni tez va to‘la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etish hamda qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta‘minlashdan iboratdir (O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish umumiy jinoiy-protsessual tartibdan farq qiladigan tarzda alohida ko‘rib chiqish uchun ajratilgan. Ushbu tizim O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (6-bo‘lim “Voyaga yetmaganlar javobgarligining o‘ziga xosligi”, 81–90-moddalari), O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (60-bob “Voyaga yetmaganlar jinoyatlar bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish”, 547–564-moddalari) va O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi (34-bob “Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov

choralarining qo'llanilishi", 195–197-mod-dalari) muayyan normalari bilan tartibga solinadi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlov to'g'risidagi BMTning minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari) voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirganda, ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos yondashuvni hisobga olishni nazarda tutadi, ammo qayd etilgan vazifa va tamoyillarda voyaga yetmaganlar, jinoiy va jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlarda ularning huquqiy maqomi to'g'risidagi qaydlar yoki izohlar mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi umumiy qismining voyaga yetmaganlar javobgarligining ayrim jihatlarini ko'zda tutuvchi VI bo'limini istisno etganda, O'zbekiston Respublikasi JK va JPK voyaga yetmagan va katta yoshli jinoyatchilarni farqlamaydi. Jinoyat-protsessual kodeksida mavjud protsessual harakatlarni amalga oshirish muddatlarida ham deyarli farqlar mavjud emas. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistondagi mavjud qonunchilik holati BMT tomonidan qabul qilingan Pekin qoidalarining 2-bandida bayon etilgan ta'riflarga mos kelmaydi: "Voyaga yetmagan deb huquqbuzarlik uchun mavjud huquqiy tizim doirasida katta yoshlilarga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik shaklidan farq qiluvchi shakldagi javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan bola yoki yosh inson tushuniladi".

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda, shu holatni e'tiborga olish kerakki, voyaga yetmaganlar hayotiy tajribasi yetishmasligi tufayli o'z qilmishlarining jamiyat uchun oqibatini har doim ham tushunmaydi va bu yoshdagi aybdorlarni, odatda, tuzatish va qayta tarbiyalash osonroq kechadi [10, 310-b.].

Aybdorning yoshi javobgarlikka qanchalik ta'sir ko'rsatishi uning jismoniy yetukligi hamda sodir etilgan jinoyatning haqiqiy xavfini tushunish uchun talab qilinadigan onglik darajasini hisobga olgan holda hal

qilinadi. Fanda 18 yoshgacha inson yoshining ulg'ayib borishi (bir yil, to yarim yilga) shaxsning yetuklik darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shu tufayli huquqbuzarlik sodir qilgan voyaga yetmagan huquqbuzarning (14–16 yoshli o'smirlar) xatti-harakatlariga baho berishda shuni hisobga olish kerak [11, 475-b.].

Sud jarayonining voyaga yetmagan huquqbuzarga tarbiyaviy ta'siri – ishni sudda ko'rib chiqilishining eng muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun sud ularda voyaga yetmagan shaxs o'qigan yoki ishlagan korxonani, muassasani, tashkilotni, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyani, zarur bo'lsa, boshqa tashkilotlarni ham xabardor qiladi, zaruratga ko'ra sud yig'ilishiga taklif etadi. Ushbu vakillar ishning sudda ko'rib chiqilishida ishtirok etadi, zaruratga ko'ra, guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin, sud ruxsati bilan dalillarni isbotlashda ishtirok etishi mumkin (JPK ning 551-mod-dasi).

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ochiq muhokama qilinishini ko'zda tutadi. Bu esa voyaga yetmaganlar ishlarini sudda ko'rib chiqishda maxfiylikni ko'zda tutuvchi Pekin qoidalariga ziddir.

Amalda sud o'zining asosli qarori bilan voyaga yetmagan shaxs sodir etgan jinoyatni faqat "fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarning oshkor qilinishining oldini olish" maqsadida yopiq sud majlisida ko'rib chiqishi mumkin (JPKning 19-mod-dasi). Voyaga yetmagan shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatni o'rganishda, sud o'z hukmi bilan bu paytda voyaga yetmagan shaxsni sud majlisi bo'layotgan zaldan chiqarib yuborishga haqli. Bundan tashqari, qonun sud ajrimi bilan voyaga yetmaganlar ishlarini yopiq sud majlisida ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yadi, ammo voyaga yetmaganlarning jinoiy ishlari bo'yicha ochiq sud muhokamalari o'tkazilishini taqiqlamaydi. Bu esa xalqaro huquqiy standartlar talab-

lari va tavsiyalariga zid hisoblanadi. Masalan, Pekin qoidalarining 8.1-bandiga muvofiq: “Voyaga yetmaganlarning maxfiylikka bo‘lgan huquqi barcha bosqichlarda hurmat qilinishi kerak, bunda zarur bo‘lmagan oshkoralik tufayli unga zarar yetkazilishi yoki obro‘yiga putur yetkazilishidan saqlanish ko‘zda tutiladi”. Pekin qoidalarining 21-bandida keyingi o‘rinlarda ushbu qoida yanada aniqlashtiriladi: “Voyaga yetmaganlar ishlarining materiallari qat’iyan maxfiy saqlanishi va uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Bunday materiallardan foydalanish imkonini bevosita ushbu ishni ko‘rib chiqadigan shaxslar yoki tegishli vakolatlarga ega boshqa shaxslar doirasi bilan chegaralanishi kerak”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi “Bola huquqlari kafoflatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4296-son qarori bilan milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida yuvenal adliya tizimini joriy etish bo‘yicha konsepsiya loyihasini ishlab chiqish belgilangan.

Konsepsiya asosida voyaga yetmagan huquqbuzarlar uchun (odil sudlov tizimida voyaga yetmaganlar huquqlarini ta‘minlash maqsadida) maxsus tergov, surishtiruv, prokurorlik nazorati organlari va sudlar tizimi, shu jumladan, bu sohani tartibga soluvchi maxsus protsessual qonunchilik instituti yaratilishini ko‘zda tutuvchi “Bolalarga nisbatan odil sudlov to‘g‘risida”gi Qonunni ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Bunday tizim qaror topishining eng muhim masalalaridan biri, Pekin qoidalarida ko‘zda tutilganidek (22-band. “Professionallik va tayyorgarlikning zarurligi”), sudyalarining maxsus bilim va salmoqli amaliy tajribaga ega ekanligi hisoblanadi.

Pekin qoidalari voyaga yetmaganlarga huquqiy ta‘sir ko‘rsatish bo‘yicha keng chora-tadbirlarni ko‘zda tutadi. Jumladan, Pekin qoidalarining 18.1 bandida ta‘kidlanishicha: “Imkon qadar ko‘proq moslashuvchanlikni ta‘minlash va imkon qadar axloqni tuza-

tish muassasalariga joylashtirishdan saqlanish maqsadida vakolatli hokimiyat organi ishni ko‘rib chiqishda keng ko‘lamli ta‘sir choralarini qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bir-biri bilan biriktirib qo‘llanishi mumkin bo‘lgan bunday choralar quyidagilardan iborat: a) vasiylik, rahbarlik va nazorat to‘g‘risidagi qaror; b) probatsiya; d) jamiyat farovonligi uchun ishlash to‘g‘risidagi qarorlar; e) guruh tarkibida psixoterapiyada ishtirok etish va boshqa shu kabi tadbirlar to‘g‘risidagi qarorlar; f) yashash joyiga tarbiya uchun berish va boshqa xil tarbiyaviy choralar to‘g‘risidagi qarorlar” va b.

Respublikada voyaga yetmagan huquqbuzar bilan jabrlanuvchini yarashtirishga ko‘maklashishga, jazodan ozod qilingan voyaga yetmaganlarni jamoatchilik tomonidan nazorat qilishga qaratilgan maxsus dasturlar mavjud emas, vaholanki, Pekin qoidalarining 11.4-bandida ularning zarurligi uqtirib o‘tilgan: “Voyaga yetmagan bolalar ishini ko‘rib chiqishning diskretsion mazmunini ta‘minlashga ko‘maklashish maqsadida jamoa doirasida vaqtincha nazorat qilish va boshqarib turishni, jabrlanuvchining restitutsiyasi va kompensatsiyasini ko‘zda tutuvchi muayyan dasturlarni amalga oshirish zarur” [12, 132-b.].

Davlat organlari ko‘pincha huquqbuzarliklar profilaktikasini faqat huquq-tartibot organlarining vazifasi deb biladi va shu sababli ushbu ishga yetarli darajada e‘tibor qaratmaydi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo‘naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalar bermayapti. Qolaversa, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga

oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermaydi [13, 245-b.].

Vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko'rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro nomutanosibligi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvatlash to'g'risida"gi Farmoni bilan fuqarolik jamiyati institutlariga yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lgan yoshlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoshlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish vazifasi yuklatilgandi. Hozirgi kunda mazkur vazifalar bilan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi shug'ullanmoqda. Biroq ushbu sohani amalga oshirish borasidagi faoliyat umumiy monitoringini amalga oshiradigan muvofiqlashtirib boradigan yagona vakolatli organ belgilab berilmagan. Qolaversa, olib borilayotgan tadbirlar monitoring holatida ham huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida yagona yondashuv mavjud emas, huquqbuzarlik sodir etgan yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyil yoshlar bilan olib borayotgan yakka tartibdagi, maxsus profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi tahlil qilinmasdan qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bu boradagi faoliyatni tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

BMTning Bola huquqlari qo'mitasining 2013-yilgi O'zbekiston Respublikasining uchinchi va to'rtinchi davriy hisobotiga bergan Yakuniy xulosalarida (CRC/C/USB/3-4) aynan bola huquqlariga asoslangan monitoring va baholash tizimini, shu jumladan resurslarni bolalar huquqlariga ta'sirini baholash va kuzatish uchun qamrov va sifat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish belgilangan [14]. Har qanday ko'rsatkich standartlarga muvofiqlik darajasini ko'rsatuvchi ma'lumotlarni aniqlash va taqdim etishning umumiy usulini ta'minlaydi. Davlatlar voyaga yetmaganlar odil sudlovi sohasida milliy huquqiy tizimni yaratar ekan, ularning qay darajada xalqaro standartlarga mos kelishi, standartlarning davlatlar qonunchiligi, ularning siyosati va amaliyotida qanchalik aks etayotganligini baholash mezonlariga ega bo'lishlari lozim [15, 87-b.]. UNODC va UNICEFning Voyaga yetmaganlar odil sudlovi sohasida ko'rsatkichlarni baholash bo'yicha Yo'riqnomasida (2006) davlatlarga barcha ko'rsatkichlar (indikatorlar) bo'yicha ma'lumotlarni voyaga yetmaganlar jinsi bo'yicha shakllantirish tavsiya etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-son Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining onalik va bolalikka oid statistik ma'lumotlarni "stat.uz" veb-saytiga joylashtirish belgilangan. "stat.uz" veb-saytida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar bo'yicha berilgan ma'lumotlarda voyaga yetmay jinoyat sodir etgan shaxslarning soni 13-15, 16-17, 18-24 yoshlar kesimida berilgan. Bu esa voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tahlilini amalga oshirishda ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar orasida sodir etilayotgan jinoyatlarning qanchasi qizlar va o'g'illar tomonidan sodir etilayotgani haqida ma'lumotlar mavjud emas.

Shulardan kelib chiqib, UNODC va UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan “Juvenile Justice Indicators” nomli ko’rsatmalar qoidalariga muvofiq, voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligiga oid ma’lumotlarni yanada konkretlashtirish, yosh bo’yicha ko’rsatkichlarni aniqlashtirish va jinsiga ko’ra statistikani yoritish maqsadida Bola huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi PQ-4296-son qarorda ko’rsatilgan indikatorlar qatoriga “stat.uz” veb-saytida “Jinoyat sodir etgan o’g’il bolalar va qiz bolalar soni va xususiyatlari” indikatorini kiritish tavsiya etiladi. Ko’rsatkich bilan jinoyat sodir etgan o’g’il va qiz bolalarning soni, uning jami bolalar hamda o’g’il va qiz bolalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonining ko’rsatilishi maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, O’zbekiston Respublikasining bolalarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish sohasidagi qonunchiligini tahlil qilish va ularni sohaga doir xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish borasida quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, yuvenal yustitsiya bo’yicha xalqaro hujjatlarga asoslangan sud ishlarini yuritishning maxsus turi sifatida voyaga yetmaganlar ishlari bo’yicha jinoiy sud ishlarini yuritish ixtisosligini qonunchilikka joriy qilish. Voyaga yetmaganlar ishlarini ko’rishda ixtisoslashuvning joriy etilishi huquqbuzarlik sodir qilgan voyaga yetmaganlarning odil sudlov tizimidagi huquqlarini to’la ta’minlashga xizmat qiladi. Asosiysi, bu turdagi jinoyatlarining oldini olish va ularga qarshi kurashda samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sudlarda voyaga yetmaganlar jinoyatlari bo’yicha ishlarni ko’ruvchi sudyalarda ixtisoslashuvi zarur, shunda bu toifa ishlar xalqaro hujjatlarga asoslangan holda malakali tarzda hal qilinadi.

Ikkinchidan, voyaga yetmaganlarga nisbatan tarbiyaviy tusdagi majburlov choralari (sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so’rash majburiyatini yuklash;

o’n olti yoshga to’lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o’z mablag’i hisobidan yoki mehnati bilan to’lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash, voyaga yetmaganlarni maxsus o’quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish, JK 88-modda) qo’llash imkonini beruvchi barcha holatlar qonunchilikda aniq ko’rsatilishi kerak. Qonun bilan nizoga kirishgan, ya’ni huquqbuzarlik sodir qilgan bolaning turmush sharoiti, oilaviy muhiti, ijtimoiy muhiti, uning xarakteri va temperamenti kabi holatlar e’tiborga olinishi lozim. Bunday holatlarni aniqlashda faqat yuridik bilim egalari emas, balki ijtimoiy soha vakillari ham jalb qilinishi kerak. Huquqlarni qayta tiklovchi odil sudlov (restorative justice) mexanizmlarini joriy etish orqali qonun bilan nizoda bo’lgan bolalarning jamiyatga qayta moslashuvini ta’minlash choralari ko’rish lozim [16, 132-b.].

Uchinchidan, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar va mamlakatimizning xalqaro majburiyatlariga muvofiqlashtirish maqsadida jinoyat va jinoyat protsessual qonunchilikdagi ayrim normalarni qayta ko’rib chiqish kerak. Pekin qoidalarida ko’rsatilgan (8-, 13-, 24-moddalar) voyaga yetmaganlar bilan bog’liq ishlarda maxfiylikni ta’minlash, ehtiyot chorasi sifatida sudgacha qamoqda saqlab turishda muddatlarini qayta ko’rib chiqish, odil sudlov tizimiga tushgan voyaga yetmaganga zarur huquqiy yordam ko’rsatish kabi normalarni milliy qonunchilikka joriy etish choralari ko’rish zarur. Mazkur sohadagi chora-tadbirlarni tizimli tashkil etish maqsadida O’zbekistonda yuvenal yustitsiya tizimini tashkil qilish konsepsiyasini qabul qilish lozimligi xulosa qilinadi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ixtisoslashgan odil sudlov tizimini tashkil qilishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

avvalo, yuvenal yustitsiyaning o’ziga xos jihatlari va afzalliklari bo’yicha jamoatchilik fikrini shakllantirishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish;

bolalarni ozodlikdan mahrum qilishda erishiladigan natijalarning salbiy holatlari to'g'risida, nizolarni hal qilishda muqobil turdagi choralarni joriy etish orqali erishiladigan ijobiy natijalar haqida ommaga tushuntirish ishlarini olib borish;

voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishda keng jamoatchilikning

faol ishtirokini ta'minlash uchun sharoitlar yaratish;

voyaga yetmaganlarning jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etishlari chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini (jamoatchilik kuzatuv komissiyalari faoliyatini) amalga oshirishni qonunan mustahkamlash.

REFERENCES

1. Asosiy demografik ko'rsatkichlar [Main demographic indicators]. Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2/>.
2. Po'latov B.X., Astonov S.M. Voyaga yetmaganlarga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil qilish [Organization of prosecutorial control over the implementation of legislation on minors]. Tashkent, Higher Education Courses under of the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan, 2017, 168 p.
3. Rasulov Zh. Nekotorye aspekty implementatsii mezhdunarodnykh standartov po nedopuscheniiu prinuditel'nogo truda v natsional'noe zakonodatel'stvo [Some aspects of the implementation of international standards to prevent forced labor in national legislation]. *Review of law sciences*, 2020, vol. 2, Spec. issue, pp. 236-244. DOI: 10.24412/2181-919X-2020-236-244/.
4. Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash [Identification and training of students who are prone to crimes and offenses]. Tashkent, Kamalak Publ., 2017, p. 102.
5. V ugolovnom sude vpervie poyavilas komnata doprosoy, drujelyubnaya k detyam [For the first time, an interrogation room friendly to children appeared in the criminal court]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2020/02/18/room/>.
6. O'zbekistondagi bolalar vaziyatining tahlili [Analysis of the situation of children in Uzbekistan]. UNICEF, 2020, 131 p.
7. Matchanov A. Obespechenie prav nesovershennoletnix obvinyаемых, naходящихся v roзыске за sovershennыe prestupleniya [Ensuring the rights of juvenile defendants who are wanted for crimes committed]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2017, 126 p.
8. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytidan olindi [Retrieved from the official website of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://stat.uz/uz/>.
9. Svishe 500 nesovershennoletnix sovershili suitsidalnie deystviya [Over 500 minors have committed suicidal acts]. Available at: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/04/23/underage/>.
10. Lipsey M., Cullen F. The effectiveness of correctional rehabilitation: A review of systematic reviews. *Annual Review of Law and Social Science*, 2007, pp. 297-320.
11. Menon S., Cheung M. Desistance-Focused Treatment and Asset-Based Programming for Juvenile Offender Reintegration: A Review of Research Evidence. *Child and Adolescent Social Work Journal*, 2018, pp. 459-476. DOI: 10.1007/s10560-018-0542-8/.
12. Protecting children's rights in criminal justice systems: A training manual and reference point for professionals and policymakers. *Penal Reform International*, 2013, 12 p.
13. Turabaeva Z. Features of inflicting of penalties to juveniles at the period of pandemic. *Review of law sciences*, 2020, 245 p.
14. Concluding observations on the combined third and fourth periodic reports of Uzbekistan, adopted by the Committee at its sixty-third session. 2013, May 27 – June14. Available at: <https://undocs.org/en/CRC/C/UZB/CO/3-4/>.
15. Manual for the Measurement of Juvenile Justice Indicators. UNICEF and UNODC, 2006, April, 87 p.
16. Miruktamova F. Restorative model of juvenile justice as an alternative to criminal penalties: international standards and national legislation. *TSUL Legal Report*, 2020, vol. 1, iss. 1, pp. 122-134.

UDC: 821.512.133

TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN

Rasulmuxamedova Durdona Tolkundjanovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

ORCID: 0000-0002-0558-7328

e-mail: d.rasulmuxamedova@tsul.uz

Annotatsiya. Serqirra faoliyat sohibi, jahon xalqlari tarixida katta rol o'ynagan Sohibqiron Amir Temur siymosi haqida turli-tuman baho, talqin-u tavsiflar va ko'p hollarda bir-biriga zid qarashlar-u konsepsiyalar mavjud. Bunday ma'lumotlar nafaqat tarixiy asarlar, balki badiiy so'z san'atida ham uchraydi. Tarixi olti asrlik davrni qamrab oladigan umumjahon temurnomasi xazinasidan atigi bir parchani, ya'ni o'zbek temurnomasining istiqlool davri o'zbek adabiyotidagi badiiy qamrov darajasini tadqiq etishga jazm qildik. Mazkur maqolada Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davri haqidagi tarixiy haqiqat va badiiy talqin masalalari ochib berilgan. Unda temuriylar davrining asoschisi Amir Temur siymosining istiqlool davri adabiyotida qay darajada aks ettirilganligi yoritilgan. Tariximizning o'rta asrlariga oid nuqtalarini yaxshi bilgan Qodiriy, Fitrat, Ayniy, Oybek, Shayxzoda kabi ijodkorlar Amir Temur siymosini imkoni boricha ijobiy jihatdan aks ettirishga harakat qilganlar. Buyuk zotning Turonzamin, Yaqin va O'rta Sharq hamda Ovrupo xalqlari taqdirida tutgan o'rni esa maqolada Bo'riboy Ahmedovning "Amir Temur" romani misolida ko'rsatilib, shu paytga qadar ilmiy, tarixiy va badiiy asarlarda unga berilgan noto'g'ri baho va talqinlarga qarama-qarshi o'laroq obyektiv baho berilgan.

Kalit so'zlar: tarix, obraz, badiiylik, tarixiylik, tarixiy haqiqat, badiiy to'qima, talqin, asar tahlili, janr.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРАВДА И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Расулмухамедова Дурдона Толкунджановна,

кандидат филологических наук, доцент
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Существуют различные оценки, интерпретации, трактовки, а во многих случаях и противоречивые взгляды и представления об образе Амира Темура, разносторонней личности, сыгравшей значительную роль в истории народов мира. Такие сведения можно найти не только в исторических произведениях, но и в искусстве художественного выражения. Автор решил изучить только одну часть сокровищницы универсальной темурномы, охватывающую период в шесть веков, то есть уровень художественного освещения узбекской темурномы в узбекской литературе периода независимости. В статье раскрываются вопросы исторической правды и художественной интерпретации Сахибкирана Амира Темура и периода Темуридов. Она описывает степень отражения образа Амира Темура, основателя периода Темуридов, в литературе периода независимости. Такие творцы, как Кадыри, Фитрат, Айни, Ойбек, Шайхзода, знавшие аспекты нашей истории в средние века, постарались максимально позитивно изобразить образ Амира Темура. Точно отражая жизнь и историю Амира Темура, роль великого человека в судьбах народов Туранзамина, Ближнего Востока и Европы показана в статье на примере романа Бурибая Ахмедова «Амир Темура», в которой ему дана объективная оценка.

Ключевые слова: история, образ, искусство, историчность, историческая правда, художественная фактура, интерпретация, анализ произведения, жанр.

HISTORICAL TRUTH AND ARTISTIC INTERPRETATION

Rasulmuxamedova Durdona Tolkundjanovna,

Associate Professor of the Tashkent State University of Law,
Candidate of Philological Sciences

Abstract. *There are various assessments, interpretations, and in many cases contradictory views and ideas about the image of Amir Temur, a multifaceted figure who played a significant role in the history of the peoples of the world. Such information is contained not only in historical works but also in the art of artistic expression. We decided to study only a part of the treasury of the universal temurnoma, covering a period of six centuries, that is, the level of artistic coverage of the Uzbek temurnoma in Uzbek literature of the independence period. The article reveals the issues of historical truth and artistic interpretation of Amir Temur's Sakhibkiran of the Timurid period. The degree of reflection of the image of Amir Temur, the founder of the Timurid period, in the literature of the period of independence is described in the article. Accurately reflecting the life and history of Amir Temur, the role of this great man in the destinies of the peoples of Turanzamin, the Middle East and Europe is illustrated by the example of Buribai Akhmedov's novel Amir Temur, in which an objective assessment is given.*

Keywords: *history, image, art, historicity, historical truth, artistic texture, interpretation, analysis of the work, genre.*

Kirish

Jahon sivilizatsiyasi tarixida munosib iz qoldirgan o'zbek xalqi azal-azaldan o'zligini bilgan xalq sifatida maydonga chiqqanligi barchaga ma'lum haqiqatdir. Shu bois biz hozirgi o'zbek millatining vakillari uzoq va yaqin ajdodlarimiz tarixi, ular qoldirgan boy madaniy merosni chuqur bilishimiz zarur. XX asr o'zbek adabiyotida eng ko'p nohaqliklarga duchor bo'lgan siymo Amir Temur edi. Chunki Sho'rolar hokimiyati yillarida Amir Temurning tarixda tutgan o'rni, xizmatlari va shaxsiyati insofsizlarcha noto'g'ri baholandi. Holbuki, Amir Temur nafaqat Movarounnahr va Xuroson, balki mashriq va mag'rib tarixida ham o'chmas iz qoldirgan eng ardoqli, buyuk shaxs bo'lgan. Uning muhim tarixiy xizmatlari birinchi yurtboshimiz tomonidan juda o'rinli va adolatli baholandi: "Amir Temur jahon tarixiga qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etib, o'rta asr dunyosining asl madaniy va ma'naviy markazlaridan biriga aylangan, inson aqli va iste'dodining noyob ijodi bo'lib, bugungi kunda ham saqlanib qolgan mislsiz me'moriy obidalar bilan mashhur Samarqandni uning poytaxtiga aylantirgan

atoqli sarkarda va davlat arbobi sifatidagina kirgan emas. Amir Temur olimlar, faylasuflar, me'morlar, shoirlar, hofiz-u mashshoqlarga g'amxo'rlik qilishda ham nom qozongan edi. Temuriylar davri, haqiqatan ham, ilmfan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topishini ta'minlagan Sharq uyg'onish davri edi" [1].

Material va metodlar

Tarixda temuriylar davri deb atalmish Movarounnahr hamda Xuroson xalqlari hayotida iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan ulkan ahamiyat kasb etgan davr, uning asoschisi haqida barkamol asarlar yaratish nafaqat tarixchi-yu faylasuflar, balki adabiyot va san'at vakillari uchun ham bitmas-tuganmas mavzu bo'lib qolmoqda. Agar XX asrning 90-yillariga qadar bu buyuk zot haqida yozilgan badiiy asarlarga nigoh tashlansa, aksariyat hollarda Amir Temur obrazi faqat salbiy jihatdan tasvirlanganini ko'rish mumkin. Faqat tariximizning o'rta asrlariga oid nuqtalarini yaxshi bilgan Abdulla Qodiriy, A. Fitrat, S. Ayniy, Oybek, M. Shayxzoda, M. Osim, O. Yoqubov, P. Qodirov kabi ijodkorlarga Amir Temur siymosini imkoni boricha, ya'ni hukmron

Sho'rolar mafkurasi ko'targanicha ijobiy jihatdan aks ettirishga harakat qildilar. Chunki o'rta Osiyo xalqlari hayotida o'chmas iz qoldirgan Sohibqiron Amir Temur obrazisiz shu zamin tarixi haqida birorta mukammal asar yaratish mumkin emas edi. Shu nuqtayi nazardan jahongir Amir Temur siymosi aks etgan asarlarni quyidagi adabiy tur va janrlarga tasnif etish mumkin:

1. Asarning badiiy-falsafiy g'oyasida Sohibqiron shaxsining olamshumul ahamiyatini ta'kidlashga intilish tamoyili mavjud bo'lgan yirik epik janrlar. Bularga A. Qodiriyning "O'tgan kunlar" va Oybekning "Navoiy" romanlari mansub.

2. Muallif bayoni, qiyosi orqali Amir Temurning nomi va xizmatlarini eslash holatlari mavjud bo'lgan epik asarlar. Bunday o'rinlar Oybekning "Navoiy" romanida ko'zga tashlanadi.

3. Asar qahramonlari nutqida Sohibqiron-ga baho berish hollari uchraydigan yirik epik asarlar. Bunday o'rinlar "O'tgan kunlar"da Yusufbek hoji, "Navoiy" romanida Mo'min Mirzo nutqlarida mavjud.

4. Qahramon xotirasi yoki tushida Amir Temur siymosining zohir bo'lishi tasviri mavjud asarlar. Bunday tasvir O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida uchraydi.

5. Liro-epik va lirik asarlarda Sohibqiron obrazining bevosita tasvirlanishi. Oybekning "Temur" dostoni, A.Oripov va E.Vohidovning ayrim she'rlari bunga misoli bo'la oladi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Yuqorida tilga olingan asarlarning barchasida Amir Temur shaxsiga murojaat etish orqali bevosita tarixga munosabat bildirish ehtiyoji hukmronlik qiladi. Chunki Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy faoliyati Turkiston xalqlari tarixining eng muhim davrini tashkil etadi. Shu bois o'tmishga murojaat etgan aksariyat ijodkorlar Sohibqiron hukmronlik qilgan davrga, uning olamshumul ishlariga biror sabab va ehtiyoj tufayli munosabat bildirganlar. Masalan, Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida faqat

bir o'rindagina Amir Temur nomi tilga olinadi.

Yusufbek hoji Otabekka mansabparastlar haqida gapira turib, Amir Temurni "dohiy" deb ataydi: "O'z naslini kofir quliga tutqun qilib topshiruvchi – biz, ko'r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati, albatta, tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun va Turkistonimizni to'ng'o'zxona qilishga hozirlangan biz itlar Yaratguvchining qahriga, albatta, yo'liqarmiz! Temur Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Ibn Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nash'u namo qilganlari bir o'lkani halokat chuquriga qarab sudraguvchi, albatta, Tangrining qahriga sazovordir, o'g'lim" [2].

Aslini olganda, Yusufbek hoji tilidan aytilgan "dohiy" so'zi A.Qodiriyning Amir Temurga bo'lgan ehtiromini anglatuvchi baho edi. Chunki adib milliy mustaqillik qadrini nozik anglab yetgan va unga erishish uchun Amir Temur kabi dovqur, dono insonlar lozimligini yaxshi bilar edi. Ammo ana shu iftixorli tuyg'uni u ochiq ayta olmas va faqat o'z qahramonlari nutqi orqali ifodalashga majbur edi.

20-yillarda atoqli o'zbek ijodkori Aburauf Fitrat tarixiy drama janrini rivojlantirish uchun katta xizmatlar qildi. Shu yillarda uning "Temur sag'anasi", "Abulfayzxon", "Arslon", "Shaytonning tangriga isyoni" kabi dramalari bosildi [3]. Biz uchun muhimi shundaki, "Temur sag'anasi" dramasi qahramoni Sohibqiron ruhiga murojaat qilib, undan taskin va tasalli izlaydi.

Asarda insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk bu zot obrazi orqali o'sha yillarda kelajagi mubham bo'lib qolgan turkiy xalqlar qismati haqida Amir Temur ruhining bezovtalanganligi ifodalangan. Demak, Fitratning "Temur sag'anasi" dramasi Sohibqiron obrazi orqali davrning dolzarb muammolarini yechish, Vatan va xalqning kelajagini tasavvur qilishga imkon berdi.

30-yillarga kelib siyosiy qatag'onlar boshlandi, o'z tarixini, ilgari o'tgan buyuk siymolarni yaxshi bilgan, ularni qadrlagan eng peshqadam ziyolilar qatag'on qilindi. Shu bois bu yillarda Amir Temur obrazi aks ettirilgan asarlar deyarli yaratilmadi. Faqat 30-yillarning oxirlarida boshlangan Ikkinchi jahon urushigina ijodkorlar uchun tarixiy mavzularga qo'l urishga imkon berdi.

Yirik o'zbek adibi Oybek ijodida Amir Temur obrazi o'ziga xos o'rin egallaydi. Adib "Navoiy" romanining ayrim o'rinlarida Temur saltanatining ulug'vorligi va shuhrati haqida nozik ishoralar berib o'tadi. Romanning bir o'rnida esa u o'zining Amir Temurga bo'lgan ehtiromini yashira olmaydi. Aniqroq qilib aytganda, asirga olingan Mo'min Mirzoni Muzaffar Mirzo oldiga olib kelganlarida, har ikkisi o'rtasida bo'lib o'tgan dialogda bu munosabat ifodalangan [4]:

– Boshqa yo'l ham bor edi, – dedi Muzaffar Mirzo xuddi go'daklar bilan hazillashgan bir tur bilan, – agar sen qilich-sadog'ingni bo'yingga osib, qoshimga o'zing kelsang edi, u chog' mendan marhamat ko'rar eding.

– Men – ulug' Temurning nabirasi! – dedi bola achchig'lanib.

– Qilich-sadoqni bo'yinga osib, dushman-ga tiz cho'kmoq ulug' bobomning ruhiga zo'r haqorat bo'lur edi...

Mo'min Mirzoning Amir Temur haqidagi g'ururi va iftixori nafaqat asar qahramoniga, balki bevosita ijodkorga ham taalluqli ekanligi bizga ma'lum.

Oybek o'z ijodida Amir Temur obraziga qayta-qayta murojaat etadi. U 1941-yilning yozida "Lashkarboshi" nomli dostonini yozishga kirishadi. Bu dostonida o'zbek xalqining buyuk lashkarboshisi Amir Temur obrazini yaratib, u orqali janggohlarda qon to'kayotgan o'zbek jangchilariga madad bermoqchi bo'ladi, ammo bu ijodiy niyatiga erisha olmaydi.

60-yillarning boshlaridan Oybek Amir Temur va temuriylar davri haqida yozilgan tarixiy-memuar adabiyotlarni qayta

o'rganishga kirishadi. Ana shu jarayonda uning qalbida Amir Temur, Alisher Navoiy va Bobur haqida dostonlar yozish g'oyasi tug'iladi. Bu niyatni amalga oshirish borasida u ancha-muncha ishlar ham qiladi. 1968-yil 20-martda Oybek "Guli va Navoiy" dostonini yozib tugatadi [5].

"Sharq yulduzi" jurnalining 1990-yil 10-sonida Oybekning "Temur" dostoniga chizgilari e'lon qilinadi. Bu chizgilarni nashrga tayyorlagan N. Karimovning ta'kidlashicha, adib 1965-yillarda ushbu asarni yoza boshlagan, lekin tugatishga ulgura olmagan, asarning atigi o'n to'rt sahifasigina yozilgan, xolos [6]. Bu narsa shundan dalolat beradiki, hali Sohibqiron Amir Temur nomi ijobiy jihatdan tilga olinishi mumkin bo'lmagan paytlarda ham, uning hayoti va yorqin obrazini aks ettiruvchi asarlar yaratish ishtiyoqi ko'plab ijodkorlarimizning fikr-u xayolini band etgan edi. Birgina Oybek arxiviga murojaat etilsa, uning ijodiy rejalarida Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, u yashagan davr va temuriylar shajarasi haqida roman yozish istagi bo'lib, bu borada u juda ko'p materiallar jamlagan [7]. Arxiv materiallari shundan dalolat beradiki, chala qolgan doston chizgilarida uchta lirik-epik syujetga e'tibor qaratilgan. Birinchisi – bevosita Amir Temur faoliyati, ikkinchisi – Ulug'bek va Xalil Sulton munosabatlari, uchinchisi – Ulug'bekning so'nggi safari kabilardan iborat. Bulardan tashqari, Oybek Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatini yoritish orzusida Samarqanddagi bog'-rog'lar, ulkan qurilishlar tasviriga kam alohida e'tibor qaratadi.

Oybek o'z dostonida Amir Temurni yirik lashkarboshi, buyuk inson, butun dunyo taqdiriga ta'sir ko'rsata olgan hukmdor sifatida tasvirlaydi. Biroq adib Sohibqironning o'limidan so'ng u barpo etgan yirik markazlashgan qudratli saltanat ham parchalanishini tasavvur qilmagan, chunki u buyuk jahongirning ruhi abadiy qolishiga to'la ishonar edi.

Shaxsi va faoliyatining xolis yoritilishi nuqtayi nazaridan Amir Temur Sho'rolar davri o'zbek adabiyotida eng omadsiz qahramon edi. G'arb adabiyotida o'nlab asarlarga ijobiy qahramon bo'lgan Sohibqiron haqida o'z ona yurtida to'g'ri so'z aytish mumkin bo'lmadi. Bunday holat hukmron mafkura tazyiqi ostida hattoki Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojiasida ham ko'zga tashlanadi. Jiddiyroq qaralsa, ana shu yillarda Amir Temur haqida emas, balki umuman temuriylar haqida yozishning o'zi ham jasorat edi. 70-yillarga kelib o'zbek adabiyotida temuriylar tarixini badiiy inkishof etishda jonlanish yuz berdi. Bevosita shu davrda Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini", Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" kabi romanlari yaratildi. Bu adiblar mamlakatda hukm surgan og'ir siyosiy sharoitga qaramay, Amir Temur haqidagi tarixiy haqiqatga juda ham yaqinlashdilar. Bu esa o'zbek badiiy temurnomasi poydevoriga qo'yilgan salmoqli toshlardan biri deb hisoblanishga loyiq.

Amir Temur mavzusi, uning obrazini yaratish bo'yicha lirika janrlariga nazar tashlansa, Sohibqiron haqida badiiy-tarixiy qarashlar asta-sekinlik bilan taraqqiy etganini kuzatish mumkin. Bunday holat sovet davri o'zbek adabiyoti uchun qonuniy bir hol edi. XX asrning 70-yillariga qadar Sohibqironni ijobiy jihatdan badiiy aks ettiruvchi asarlar yozish mumkin bo'lmadi. Aksincha, uning salbiy jihatlari bo'rttirish, ko'plab xalqlar tarixida o'ynagan ijobiy rolini qora bo'yoqlarda aks ettiruvchi asarlar yozish tamoyili kuchaydi. Buning yorqin misoli sifatida rusiy-zabon adib Sergey Borodinning "Samarqand osmonida yulduzlar" nomli trilogiyasini keltirish mumkin.

To'g'ri, asar soxta sotsialistik realizm ijodiy metodi asosida o'rta asrlardagi Movarounnahr va Xuroson xalqlari tarixi haqida yozilgan ilk epopeyadir. Adibning asosiy maqsadi o'sha davrlar tarixiy voqeligini badiiy aks ettirish vositasida Amir Temurning

mafkuralashtirilgan obrazini yaratishdan iborat edi. Shu maqsadda yozuvchi Amir Temur va temuriylar davriga oid ko'plab ilmiy manbalar, Yevropa va rus olimlarining tadqiqotlari hamda xotiralari bilan tanishib chiqdi. Lekin romanning ko'p o'rinlarida u bu buyuk siymoning hayoti va faoliyatini tasvirlashda tarixiy haqiqatga zid yo'ldan bordi. Shu sababli Sergey Borodin yaratgan Amir Temur shaxsiyati va uning badiiy talqini hozirgi o'zbek kitobxonini qoniqtira olmaydi. Chunki yozuvchi Amir Temur shaxsiyati va faoliyatining juda ko'p qirralariga faqat salbiy yondashgan.

Asarda Sohibqironning bosqinchi, qonxo'r va shafqatsiz hukmdor sifatidagi qiyofasi yetakchilik qiladi. Sergey Borodin Amir Temurni yirik sarkarda, fozil, qattiqqo'l hukmdor darajasidan johil va bosqinchi darajasiga tushirib tasvirlaydi. Bunday tasvir buyuk tarixiy shaxs, ulkan hukmdor, benazir sarkarda, ilm-fan va san'at homiysi Amir Temurga nisbatan adolatsizlikdan boshqa narsa emas [8].

Temur va temuriylar davriga nisbatan O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, munosabat butunlay o'zgardi. Chunki istiqloq bizga Amir Temur va umuman tariximiz haqida erkin fikr yuritish, tarixiy haqiqatni ro'y-rost ko'rsatib berishga imkoniyat yaratib berdi. Natijada Amir Temur va u haqida yangi-yangi asarlar paydo bo'la boshladi. Bevosita Sohibqiron Amir Temur haqida ko'plab ilmiy, she'riy va nasriy asarlar yaratilishi xalqimizning milliy uyg'onishidan dalolat beradi.

A. Oripov, M. Jalil, B. Ahmedov, O. Bo'riyev, Muhammad Ali, To'ra Mirzo, Y. Berizikov, O. Yoqubov singari adib-u shoirlar Sohibqiron hayoti, uning qudratli davlat qurish yo'lidagi tinimsiz kurashlarini aks ettiruvchi asarlar yaratdilar. Garchi bu asarlar turlicha badiiy saviyada bo'lsa-da, biroq ular uzoq yillar adabiyotimizda oq dog' bo'lib kelgan bo'shliqlarni to'ldirishlari barobarida yosh avlodni Vatanni qadrlashga, o'z xalqini sevisish va ardoqlashga o'rgatadi.

Ana shunday asarlardan biri tarixshunos Bo'riboy Ahmedovning "Amir Temur" roman-xronikasidir [9]. Asar o'zining janr mansubiyati nuqtayi nazaridan tarixiy manbalarga, ma'lumotlarga boyligi, tilining sodda va xalqchilligi, ilmiy tahlil bilan badiiy tahlilning teran uyg'unligi jihatidan alohida ajralib turadi. Asarda tasvirlanayotgan har bir voqea aniq tarixiy manbaga asoslanadi. Muallif Temurning juda ham serqirra hayoti va faoliyatidan bir yo'nalishni ajratib olib, badiiy xarakter yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan. U Sohibqironning butun hayoti va faoliyatini keng qamrab olib, ana shunday keng miqyosda badiiy tadqiq qilishga bel bog'lagan.

Roman "Ulusdagi beqarorlik", "El-yurtning emnu omonligi deb" va "Jahongirlik qismati" deb nomlangan uch qismdan tashkil topgan. Muallif Amir Temur obrazini bosqichma-bosqich shakllantirib boradi. Dastlab uning yoshlik yillari, keyin yigitlik davri, xullaski, to balog'atga yetish pallalarigacha hayotning o'nqir-cho'nqir yo'llaridan, girdobli kechuvlaridan olib o'tadi. Xuddi mana shu davrda bo'lajak jahongirning uzoqni ko'ra bilish qobiliyati shakllanadi. U dushman ichida yurib, o'ziga tarafdorlar orttiradi, ularda Turonzamin ozodligiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Romanda badiiy to'qima bo'lmasa, birgina tarixiy ma'lumotlarning o'zidagina kitobxonni hayajonga soladigan, bosh ko'tarmay o'qiydigan asar yozish juda qiyin. Lekin Bo'riboy Ahmedov tarixiy ma'lumotlarni shunday qiziqarli badiiy voqealar darajasiga ko'tarib tasvirlaydiki, buning natijasida asardagi ana shu faktlarning tarixiy ma'lumotligi kitobxonning xayoliga ham kelmaydi. Romanning qimmatli jihatlaridan yana biri shundaki, unda voqealarning tasviri aniqligidan tashqari yuz bergan sanalari ham aniq beriladi. Shu jihati bilan asar Amir Temur hayoti bilan qiziquvchi kishilar uchun noyob manba, qimmatli qomus vazifasini ham o'taydi.

B.Ahmedov ushbu romanini yaratishda Sohibqiron shaxsi va uning davriga oid

yuzlab arab, fors-tojik va turkiy tillardagi tarixiy, ilmiy-badiiy asarlarni o'rganadi. Romanda Amir Temur o'z ona yurti Turkistonni, o'z xalqini chin yurakdan sevgan vatanparvar, el-yurt manfaati uchun jon fido qiluvchi, din va iymonda sobitqadam komil inson sifatida tasvirlanadi. B. Ahmedov Amir Temur obrazini yaratar ekan, uning hayot yo'lini, maqsad-intilishlarini odilona, eng asosiysi, xolisona ta'riflaydi. Shu bois Amir Temur obrazi asarda buyuk sohibqiron, yirik davlat arbobi, mashhur sarkarda bo'lishi barobarida oilasiga mehribon, farzand va nabiralariga g'amxo'r va talabchan inson sifatida gavdalandirilgan.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, Bo'riboy Ahmedovning "Amir Temur" romani qariyb yarim asrlik tarixiy davrni o'z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun akademik Izzat Sulton romanini "badiiylashtirilgan tarix" deb baholaydi [10]. Buning mohiyati shundaki, romandagi barcha voqealar, personajlar, makon va zamon – aniq tarixiy asosga ega bo'lib, unda ijodkor tomonidan kiritilgan badiiy to'qima uchramaydi. Shunga qaramay, roman o'quvchini o'ziga jalb qila oladi. Buning sababi shundaki, Amir Temur hayotining har bir lahzasi, u amalga oshirgan ulug'vor ishlar, jang-u jadallar har qanday badiiy xayolotni ortda qoldirar darajada qiziqarlidir. Demak, romanga o'quvchini jalb qiluvchi narsaning o'zi asarga asos bo'lgan materialning – "xomashyoning" qiziqarligidadir, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Amir Temur o'zi asos solgan ulkan davlatning yagona hokimi bo'lishiga qaramay, iymoni baquvvat muslim sifatida din va shariat peshvolari bilan hisoblashadi, pirlari Sayyid Baraka, Shamsiddin Kulol, Zayniddin Abubakr Tayabodiyllarning maslahatlariga amal qiladi. Shu tariqa romanda Amir Temurning haqqoniy obrazi yaratiladi.

Bo'riboy Ahmedovning "Amir Temur" romani hayotiy haqiqatni o'zida mujassam etgan badiiy asar ekanligi bilan istiqlo

davri o'zbek temurnomasiga ulkan ulush bo'lib qo'shildi. Roman Amir Temurning jo'shqin xayot yillarini, Turonzaminda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni badiiy jihatdan aks ettirishi bilan qimmatlidir. Shu bilan birga, ushbu asar o'zbek temurnomasi

tarixida olg'a tashlangan bir qadamdir [11]. Xulosa qilib aytganda, Bo'riboy Ahmedovning "Amir Temur" romani Amir Temurning ko'p qirrali hayoti va faoliyatini aks ettirish jihatidan istiqlool davri o'zbek temurnomasida o'ziga xos mustaqil aytilgan badiiy bir so'zdir.

REFERENCES

1. Karimov I. O'tmishsiz kelajak, hamkorliksiz taraqqiyot bo'lmaydi [There is no future without the past, no development without cooperation]. Tashkent, Uzbekiston, 1996, pp. 332–333.
2. Qodiriy A. Ro'monlar. O'tkan kunlar [Novels. Last days]. Tashkent, Sharq, 1995.
3. Ganiyev I.M. Fitrat dramalari poetikasi. DDA. Tashkent, 1998, pp. 14–16.
4. Oybek. Mukammal asarlar to'plami [A perfect collection of works]. Tashkent, Fan Publ., 1976, vol. 6, p. 102.
5. Oybek. Mukammal asarlar to'plami [A perfect collection of works]. Tashkent, Fan Publ., 1976, vol. 4, pp. 67–97.
6. Karimov N. Oybekning "Temur" dostoniga chizgilar [Drawings on Oybek's epic "Temur"]. *Sharq yulduzi – Eastern star*, 1990, no. 10.
7. Oybek. Mukammal asarlar to'plami [A perfect collection of works]. Tashkent, Fan Publ., 1976, vol. 13, pp. 367–374.
8. Abdusamatov X. Tarix va badiiy talqin [History and artistic interpretation]. Tashkent, Adabiyot va sanat Publ., 1995, p. 183.
9. Axmedov B. Amir Temur (Tarixiy roman) [Amir Temur (Historical novel)]. Tashkent, Meros Publ., 1995.
10. Izzat Sulton. Tarix va zamonaviylik [History and modernity]. Tashkent, Guliston Publ., 1981, no. 1.
11. Rasulmuxamedova D.T. O'zbek adabiyotida tarixiy shaxs talqini [Interpretation of historical figures in Uzbek literature]. *O'zMU xabarlari – News of the National University of Uzbekistan*, 2020, no. 1/6, p. 250.
12. Rasulmuxamedova D.T. Amir Temur obrazini yaratishda tarixiy rivoyatlarning o'rni [The role of historical legends in the creation of the image of Amir Temur]. *Til va adabiyot ta'limi – Language and literature education*, 2020, no. 1, pp. 24–26.
13. Rasulmukhamedova D.T. Problemy vossozdaniia obraza Amira Temura v Uzbekskoi dramaturgii perioda nezavisimosti [Problems of re-creation of the image of Amira Temura in Uzbek dramaturgy during the period of independence]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2000.
2. Rasulmukhamedova D.T. Obraz Amira Timura v sovremennoi uzbekskoi proze [The image of Amir Timur in modern Uzbek prose]. XV Vinogradov Readings. Collection of scientific articles of the International scientific-practical conference. 2019, no. 12, vol. 2, pp. 146–150.
3. Amir Temur as an outstanding personality. *Theory And Practice Of Science: Key Aspects*. Italy, Rome, 2021, February 19–20, pp. 666–674.

UDC: 34(042)(575.1)

“YURISPRUDENSIYA” YO‘NALISHIDA TAYYORLANAYOTGAN ILMIY MAQOLALARNING JANR-KOMPOZITSION TAHLILI

Saloyeva Hilola Ravshan qizi,
“Ilm-fan va innovatsion rivojlanish”
ilmiy jurnali bosh muharriri
e-mail: Saloeva.hilola@mail.ru
ORCID: 0000-0003-0981-8565

Annotatsiya. Tadqiqot davomida “yurisprudensiya” yo‘nalishi bo‘yicha tahririyatga taqdim etilgan ilmiy maqolalarning janr-kompozitsion jihatlari o‘rganib chiqildi. Mualliflarning maqola yozish ko‘nikmalarini oshirish orqali ilmiy maqolalarning sifat ko‘rsatkichlarini ko‘tarish hamda xalqaro ma‘lumotlar bazalari tarkibidagi ilmiy jurnallar talablariga mos holda rasmiylashtirib, ularda maqolalar chop etish ilmiy ishning asosiy maqsadi qilib olindi. Ilmiy maqolalar uch bosqichdan – plagiatga tekshiruv, texnik va ilmiy ekspertizadan o‘tkazildi. Har bir maqolaning janr-kompozitsion jihatlari, tizimli-semantik, sintaktik va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari o‘rganildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, ular asosida tahririyatga taqdim etiladigan maqolalarga qo‘yiladigan talablar hamda ekspert xulosasi ishlab chiqildi. Ilmiy maqolani mazkur talablar asosida rasmiylashtirishda mualliflar yo‘l qo‘yayotgan asosiy kamchiliklar o‘rganildi va ularni bartaraf etish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Ilmiy maqola janri va tur-lariga ta‘rif berildi. “Yurisprudensiya” yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy maqolalarni yozish va rasmiylashtirishni o‘rgatish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ishlab chiqish, shuningdek, akademik yozuv ko‘nikmalarini o‘rgatish bo‘yicha o‘quv seminar-treninglar o‘tkazish zaruriyati mavjudligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: “yurisprudensiya” yo‘nalishidagi ilmiy maqola, ilmiy maqola janri, tahliliy maqola, plagiat, ilm-fan, kompozitsiya, ilmiy maqola tarkibiy qismlari, ilmiy ekspertiza, texnik ekspertiza.

ЖАНРОВО-КОМПОЗИЦИОННЫЙ АНАЛИЗ НАУЧНЫХ СТАТЕЙ, ПОДГОТОВЛЕННЫХ ПО НАПРАВЛЕНИЮ “ЮРИСПРУДЕНЦИЯ”

Салоева Хилола Равшан кизи,
главный редактор научного журнала
«Наука и инновационное развитие»

Аннотация. В ходе исследования были изучены жанр и композиция научных статей, представляемых в редакцию по направлению “юриспруденция”. Основными целями исследования являются повышение качества научных статей за счет улучшения навыков письма авторов, а также публикация статей в соответствии с требованиями научных журналов в международных базах данных. Научные статьи проверялись в три этапа: плагиат, техническая и научная экспертиза. Исследовались жанрово-композиционные аспекты, системно-семантические, синтаксические и коммуникативно-прагматические особенности каждой статьи. По результатам исследования были разработаны требования к статьям, представляемым в редакцию, а также экспертное заключение к статьям. Изучены основные ошибки, допускаемые авторами при оформлении научных статей на основе разработанных требований, и выработаны рекомендации по их устранению. Представлены

определения понятиям жанра и видов научной статьи. Выявлена необходимость разработки учебного пособия по обучению написанию и оформлению научных статей по направлению “юриспруденция”, а также проведения семинаров по обучению навыкам академического письма.

Ключевые слова: научная статья в области “юриспруденция”, жанр научной статьи, аналитическая статья, плагиат, наука, композиция, составные части научной статьи, научная экспертиза, техническая экспертиза.

GENRE-COMPOSITIONAL ANALYSIS OF SCIENTIFIC ARTICLES, PREPARED UNDER THE DIRECTION OF “JURISPRUDENCE”

Saloeva Khilola Ravshan Kizi,

Editor-in-Chief of a Scientific Journal
“Science and Innovative Development”

Abstract. In the course of the study, the genre and composition of scientific articles submitted to the editorial office in the direction of “Jurisprudence” are studied. The main objectives of the study are to improve the quality of scientific articles by improving the writing skills of authors, as well as publishing articles in accordance with the requirements of scientific journals in international databases. Scientific articles have been checked in three stages: plagiarism, technical and scientific expertise. Genre-compositional aspects, system-semantic, syntactic and communicative-pragmatic features of each article have been studied. Based on the results of the study, requirements for articles submitted to the editorial board, as well as an expert opinion for articles are developed. The main mistakes made by the authors in the design of scientific articles based on the developed requirements are studied and recommendations for their elimination are developed. Definitions of the concepts of genre and types of scientific articles are presented. The necessity of developing a textbook on teaching writing and designing scientific articles in the direction of “Jurisprudence”, as well as conducting seminars on teaching the skills of academic writing, has been identified.

Keywords: scientific article in the field of “jurisprudence”, genre scientific article, analytical article, plagiarism, science, composition, composition of scientific articles, scientific expertise, technical expertise.

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekistonda mam-lakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning rolini kuchaytirish, fan bilan ish-lab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish, ta'lim tizimini rivojlantirish va yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ilm-fanning bar-cha sohalari bo'yicha fundamental, amaliy, innovatsion tadqiqotlar, shu jumladan yosh olimlarning ilmiy natijalarini ommalashtirish bo'yicha izchil va rejali ishlar amalga oshi-rilmoqda. Oliy o'quv yurtlari professorlari, tadqiqotchilari, doktorantlari, magistrantlari va talabalarining yuqori impakt-faktorga ega bo'lgan nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda ma-qolalar chop ettirishi bo'yicha muayyan cho-ralar ko'rilmogda.

Web of Science va Scopus xalqaro ma'lu-motlar bazalarida indekslanadigan xorijiy jurnallarda O'zbekiston olimlari tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar soni ortib borayot-ganiga qaramay, ba'zi maqolalarning sifati hali ham talab darajasida emas. Ilmiy maqola janri va turlari nazariy jihatdan o'rganilma-ganligi, mazkur mavzuga oid adabiyot, o'quv qo'llanma va yo'riqnomalarning tom ma'no-da yo'qligi, talaba, doktorant va olimlar il-miy maqola yozishda nazariy bilimlarga ega emasligi tufayli ilmiy maqolalar zamonaviy talab darajasida yozilmayotganligi, sifat jihat-dan orqada qolayotganligi buning asosiy sa-babidir.

Bu esa O'zbekistonda ilmiy jurnallarga taqdim etilayotgan, jumladan, “yurispruden-siya” yo'nalishi bo'yicha tayyorlanayotgan

ilmiy maqolalarning janr-kompozitsion jihat-lari, turlari, ilmiy apparatga amal qilinishi, tizimli-semantik, sintaksis va kommunika-tiv-pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish va olingan natijalar asosida ilmiy maqolalarni tayyorlashda yo'l qo'yilayotgan asosiy kam-chiliklarni bartaraf etishni taqozo etadi. Il-miy jurnallarga taqdim etilayotgan ilmiy maqolalarni talab darajasida rasmiylashti-rish uchun ularga qo'yiladigan talablarni ish-lab chiqish, zamonaviy jurnalistikada ilmiy maqolaning o'rni va ahamiyatini tadqiq et-gan holda, janri va turlarini nazariy jihatdan o'rganish asosida metodik qo'llanma yaratish hamda amaliyotga joriy etish orqali ilmiy jur-nallar, xususan, ilmiy maqolalar saviyasi va sifatini oshirishga erishish mavzuning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Ilmiy maqola janri M. Davis [2], R.A. Day, B. Gastel [3], A.G. Gross, J.E. Harmon, M. Reidy [4], J. Hartley [5] kabi xorijiy tadqiqot-chi olimlarning asarlarida nazariy jihatdan o'rganilgan. Bu olimlarning ilmiy ishlarida ilmiy maqolaning zamonaviy ko'rinishi, ya'ni tarkibiy qismlari haqida, shuningdek, ilmiy maqolani yozishda qo'llaniladigan akademik – ilmiy uslub to'g'risida so'z boradi.

Mazkur mavzu rossiyalik tadqiqotchilar I.V. Sviderskaya, V.A. Kratasyuk [6], Y.I. Arxi-pova, O.A. Kazakova [7], A.B. Ponomarev [8], A.M. Novikov, D.A. Novikov [9], E.O. Sidorova [10], I.N. Kuznetsov [11] asarlarida ham o'rganilgan.

E.I. Arxipova va O.A. Kazakovaning ta'kid-lashicha, ilmiy diskurs matnlarining, shu jum-ladan ilmiy maqolalarning bazaviy va alohida tavsiflari ilmiy va o'quv adabiyotlarda ancha keng yoritilganiga qaramay, ilmiy maqola janri hanuzgacha kompleks tadqiq etilmagan. Bu zamonaviy ilmiy diskursda "ilmiy maqola" tushunchasi chegaralarining yo'qolib ketgan-ligi bilan bog'liq [7, 263-b.]. Shuningdek, bu holat o'rganilayotgan mavzu bo'yicha mate-rialning kamligini ham izohlashi mumkin.

A.B. Ponomarevning ishida ilmiy tadqiqot-lar metodologiyasining asoslari, ilmiy-tad-

qiqot ishlarini o'tkazishning bosqichlari, jumladan tadqiqot yo'nalishining tanlanishi, ilmiy-texnik muammoning qo'yilishi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'tkazilishi, ilmiy ish natijalarini rasmiylashtirish yuzasi-dan tavsiyalar bayon etilgan bo'lib, ilmiy bi-lishning turli darajalari ko'rib chiqilgan [8].

E.O. Sidorova o'z ishida ilmiy maqola-ni yozishning nazariy uslubiy asoslarini ba-yon etgan, xususan, ilmiy maqolaning tuzi-lishi va turlarini keltiradi, uni rasmiylashti-rish tartibini batafsil tavsiflaydi, shuningdek, ilmiy maqolaning kompozitsion qismlariga to'xtalib o'tadi [10].

Chet ellik olim va mutaxassislar tomoni-dan ilmiy maqola janri, uning tahliliy jur-nalistikadagi o'rni va kompozitsion tuzilishi nazariy jihatdan tadqiq etilgan bo'lsa-da, mahalliy olimlar tomonidan bu mavzular de-yarli o'rganilmagan, darslik, o'quv qo'llan-ma va adabiyotlar yaratilmagan. Asosan, o'quv qo'llanmalarda tahliliy janrlar, maqo-la janriga ta'rif va tavsif berib o'tiladi, ilmiy maqola ilmiy jurnallarda chop etilishi qayd etiladi, xolos. Ba'zi o'quv qo'llanmalarda "ilmiy-ma'rifiy" maqolaning o'ziga xos xusu-siyatlari haqida so'z yuritilgan, biroq "ilmiy maqola" janri va turlari, uning zamonaviy talqini va kompozitsiyasi xususida ma'lumot berilmagan [1, 131–137-b.]. Shulardan kelib chiqib, mazkur mavzu dolzarb sanaladi ham-da bugungi kunda uni chuqurroq o'rganish va tadqiq etishni talab etadi.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida Innovatsion rivojla-nish vazirligining "Ilm-fan va innovatsion rivojlanish" ilmiy jurnalida 2018–2021-yil-larda, shuningdek, Toshkent davlat yuridik universitetining "Yuridik fanlar axborotno-masi", "Yurisprudensiya" ilmiy-amaliy jur-nallarida 2020–2021-yillar davomida "yuris-prudensiya" yo'nalishi bo'yicha nashr etilgan ilmiy maqolalar tadqiq etildi. Maqolalar janr, tur va kompozitsion jihatdan o'rganib chiqil-di, mantiqiy va akademik uslub tamoyillari hamda semantika, pragmatika va ritorika

qonun-qoidalarini asosida tahlil qilinib, tegishli yakuniy xulosalar olindi. Tadqiqot davomida ilmiy maqolalarga qo'yiladigan talablar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Mazkur ilmiy ish natijalari "Ilmiy maqola janri, uning turlari va kompozitsion tuzilishi" deb nomlangan o'quv qo'llanma sifatida chop etilishi rejalashtirilgan.

Tadqiqot davomida masalaga oid manbalarni o'rganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat, savol-javob o'tkazish, nazariy-qiyosiy tahlil, statistika, taqqoslash, induksiya va deduksiya, umumlashtirish, kontent-analiz, tizimli-semantik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida 2018–2021-yillar davomida "yurisprudensiya" yo'nalishida tayyorlangan va tahririyatga taqdim etilgan ilmiy maqolalar tadqiq etildi. Maqolalar uch bosqichda tekshirildi.

Birinchi bosqichda maqolalar o'zlashtirmalar va plagiat mavjudligini aniqlovchi avtomatlashtirilgan dastur orqali tekshirildi. Plagiat aniqlangan taqdirda, maqola muallifga qaytarildi. Matnda o'zlashtirmalar, boshqa manbalarga iqtiboslar keltirish darajasi 65 foizdan yuqori bo'lgan maqolalar qabul qilindi.

Ikkinchi bosqichda qabul qilingan maqolalar tahrir hay'ati a'zolariga – ilmiy ekspertlarga ilmiy ekspertizadan o'tkazish uchun yuborildi. Maqolalar mualliflarini ko'rsatmagan holda, ya'ni anonim tarzda ilmiy ekspertizadan o'tkazildi, ilmiy ekspertlarning xulosalari ham mualliflarga ekspertlarning shaxsi ko'rsatilmagan holda yuborildi, ya'ni ekspertizadan o'tkazishning eng mukammal va to'g'ri "double-blind peer review" usuli qo'llanildi.

Ilmiy ekspertlar o'z xulosalarini qayd etishlari uchun maxsus jadval ishlab chiqildi.

Ushbu jadval maqolaning talablar asosida to'g'ri rasmiylashtirilganini aniqlash

va maqolalarni ko'rib chiqish vaqtini qisqartirish maqsadida ishlab chiqildi hamda ilmiy maqola kompozitsiyasiga qo'yilgan barcha talablarni o'z ichiga qamrab oldi. Mazkur jadval ekspertlarga yuborilgandan so'ng maqolalarni ko'rib chiqish muddati 3-4 kunga qisqartirildi. Bundan avval maqolalar ko'rib chiqish muddati 14 kun deb belgilangan bo'lsa, endi bu muddat 10 kunni tashkil qiladi. Amalda esa maqolalarga ekspert xulosalari uzog'i bilan 4-5 kunda yuborilyapti. Bu tadqiqot davomida ishlab chiqilgan jadvalning yuqori samaradorligini belgilaydi.

Uchinchi bosqichda texnik ekspertiza o'tkazildi. Ekspert xulosalariga ko'ra tavsiya etilmagan maqolalar mualliflarga qaytarildi, qayta tuzatish kerak bo'lgan maqolalar qayta to'g'rilash uchun yuborildi, qabul qilingan maqolalar nashr uchun qabul qilindi.

Bu jarayonda qabul qilingan va qayta tuzatish uchun yuborilgan maqolalar bosh muharrir tomonidan ham ko'rib chiqildi va maqolaning janr-kompozitsion xususiyatlari tahlil qilindi. Maqolaning kompozitsiyasida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, mualliflarga ekspert xulosasiga qo'shimcha ravishda og'zaki yoki yozma tushuntirishlar berildi. Ya'ni texnik ekspertizada maqolaning kompozitsiyasi (tarkibiy qismlari) talablarga moslab to'g'ri rasmiylashtirilgani tekshirildi.

Texnik ekspertizaning uchinchi bosqichda o'tkazilishi ko'p vaqt talab etdi va yetarlicha samara bermadi. Ekspertlarga yuboriladigan jadval (qarang: 1-jad.) ilmiy maqolalarga qo'yilgan talablarga kiritilgandan so'ng maqolalar talablarga moslab yuborildi. Natijada birinchi bosqichda maqolalar texnik ekspertizadan o'tkazila boshlandi – maqolaning kompozitsiyasi, talablarga moslab berilishi birinchi bosqichda tekshirildi. Tahririyatga kelib tushayotgan maqolalar talablarga moslanmagan taqdirda, qaytarildi.

1-jadval*

"Yuridik fanlar axborotnomasi" ilmiy jurnalida chop etish uchun taqdim etilgan maqolaga ekspert xulosasi				
Maqolaning nomi _____				
hajmi _____ bet, _____ tili				
Baholash mezonlari	Baholash natijalari			
	Talabga javob beradi	Qayta ishlash lozim	Talabga javobga bermaydi	Qo'shimcha takliflar
1. Kirish 1.1. Mavzuning dolzarbligi. 1.2. Maqolaning aniq maqsadi va yechilishi lozim bo'lgan masalani asoslash. 1.3. Maqolada qo'yilgan masalani yechishga boshqa mualliflar qanday yondashgan, ular qaysi usullarni qo'llagan va b. (adabiyotlar tahlili).				
2. Material va metodlar 2.1. Olib borilgan tadqiqotning batafsil mazmuni. 2.2. Qo'llanilgan metodlar, metodologiya va tadqiqot obyektlarini asoslash.				
3. Tadqiqot natijalari 3.1. Tadqiqot obyektni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi tahlili (maqolaga qo'yilgan masalani yechishga asos bo'ladigan ma'lumotlar doirasida) va xulosalar. 3.2. Olingan ilmiy-amaliy natijalar, ularning samaradorligi va haqqoniyligi tahlili.				
4. Tadqiqot natijalari tahlili 4.1. Muallif faktlarni tahlil qiladi, o'z fikrini asoslaydi, qaysilarini ma'qullab, qaysilarini inkor etishini aytib o'tadi va fikrlarini izohlaydi. 4.2. Tadqiqot davomida yuzaga kelgan, ilm-fan doirasidagi to'siq va muammolar tahlili. 4.3. Turli metodlarning tahlili, mazkur tadqiqot natijalarini boshqa tadqiqot natijalari bilan solishtirish.				
5. Xulosalar 5.1. Muallif tadqiqoti natijalaridan kelib chiquvchi xulosa va takliflar.				
Eslatma! Tadqiqotda mavzuga oid qonunchilik hujjatlaridan, statistik ma'lumotlardan, matematik usullar va modellardan, natijalarni izohlashda diagramma va grafiklardan foydalanish tavsiya etiladi.				

Xulosa: _____

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ilmiy maqola chop etishga (aniq ko'rsatilishi shart):

o tavsiya etiladi.

o tavsiya etilmaydi.

o qayta ishlangandan keyin tavsiya etiladi.

Taqrizchi: _____

Ilmiy daraja va unvoni _____ F.I.Sh. _____

*Muallif ishlanmasi.

Natijada tahririyat ishi tartibga solindi. Avvaliga 50 ta maqolaning hammasi plagiatdan, ilmiy ekspertizadan o'tkazilgan bo'lsa, endilikda 50 ta maqoladan 20 tasi qabul qilinib, 30 tasi birinchi bosqichda – texnik ekspertizaning o'zida mualliflarga qaytarildi (son ko'rsatkichlari o'rta hisobda olingan).

Biroq ilmiy maqola yozayotgan mualliflar talablarni to'g'ri tushunmasligi oqibatida tayyor maqolaga tarkibiy qismlarning nomlarini yozib qo'yish, *tahliliy maqola* matnini qismlarga bo'lib chiqish holatlari kuzatildi. Bu esa ilmiy maqola tushunchasiga ta'rif berilishi, janrlar tavsifini ishlab chiqish lozimligini anglatadi. Shularni inobatga olgan holda, tadqiqot davomida ilmiy maqola janri va turlariga ta'rif ishlab chiqildi.

2-jadval

Ilmiy maqola turlari

Ilmiy maqola – bu ilmiy usullar yordamida olib borilgan tadqiqotning asosiy natijalarini o'z ichiga olgan ish.

Empirik maqola – original tadqiqot natijalarini keltirish.

Maqola matni o'tkazilgan tadqiqot bosqichlariga mos bo'lishi kerak.

Nazariy maqola. Bunda mavjud adabiyotlar negizida yangi nazariy tushunchalar, qoidalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bu kabi maqolalar:

– nazariyaning rivojlanish tahlili va nazariy konstrukt (ilmiy tahlil va umumlashma)larning tafsilotlariga;

– yangi nazariyani taqdim etishga;

– mavjud nazariyaning tahliliga (masalan, uning kamchiliklarini ko'rib chiqishga);

– bir qancha nazariyalarni solishtirish, birining ikkinchisi oldidagi afzallik jihatlarini ochib berishga bag'ishlanishi mumkin.

Bu kabi maqolalarning tuzilishi mazmunidan kelib chiqadi.

Empirik ma'lumotlar nazariy muammo yechimi uchun zarur bo'lgan taqdirdagina maqolaga kiritiladi.

Metodologik maqolada:

– yangi metodologik yondashuv;

– mavjud metod modifikatsiyasi;

– ilmdagi miqdoriy va tahliliy yo'nalishlar muhokama qilinadi.

Metodologik maqola batafsil yozilishi kerak, zero, unda keltirilgan metodologiya o'quvchi tomonidan

baholanadi, boshqa metodologiyalar bilan solishtirilib, afzallik jihatlarini aniqlanadi.

Adabiy tahlil – ilgari chop etilgan tadqiqot natijalarini taqdim etish.

Bu kabi maqolalar quyidagilarni o'z ichiga qamrab olishi kerak:

– muammoning qo'yilishi (uning tavsifi va ta'rifi);

– ilgari tadqiqotlar mazmuni;

– asosiy xulosalar, adabiyotlardagi mavjud qarama-qarshiliklar;

– ushbu muammoni bartaraf etish bo'yicha takliflar.

Mavzuga oid tadqiqot – jamiyatdagi ma'lum bir holat, jarayon bo'yicha hisobot, olib borilgan tadqiqot.

Bu turdagi maqola quyidagi jihatlarini qamrab oladi:

– aniqlangan muammoning tavsifi;

– aniqlangan muammoni hal etish usullarini tahlil qilish;

– ma'lum bir sohada tadqiqotlar olib borish zaruriyatini isbotlash;

– mavjud nazariy qiyinchiliklarni tahlil qilish.

Mavzuga oid tadqiqotlar mualliflari tavsiflarni batafsil keltirish jarayonida maxfiylikka rioya qilish zaruriyatini esdan chiqarmasliklari lozim.

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy maqola turlarida akademik uslub qo'llaniladi. Tahliliy, ommabop maqolalarni yozishda esa publitsistik uslub qoidalari ishlatiladi. Tahliliy va ommabop maqolalar ilmiy jurnallarga taqdim etilmaydi va ilmiy tadqiqotlarni qog'ozga tushirishda bu janr turidan foydalanilmaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Olib borilgan ilmiy ish davomida "yurisprudensiya" yo'nalishida nashr etilayotgan ilmiy maqolalar uch bosqichdan iborat ekspertiza jarayonlaridan o'tkazildi. Natijada maqolalarni ilmiy ekspertizadan o'tkazish muddati qisqartirildi va tahririyatga kelib tushayotgan maqolalar sifati oshdi. Ya'ni tadqiqot davomida ishlab chiqilgan maqolalarga qo'yiladigan talablarga mos ravishda maqolalar tayyorlana boshlandi. Ushbu talablar xalqaro ma'lumotlar bazalari tarkibidagi jurnallar talablariga mos holda ishlab chiqildi.

Shuningdek, maqolalar janr-kompozitsion jihatdan tahlil qilinganda, shu narsa aniqlandiki, ilmiy maqolani tahliliy va publitsistik maqoladan ajrata olmaslik oqibatida maqola-

ni talablarga moslash mualliflar uchun qiyinchilik tug'diryapti. Bu holat inobatga olinib, ilmiy maqola turlarining tavsifi ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida "yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan ilmiy maqolalarni tadqiq etish va tahlil qilish natijasida quyidagi nomuvofiqliklar aniqlandi:

1. Janrlarga noto'g'ri ajratish va til vositalarini noto'g'ri tanlash:

ilmiy maqola janr va turlari orasidagi farq anglashilmaydi: tahliliy va publitsistik maqolalar ilmiy maqola sifatida qabul qilinadi (ilmiy maqola yuqoridagi maqolalardan farqli o'laroq, qat'iy ravishda fundamental va empirik tadqiqotlar natijalari bo'yicha yozilishini tushuntirish lozim);

bayon etishning so'zlashuv, sodda (oddiy) til, ba'zan dialektal leksika bilan tavsiflanadigan publitsistik uslubi qo'llaniladi;

ilmiy matnlarda hissiy va ekspressiv yo'g'rilgan konstruksiyalar: undov gaplar, ritorik savollardan, shuningdek, takrorlashlar, tautologiya va pleonazmdan foydalaniladi;

akademik yozuv ko'nikmalari mavjud emas.

2. Ilmiy maqolaning tuzilishi va kompozitsion elementlarini to'g'ri rasmiylashtirmaslik:

maqolalar lozim tarzda shaklga solinmaydi (buni ilmiy maqola yozish ko'nikmalarining mavjud emasligi bilan izohlash mumkin);

ilmiy maqolaning annotatsiya, kirish, materiallar va metodlar, tadqiqot natijalari, tadqiqot natijalari tahlili, xulosalar, shuningdek, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kabi kom-

pozitsion elementlari to'g'ri rasmiylashtirilmaydi;

fikrlarni bayon etishda chalkashlik, mantiqiy bog'lanmagan xatboshilar mavjud bo'lib, maqola ilmiy apparatining umumiy buzilishiga olib keladi.

Xulosalar

Ushbu tadqiqot natijalari "yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalarni tayyorlayotgan mualliflar yozish ko'nikmalarini oshirishlari, shuningdek, ilmiy maqola janri va ilmiy maqolaning kompozitsion elementlari borasidagi bilimlarini chuqurlashtirishlari zarurligini ko'rsatdi. Mualliflar kerakli adabiyotlarni o'rganib chiqishi, ushbu yo'nalishdagi seminarlar va treninglarda muntazam ravishda ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida maqolalarni bosqichma-bosqich tekshirish tizimi ishlab chiqildi – maqolalar mualliflari bilan yakka tartibda ishlashni o'z ichiga olgan texnik va ilmiy ekspertizalar o'tkazildi. Shuningdek, ilmiy ish natijasida quyidagi tavsiyalar taklif etildi:

1. Tahririyat siyosati orqali talablarga javob bermaydigan maqolalarning qabul qilinishini qat'iy cheklash.

2. "Yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar yozish va rasmiylashtirishni o'rgatish uchun tezkor ravishda uslubiy qo'llanma ishlab chiqish.

3. Akademik yozuv ko'nikmalarini o'rgatish bo'yicha o'quv seminar-treninglar o'tkazish.

REFERENCES

1. Toshpo'latova N. Tahliliy jurnalistika. O'quv qo'llanma [Analytical journalism]. Tutorial, Toshkent, Bayoz Publ., 2019, 248 p.
2. Davis M. Scientific papers and presentations, second edition: navigating scientific communication in today's world. Academic press, 2004, 384 p.
3. Day R.A. and Gastel B. How to write and publish a scientific paper. Greenwood, 2006, 360 p.

4. Gross A.G., Harmon J.E., Reidy M. Communicating science: the scientific article from the 17th century to the present. Oxford university Press, 2002, 280 p.
5. Hartley J. Academic writing and publishing: a practical handbook. Routledge, 2008, 208 p.
6. Sviderskaja I.V., Kratasjuk V.A. Kak napisat' i opublikovat' stat'ju v mezhdunarodnom nauchnom zhurnale: metod. rekomendacii [How to write and publish an article in an international scientific journal: a method. recommendations]. Krasnoyarsk, Siberian Federal University, 2011, 52 p.
7. Arhipova E.I., Kazakova O.A. Zhanrovaja specifika nauchnoj stat'i po jazykoznaniju [Genre specificity of a scientific article on linguistics]. Vestnik nauki Sibiri – Bulletin of Science of Siberia, 2013, no. 1 (7). (In Russ.). Available at: <http://sjs.tpu.ru/> (accessed 28.02.2021).
8. Ponomarev A.B. Metodologija nauchnyh issledovanij [Research methodology]. Perm, Publishing house of Perm, 2014, 186 p.
9. Novikov A.M., Novikov D.A. Metodologija nauchnogo issledovaniya [Research methodology]. Moscow, Librokom, 2010, 280 p.
10. Sidorova E.O. Kak napisat' nauchnuju stat'ju [How to write a scientific article]. Available at: <http://repo.donnu.ru:8080/jspui/bitstream/123456789/4046/1/%D0%A3%D1%87%D0%B8%D0%BC%D1%81%D1%8F%20%D0%BF%D0%B8%D1%81%D0%B0%D1%82%D1%8C%20%D0%BD%D0%B0%D1%83%D1%87%D0%BD%D1%83%D1%8E%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D1%8E.pdf/> (accessed 10.01.2021).
11. Kuznecov I.N. Nauchnye raboty: metodika podgotovki i oformleniya [Scientific works: methods of preparation and design]. Minsk, Amalfeya, 2000, 544 p.
12. Nauchnyj apparat issledovaniya [Scientific research apparatus]. Available at: <https://infopedia.su/> (accessed 10.01.2021).
13. Krampit A.G. Metodologija nauchnyh issledovanij: ucheb. posobie [Research methodology: textbook. allowance]. Yurga, YUTI TPU Publishing House, 2006, 240 p.
14. Esin B.K. Istorija russkoj zhurnalistiki [History of Russian journalism]. Moscow, 2006, 370 p.
15. Chernikova E.V. Osnova tvorcheskoj dejatel'nosti zhurnalista [The basis of the journalist's creative activity]. Moscow, 2005, 414 p.
16. Ahmadulina E.V. Kratkij kurs teorii zhurnalistiki [A short course in the theory of journalism]. Moscow, 2006, 272 p.
17. Sergeev N.M. Jetika soavtorstva i jetika citirovaniya. [Ethics of co-authorship and ethics of citation]. *Rossijskij himicheskij zhurnal – Russian Chemical magazine*, 1999, no. 6. Available at: <http://vivovoco.ibmh.msk.su/vv/papers/ecce/ethics/serg.htm/> (accessed 10.01.2021).
18. Bernstein D.S. A student's guide to research. *IEEE Control Systems Magazine*, 1999, vol. 19, no. 1, pp. 102–108.
19. Bernstein D.S. Peer review. *IEEE Control Systems Magazine*, 2000, vol. 20, no. 3, pp. 8–11.
20. Thompson R.C. Author vs. referee: A case history for middle level mathematicians. *Amer. Math. Monthly*, 1983, vol. 90, pp. 661–668.
21. Korotkina I.B. Classical Elements and Word-formation in Academic Discourse. *Russian Journal of Linguistics*, 2018, vol. 22. no. 2, pp. 389–403.
22. Saidov H., Toshpulatova N., Nurmatov A. et al. Bosma ahborot vositalarida zhanrlar va mahorat masalalari [Questions of genres and skills in print media]. Tashkent, Uzbekistan, 2019, 509 p.
23. Zasurskij Ja.N. Zhurnalistika v izmenjajushhemsja mire [Journalism in a changing world]. *Vestn. Mosk. un-ta. Zhurnalistika – Bulletin of the Moscow University. Journalism*, 1991, no. 2.
24. Zhurnalistika v informacionnom pole sovremennoj Rossii: dolzhnoe i real'noe [Journalism in the information field of modern Russia: what is deserved and what is real]. Moscow, Aspekt Press, 2018, 176 p.
25. Urcul A.D. Problema informacii v sovremennoj nauke [The problem of information in modern science]. Moscow, 1975, 132 p.
26. Korkonosenko S.G. Osnovy zhurnalistiki [Fundamentals of Journalism]. Moscow, 2006, p. 128.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

1 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurabayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Salayev Nodirbek Saparbayevich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 15.03.2022-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 21,36 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 7.
TDYU tipografiyasida chop etildi.